




S.TO'YCHIYEV
N.TOSHMANOV

SITOLOGIYA

EMBRIOLOGIYA

GISTOLOGIYA



SAYFULLA TO'YCHIYEV, NIZOM TOSHMANOV

SITOLOGIYA EMBRIOLOGIY A GISTOLOGIYA

0‘zbekiston Respublikasi Oliy va 0‘rtal maxsus ta’lim vazirligi pedagogika Universitetlari va Institutlarining biologiya ixtisosligi bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlari darsligi sifatida tavsiya qilgan

Toshkent «Yangi asr aviodi» 2005

Sitologiya, embriologiya va gistologiya fanlari bo‘yicha laboratoriya-amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘zbek tilida o‘quv qo‘llanma yozilgan emas. Shuni e’tiborga olib ushbu darslikni yozishga harakat qilib ko‘rdik.

Darslik biologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va ilmiy ish olib borayotgan aspirantlarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Kurash Nishonboyev, biologiya fanlari doktori, prof. Erkin Qodirov, biologiya fanlari doktori, prof.

ISBN 5-633-01795-1

© S. To‘ychiyev, N.Toshmanov «Sitologiya. Embriologiya. Gistologiya». «Yangi asr avlodni», 2005-yil.

SO‘Z BOSHI

Ushbu darslik biologiyayo ‘nalishida tahsilolayotgan universitet va pedagogika institutlari talabalari uchun mo ‘Ijallangan bo‘lib majmuaviy tarzda birinchi marta o‘zbek tilida bitilmoqda. Meditsina va veterenariya yo ‘nalishi talabalari uchun mavjud bo ‘Igan laboratoriya mashg ‘uloti kitobi o ‘z sohasiga asoslanib yozilgan. Biologiya ixtisosligi talabalari uchun Sitologiya, Embriologiya va Gistologiyani o ‘rganishda hujayrani mikroskopik va ultramikroskopik tuzilishi va funksiyasiga bog‘lab taddiq qilishjinsiy hujayralar, ularning yetilishi va to ‘qimalarning tarixiy hamda individual rivojlanishini o ‘rganishga ko ‘proq ahamiyat beriladi.

Darslikda asosan, mavzu bo‘yicha qisqacha tushunchalar,

o‘rganilayotgan obyektning sxematik, mikroskopik va ultramikroskopik rasmlari berilgan. Ammo talabalar bu ta ’lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan, har bir darsda doimiy mikroskopik preparatlarni ko ‘rib, uni izohlashlari ta ’lum ko ‘nikmalarni hosil qilishlari lozim.

Sitologiya, embriologiya va gistologiya amaliy mashg‘ulot- larida talabalarning o‘zlari mikroskopik preparatlar tayyorlab, obyektni o ‘rganishlari katta samara beradi. Shu maqsadda qo ‘llanmada mikroskopik preparat tayyorlash texnikasi haqida ham ta ’lumotlar keltirildi.

Darslikni yozishda turli davrlarda rus va o ‘zbek tillarida nashr etilgan sitologiya, embriologiya va gistologiyaga oid adabiyot- lardan va qo ‘llanmalardan hamda o ‘zimizda 20-30 yildan beri to‘plangan manbalardan foydalanildi.

Sitologiya, embriologiya va umumiy gistologiyani birlashtirib, mazkur qo ‘llanma o ‘zbek tilida birinchi marta yozilayotganligi bois, ba ’zi bir kamchilik va nuqsonlardan xoli emas. Shuning uchun qo ‘llanma to ‘g ‘risida har qanday tanqidiy fikr, mulohaza va istaklar bildirgan taqrizchilarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

MIKROSKOP VA UNDAISHLASH QOIDASI

Mikroskop tuzilishi: mikroskop har bir biologning doimiy ish quroli hisoblanadi. Shu sababdan ham uning tuzilishini va unda ishlashni yaxshi bilish kerak.

Mikroskop optik asbob bo‘lib, ko‘rayotgan obyektni bir necha marta katta qilib ko‘rsatadi. Bu vaqtida ikki optik tizim kombinatsiyasi ya’ni obyektiv — manzaralar tizimi — birlamchi kattaligini bevosita ko‘rsatadi va okulyar manzaralar tizimi — obyektiv beradigan tasvirni kattalashtirib ko‘rsatadi: agar obyektiv 8 marta kattalashtirib ko‘rsatayotgan tasvirni 7 okulyar bilan yanada kattalashtirib ko‘radigan boisak, biz tekshirayot- gan obyektni 56 marta (7×8) kattalashtirib ko‘rayotgan bo‘lamiz. Aytish joizki, mikroskopda tasvir teskari ko‘rinadi. Shuning uchun agar preparatning o‘ng tomonini ko‘radigan bo‘lsak, chapga, tepa tomonini ko‘radigan boisak, pastga qarab siljitishimiz kerak. Mikroskopda tasvir kattalashib ko‘rilayot- gani uchun preparatni ohista, yumshoq siljitish tavsiya etiladi. Aks holda kerakli joy ko‘rish maydonidan chiqib ketadi.

Mikroskop, asosan 3 qismidan iborat. Mexanik qismiga barcha qismlar kiradi, asosini esa mikroskop tayanchi(oyog‘i) va shtativ tashkil etadi.

Shtativ — mikroskopning mexanik qismini yorituvchi optik linzalarni birlashtirib turadi. Asosiy qismi — oyog‘i ko‘proq taqasimon holatda bo‘ladi va u mustahkam o‘rnatish uchun qulaydir. Shtativ turli linzalarda turlicha shaklda bo‘lib, asosiy vazifasi tubus va revolvernii birlashtirishdan iboratdir. Tubusning yuqori qismida okulyar, pastki qismida esa obyektivlar joylashgan.

Prizmatik qopchiq yarim sharsimon shaklda bo‘lib, tubus vint bilan qotiriladi. Ilmiy tekshirish ishlarida stereoskopik tasvir olish uchun hamda har ikkala ko‘z bilan kuzatishga mo‘ljallangan binokulyar tubus ishlataladi. Tubusni yuqoriga va pastga tushirish uchun makrovint va mikrovintdan foydalilanadi.

Revolver tubusning pastki qismida joylashgan, 3 yoki 4 uyachasi boiib, ularga obyektivlar joylashadi va revolverni aylantirib, tez sur’atda turli kattalikdagi obyektivni almashtirish imkoniyati bor.

Buyum stolchasi o‘rganilayotgan preparat joylashtirib qo‘yiladigan joy boiib, uning o‘rtasi teshilgan va u tubus o‘qiga

tO‘g‘ri keladi. Buyum stolchasi mikromexanizmmng ustki qismi

oldida harakatchan va harakatsiz joylashadi. Stolcha ustida o‘rganilayotgan preparatning qimirlab ketmasligi uchun prujinasimon plastinkali ushlagichlar (zajim - klemma) — fiksatorlar mavjud.

Buyum stolchasi ostida yoritqich moslamalari bo‘lib, uning tarkibiga ko‘zgu va kondensor kiradi, ular yoritgich asmlv Qismi hisoblanadi. Bu kondensor to‘plan- gan yorug‘lik nurlarini preparat tomon yo‘naltirib turish uchun xizmat qiladi.

Mikroskopning optik qismiga revolverga burab qo‘yiladigan obyektivlar va tubusga qo‘yiladigan okulyarlar kiradi. Obyektivlar yon qismida ularni ancha katta qilib ko‘rsatadigan sonlar bitilgan. Shunga ko‘ra, obyektivlar kuchsiz, o‘rtacha kuchli va o‘ta kuchli bo‘ladi. Okulyarlar ham kuchsiz (5.7), o‘rtacha (lOx) va kuchli (15x) bo‘lib, ko‘proq shu ko‘rsatilgan holatda ishlataladi.

Mikroskop bilan ishslashdan oldin uni yaxshilab o‘rnatib olish kerak. Shundan so‘ng ko‘zguning botiq tomonini o‘rnatib eng kichik obyektiv kondensor linzalari ustiga qo‘yiladi. So‘ngra quyidagilarni bajarish kerak:

1. Stolning chekkasiga mikroskopni yaxshilab o‘rnatib, oku- lyarni ko‘z bilan bir tekisda joylashtirish lozim.

2. Kuchsiz obyektivda yorug‘likni topish uchun ko‘zguni aylantirib, o‘rganilayotgan maydonni bir tekisda yoritish kerak. Yorug‘lik ko‘zguni qamashtirmasligi lozim.

5

3. Buyum stolchasiga preparatni joylashtirib, obyekt o‘rni- ni stolcha teshigi bilan obyektiv to‘g‘risiga qo‘yib klemmalar bilan qotirish kerak.

4. Makrovint yordamida fokus topiladi.

5. Preparat kuchsiz obyektivda kuzatiladi va kerakli dara- jada yaxshilab qotiriladi.

6. Mikroskop fokusini o‘zgartirmay revolverni aylantirib, kuchsiz obyektiv kuchli obyektivga almashtiriladi. Kuchli obyektivning o‘rniga tushganligini revolverning chiqillashidan bilish mumkin.

7. Makrovint yordamida ehtiyotlik bilan kuchli kattalik- ning fokusi topiladi va ko‘zga moslashtirish uchun mikrovintdan foydalaniladi.


8. Preparat kuchli obyektiv mikrovintning oldinga va orqaga to‘xtovsiz burish yordamida o‘rganiladi.

Mikroskopda, asosan, chap ko‘z yordamida kuzatiladi, o‘ng ko‘z doimo ochiq bo‘lishi lozim, chunki ko‘z muskullari koordinatsiyalangan holda ishlaydi. Bir ko‘zning muskuli qisqarganda, ikkinchisi ham shu holatga tushadi. Dastlab o‘ng ko‘z xalaqit berayotganga o‘xshasa-da, keyinchalik moslashib boradi.

Ish tugagandan so‘ng yordamchi apparat yordamida rasm chiziladi. Shundan so‘ng obyektiv kuchsiziga o‘tkazilib, preparat buyum stolchasidan olinadi. Kuchli obyektiv ostidan preparat olinmaydi, chunki u buzilib, obyektivni sindirishi mumkin.

Kuchsiz obyektiv bilan ishlayotganda, kondensor pastga tushiriladi, kuchlisi bilan ishlaganda, yuqoriga ko‘tariladi. Bu usul yordamida yorug‘likning qulay holati topiladi va preparat detallari yaqqol ko‘rinadi.

Mikroskopning diafragmasi mikroskopik tuzilmalar kontrastligi yaqqol ko‘ringuncha berkitilishi kerak.



1-rasm. Mikroskop (MBR-1). 1-oyog‘i; 2-kolonkasi; 3-tubusi; 4-buyum stolchasi; 5-revolver; 6-qisqichlar; 7-okulyar; 8obyektivlari; 9-makrovint; 10-mikrovint; 11-kondensor; 12-kondensor vinti; 13-diafragma; 14-oynacha

MIKROSKOP TURLARI

Hozirgi vaqtida gistologik preparatlarni mikroskopda ko‘rishning 15 dan ortiq usuli mavjud. Quyida ularning eng asosiyлари to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Qorong‘i maydonli mikroskopda ko‘rish. Bu mikroskopning tuzilishi va unda preparatlarni ko‘rish tizimi yorug‘ maydonli mikroskop bilan deyarli bir xil bo‘lib, u tirik hujayra va to‘qima tuzilmalarini o‘rganishga mo‘ljallangan. Unda hujayrani qorong‘i maydonda ko‘rish kondensor yordamida amalga oshiriladi, ya’ni yorug‘lik nuri kondensor orqali obyektga qiyalatib tushiriladi. Bunda obyekt (preparat) yorishib, maydon qorong‘iligidagi qoladi. Tirik hujayra tarkibidagi

tuzilmalar yaqqol ko‘rinishi uchun obyektga tushayotgan yorug‘lik nuri har xil optik qalinlikda bo‘lishi shart. Mazkur mikroskopda bo‘yalgan yoki bo‘yalmagan tirik hujayralarni, bakteriya va strukturalarini tadqiq etish ancha qulay.

7


Fazali kontrast mikroskopda ko‘rish. Bo‘yalmagan tirik hujayralar, odatda, yorug‘lik nurini tutib qolmasdan, o‘zidan o‘tkazib yuboradi. Shuning uchun ular mikroskopda ko‘rinmaydi yoki anglab bo‘lmas darajada ko‘rinadi. Ularni ko‘rish uchun tegishli bo‘yoqlar bilan bo‘yashga to‘g‘ri keladi. Fazali kontrast mikroskopiya usuli o‘rganilayotgan bo‘yalma- gan tuzilmalarning bizga zarur bo‘lgan kontrastligini ta’minlaydi. Kontrastlikni, odatda, obyektivda, undagi fazali plastinka deb ataladigan kondensorga o‘rnatilgan maxsus halqa

— diafragma hosil qiladi. Ob’yektni yaqqol ko‘rish nurning sinishiga bog‘liq, yorugiik nuri obyektdan qancha tez o‘tsa, uning yoritilishi, ya’ni kontrastligi shuncha ortadi, binobarin, hujayra tuzilmalari ham shunga yarasha aniq ko‘rinadi.

Interferension mikroskopda ko‘rish. Mazkur mikroskopda ko‘rish usuli fazali kontrast mikroskopga o‘xshasa-da, unga nisbatan ancha ko‘proq imkoniyatlarga ega. Masalan, uning yordamida bo‘yalmagan tirik hujayralarning aniq tasvirini va ularning quruq vaznnini (massasini) aniqlash mumkin. Bundan tashqari, bu usul yordamida hujayralarning qalinligini, tarkibidagi quruq moddalarning zichligini, shu- ningdek, suv, nuklein kislotalar (NK), oqsil va fermentlarning miqdorini bilish mumkin. Interferension bo‘yalgan preparatlarning yadrosi, odatda, qizilga, sitoplazmasi esa zangori rangga bo‘yaladi.

Lyuminessent (yoki flyuoressent) mikroskopda ko‘rish. Lyuminessentsiyada qator moddalarning atomlari (rnole- kulalari) qisqa toiqinli nurlanishni yutib, harakatchan holatga keladi. Ularning harakatchan holatdan normal me’yorga kelishi yorug‘likni katta to‘lqin uzunligida tarqatib yuborish hisobiga amalga oshiriladi. Binobarin, gistologik preparat unga nur ta’sir qilish vaqtida hosil bo‘lgan energiya hisobiga nurlanadi, ya’ni flyuoressensiyanadi. Binafsha nurlar yoki to‘lqin uzunligi 0.27 - 0.4 mkm li spektorning ko‘k qismi yorug‘lik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Energiya obyektga (preparatlar) turli yo’llar orqali va turlichayta’sir qilishi mumkin. Shunga ko‘ra, ular bir necha xilga bo‘linadi: fotolyuminessensiya, rentgennolyuminessensiya, radio- lyuminessensiya shular jumlasidandir.

Elektron mikroskopda ko‘rish. Gistologik preparatlarni elektron mikroskopda o‘rganish hozirgi vaqtida keng tarqalgan usul boiib, uning yordamida hujayralarning nozik tuzilmalari, orgonoid va hujayra kiritmalarining tuzilishi hamda ularda sodir boiadigan nozik o‘zgarishlar kuzatiladi. Elektron mikroskop 100000 marta va undan ham ortiq kattalashtiriladi. Chunki, elektron mikroskopda yorugiik mikroskopdagi kabi uzun toiqinli nurdan emas, balki qisqa toiqinli elektronlar nuridan foydalilanadi.



2- rasm. YEVM -100 A K markali mikroskop. 1-mikroskop kolonkasi; 2-boshqarish pulti; 3-Lyuminessent ekranli kamera; 4-tasvirni tahlil eiuvchi blok; 5-kuzatish signalini beruvchi moslama

Binobarin, kuzatilmochi boigan obyekt tasviri elektronlar nuri yordamida ko'rsatilsa, bunga elektron mikroskop deyiladi (2-rasm). Demak, qisqacha ta'riflaydigan boisak, elektron mikroskopda ko'rish — obyekt orqali o'tkazilgan elektronlar tutamini elektromagnitli linzalar bilan fokuslash orqali preparat tasvirini olib o'rGANISHdan iborat.

9

Oddiy mikroskopda hayvonlar to'qimasining mikroskopik tuzilishini o'rGANISH uchun kesmalarning (preparatlarning) qalinligi taxminan 3-5 mikron (mk) bo'lishi kerak. Bundan qalin boisa, hujayralar qavati ortib ketib, obyektning tasviri aniq ko'rinxmaydi, ularni o'qish yana ham qiyinlashadi.

Elektron mikroskopning afzalligi shundaki, to'qimalardan olinadigan kesma ancha yupqa (0.02 mk) bo'ladi. Albatta, bunday kesmalar, odatda, ultramikrotomdan foydalanib tayyorlanadi. Buning uchun esa mikrotom stolga qimirlaydigan qilib o'rnatiladi, pichoqlari aiohida shishadan yasaladi. Kesmaning qalinligi metall sterjenning kengayishini ta'minlaydi. Oddiy mikroskopda obyektning qalinligi, ya'ni hujayra yoki yadrolarning keng maydondaligi, ularning diametri «mikron» bilan o'lchansa, elektron mikroskopda «nanomer» bilan, aksari hollarda esa «angestrem» (A^0)² bilan oichanadi.

Hozirgi vaqtida elektron mikroskopning yangi-yangi turlari yaratilmoqda. Masalan, hajmiy (rostlovchi) elektron mikroskop shular jumlasidandir. Uning yordamida preparatlarning hajmiy tuzilishi o'rGANILADI.

PREPARATLAR TAYYORLASH TEXNIKASI

Sito-gistologik tekshirishlar uchun, odatda, biologik obyektlardan muddatli va doimiy preparatlar tayyorlanadi. Doimiy preparatlarni tayyorlash bir qancha bosqichlardan iborat: 1) materialni olish; 2) fiksatsiya qilish; 3) yuvish; 4) suvsizlantirish- zichlashtirish; 5) quyish; 6)kesmalar tayyorlash; 7) bo'yash; 8)kesmalarni suvsizlantirish; 9) yoritish; 10) yakunlash (kesmalarni yopqich shisha bilan berkitish).

Materialni olish. Tekshirish uchun material kichik bo'lakchalar holida, murdani yorish paytida, tirik hayvonlar va odamlardan biopsiya usuli bilan olinadi.

0‘quv preparatlarini tayyorlash uchun sute Mizuvchi hayvonlar (itlar, mushuklar, quyonlar, kalamushlar) dan olingan materiallardan foydalani- ladi. Buning uchun qon tomiriga havo yuborish (emboliya) yoki so‘yish (dekapitatsiya) yo‘li bilan hayvonlar o‘ldiriladi va shu zahotiyoq organlaridan preparat tayyorlash uchun bo‘lakchalar olinadi.

0‘quv preparatlar uchun material olganda, uning yangiligiga ahamiyat berish zarur, chunki murda organlarida tezda qator o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Materialni murdadan 4-12 soat vaqt ichida olish zarur. Biopsiya usuli ko‘pincha diagnostika maqsadlarida qo‘llanadi, shuning uchun bu usul ko‘proq klinikalarda va eksperimental laboratoriyalarda ishlataladi.

Fiksatsiya qilish. Olingen materialni tezda fiksatsiya qilish zarur. Fiksatsiyadan maqsad — to‘qimalarining hayotiy tuzilmasini saqlab qolishdan iborat. Hujayra sitoplazmasi oqsilini ivitish fiksatsiya mohiyatini belgilaydi. Bunda oqsil- ning chirishiga yo‘l qo‘yilmagan bo‘ladi, natijada hujayra va to‘qimalarning tuzilmasi saqlanib qoladi.

11

Fiksatsiya qilish shartlari: a) bo‘laklarning kattaligi 1-2 sm³ dan oshmasligi kerak; b) bo‘lakcha qanchalik kichik bo‘lsa, fiksatsiya shunchalik sifatli boiadi; v) fiksatsiya sifatli bo‘lishi uchun fiksatorning hajmi fiksatsiya qilinuvchi bo‘lakcha hajmidan 100 baravar ko‘p bo‘lishi kerak; g) fiksatsiya qilish muddati fiksatorlarning xiliga qarab turlicha bo‘ladi.

Preparatni qaysi usulda bo‘yash ko‘zda tutilgan bois, shunga mos holda fiksator tanlanadi. Fiksatorlarning ba’zilari deyarli barcha laboratoriyalarda qo‘llaniladi. Bunday fiksatorlarga quyidagilar kiradi:

a) 12% li formalin eritmasi. Uni tayyorlash uchun 100% li formalindan 12sm³ olib, 88 sm³ suvgaga qo‘shiladi. Tekshirish uchun olingen bo‘lakchaning hajmi 1-2 sm³dan oshmasligi kerak.

Bo‘lakchalarni 12% li formalindan fiksatsiya qilish muddati kamida 24 soat va saqlash maqsadida bundan ham uzoq vaqt ushlab turish mumkin. Agar bo‘lakchani yillab formalin suyuqligida saqlashga to‘g‘ri kelsa, u holda har 3-4 oyda su- yuqlikni almashtirib turish lozim. Shunda to‘qimalar tuzilishi keskin o‘zgarmay saqlanadi.

Hujayralarning nozik tuzilishi, bu usulda funksiya qilinganda yaxshi saqlanmaydi.

b) Myuller suyuqligi. Myuller suyuqligi tayyorlash uchun 2,5g kaliy bixromat va 1g natriy sulfat tuzlari 100 sm³ distillangan suvda eritiladi. Bo‘lakchalar hajmining 1 sm³ bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Fiksatsiya 7 kun davom etadi, bunda har kuni fiksatorni almashtirib turish zarur. Myuller suyuqligi, odatda, ko‘p miqdorda tayyorlanadi, ishlatish vaqtida undan Myuller- Formal aralashmasi tayyorlanadi, ya’ni har 100 sm³ Myuller suyuqligiga 70 sm³ formalin qo‘shiladi. Bu eritma fiksatsiya- sining tezlashtirish uchun qoilaniladi, chunki xrom tuzlari to‘qima ichiga sekinlik bilan singib ketadi, formalin qo‘shilishi bilan esa fiksatsiya vaqtqi qisqaradi. Bunday suyuqlik to‘qimaning umumiyl tuzilmasini yaxshi saqlaydi va keyinchalik turlicha bo‘yoqlar bilan bo‘yash imkonini beradi.

v) Flemming suyuqligi. Tarkibi 2%li xrom eritmasi, 1 %li osmiy kislota

eritmasi va muz sirka kislotasidan iborat. To‘qima

12

bo‘lakchalari har birining hajmi 1-2 sm³. Ular fiksatorda qorong‘i joyda bir kun turishi lozim.

Afzalliklari: to‘qimaning nozik tuzilishini yaxshi saqlaydi, faqat fiksatsiya qilibgina qolmasdan, balki ba’zi bir to‘qimalarni (yog‘, miyelinli nerv tolasini) qora rangga bo‘yaydi.

g) Karnua fiksatori. Tarkibi: 100° spirt 12 sm³, suvsiz- lantirilgan xloroform -6 sm³, muz sirka kislotasi — 2sm³. Bu fiksator ko‘pgina gistokimyoviy uslublar uchun qo‘llaniladi. Bo‘lakchalarining kattaligi 2-3 mm³. Fiksatsiya vaqtি muzxonada 1,5-2 soat. Bunda hujayralarning nozik tuzilishi va kimyoviy tarkibi yaxshi saqlanadi. So‘nggi paytda miqdoriy gistokimyoviy tekshirishlar o‘tkazish uchun to‘qimalarning FSU fiksatori keng qo‘llanilmoqda. Tarkibi: 100% li 60 sm³ formalin, 100°li 20 sm³ spirt va 6 sm³sirka kislotasidan iboratdir.

Hujayra organoidlarini aniqlash uchun maxsus fiksatorlar mavjud: mitoxondriyalar uchun - Rego fiksatori, Golji maj- muasi uchun aoyama fiksatori va boshqalar.

Yuqorida qayd qilingandek, u yoki bu fiksatorning qo‘llanilishi tadqiqotchining oldiga qo‘ygan maqsadiga bog‘liq.

Yuvish. Fiksatsiya tugagandan so‘ng fiksator to‘kib tashlanadi, bo‘lakchalar esa suvda yuviladi. Ba’zi fiksatorlardan so‘ng (spirt, karnua, shabadash suyuqligi va boshqalar) to‘qimani yuvmasdan to‘g‘ridan- to‘g‘ri keyingi bosqich — suvsizlantirishga o‘tkaziladi.

Suvsizlantirish- zichlantirish. Yuvilgandan so‘ng bo‘lakchalar issiqligi oshib boruvchi spirlarda 50° dan boshlab, 60°, 70°, 80°, 90°, 96° nihoyat 100°, ya’ni mutlaq spirlarda zichlashtiri- ladi. Spirlarda bo‘lakchalar suvsizlanadi va zichlanadi.

Quyish. Bo‘lakchalar spirlarda ma’lum darajada zichlash- ganligiga qaramay, hali yupqa kesmalar olish uchun yetarli darajada qattiq bo‘lmaydi, shuning uchun keyingi bosqichlarda ularni maxsus moddalar bilan singdiriladi. Shundan keyingina bo‘lakchalar bir xil zichlik kasb etib, ularni yupqa kesmalarga kesish imkoniyati tug‘iladi.

O‘rganish lozim bo‘lgan to‘qimalarni: selliodin, parafin, sellloidin-parafin va jelatinga solish mumkin.

13

Elektron mikroskopik tekshirishlar uchun to‘qima bo‘lakchalari hayvon oMdirilgandan so‘ng yoki biopsiya paytida 1- 2 minut orasida fiksatorga solinishi shart. Shundagina hujayra va ular organoidlarining nozik tuzilmasi yaxshi saqlanadi.

Fiksatorlar sifatida ksosan osmiy kislotaning 1-4% li eritmasi hamda glutaraldegidning 3-6%li eritmalari ishlatiladi. Fiksatsiya jarayoni osmiy kislotasi eritmasida 1,5-2 soat, glutaraldegidda 6 soatdan bir necha kungacha davom etadi. Fiksatsiyadan so‘ng bo‘lakchalar konsentratsiyasi ortib boruvchi spirlarda suvsizlantirilib metakrilat, epon, araldit, vestopal kabi sintetik smolalarga solinadi.

Kesish. Selliodin va parafinga solingan bo‘lakchalar chanali mikrotomda

maxsus po'latdan tayyorlangan pichoqlar yorda- mida kesiladi. Selloidin keshmalarining qalinligi 7-8-10 mk boii- shi maqsadga muvofiqdir.

Parafin keshmalarining qalinligi 5-7 mk bo'ladi.

Chanali mikrotomlardan tashqari, muzlatuvchi mikrotomlar ham mavjud, bunday mikrotomlarda yangi yoki faqatgina fiksatsiya qilingan, ammo zichlantirilmagan parafin va boshqa moddalar singdirilmagan bo'lakchalar kesiladi. Bo'lakchalar qattiq holatdagi karbonat angidrid yordamida muzlatiladi.

Elektron mikroskopiya uchun preparatlar tayyorlashda sintetik smolalarga qo'yilgan bo'lakchalardan maxsus mikrotomlar

— ultramikrotomlarda olmos yoki shishadan tayyorlangan pichoqlar yordamida o'ta yupqa keshmalar olinib, ular maxsus to'rlarga solinadi. Bu keshmalar qalinligi 200- 300 A (angstrom)¹ bo'lib, parafin keshmalaridan 200-300 marta yupqadir.

Bo'yash. Hujayra tarkibiy elementlarining rangsizligi va nur singdirish ko'rsatkichi bir xil bo'lganligi sababli, ularni ko'rish uchun bo'yash zarur. Hujayraning tarkibiy qismlari turli kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lishi sababli ularni ko'rish uchun turli xildagi bo'yoqlar bilan bo'yash lozim. Chunonchi, nordon xususiyatga ega bo'lgan bo'yoqlar hujayraning sitoplazmasini va hujayralararo moddani ishqoriy xususiyatga ega bo'lgan bo'yoqlar esa yadroni bo'yaydi.

¹ angstrom (A)—0,0001 mk

14

Eng ko'p qo'llanuvchi yadro bo'yoqlari: 1. Gemotoksilin qamish daraxtidan tayyorlanuvchi o'simlik bo'yog'i bo'lib, yadroni binafsha rangga bo'yaydi. 2. Karmin — hayvon bo'yog'i, yadroni qizil rangga bo'yaydi. 3. Ishqoriy- anilin bo'yoqlari (gensian- violet, kretil- violet, metil-violet, ishqori- fuksin va boshqalar).

Eng ko'p qo'llanuvchi nordon bo'yoqlardan eozin hujayra sitoplazmasini va hujayralararo moddani pushti rangga bo'yay- di, oranj esa xuddi shu tuzilmalarni qizil rangga bo'yaydi.

Bundan tashqari, to'qima va hujayralarning muayyan tarkibiy qismlari uchun maxsus bo'yoqlar ham mavjud: 1) sudan III, qora sudan- yog'larni, yog' hujayralarini va nerv tolalarini qizil yoki qora rangga bo'yaydi; 2) elastik tolalarni bo'yash uchun ikki xil bo'yoq mavjud- orsein- elastik tolalarni to'q jigar rangga bo'yaydi va rezorsin - fuksin elastik tolalarni pushti rangga bo'yaydi; 3) nerv to'qimasini va argirofil tolalarini aniqlash uchun ularni kumush nitrat tuzi bilan bo'yaladi.

Bitta bo'yoq ishlatilsa, oddiy bo'yash, ikkita yoki undan ortiq bo'yoqlar ishlatilsa, masalan, nordon va asosli bo'yoqlarni bir vaqtning o'zida qo'llanilsa, murakkab bo'yash deyiladi.

Eng ko'p qo'llaniladigan murakkab bo'yash usullariga quyidagilar kiradi:

1) gemitoksilin-eozin bilan bo'yash. Bu usul organ yoki to'qimalarning tuzilishini bilish uchun umumiyl bo'yoq sifatida qo'llaniladi.

Bo'yash tartibi: keshmalar gemitoksilinga 5-10 minut solib qo'yiladi, so'ngra suvda chayib 2-3 minut eozinga solinadi, qayta suvda chayilib, undan keyingina

suvsizlantiriladi, yoritiladi va yakunlashga o‘tiladi. Preparatlarda yadro binafsha rangga, sitoplazma va hujayralararo modda pushti rangga bo‘yaladi;

2)Van- Gizon usuli: bu usul mushak to‘qimasi va kollagen tolalarni yaxshiroq ko‘rish imkoniyatini beradi. Preparatlarda hujayra yadrolari to‘q jigar rangga, sitoplazma och sariqqa, to‘q sariqqa, biriktiruvchi to‘qima qizil rangga bo‘yaladi;

3) elastik tolalar uchun Veygert usuli qo‘llaniladi.

15

4) argirofil tolalar Donskoy yoki Gomori usuli bo‘yicha bo‘yaladi;

5) nerv to‘qimalarini aniqlash uchun kumush nitrat tuzi bilan impregnatsiya qilish usullari qo‘llaniladi-markaziy nerv tizimi uchun Bilshovskiy, periferik nerv tizimi uchun Gross- Bilshov- skiy usullaridan foydalaniladi.

To‘qima va hujayralar tarkibidagi kimyoviy moddalar va ularning joylashishini aniqlash va kuzatishga imkon beruvchi qator gistokimyoviy bo‘yash usullari ham mavjud. Masalan, polisaxaridlarni aniqlash uchun Best usuli, SHIK-reaksiyasi, RNK ni aniqlash uchun Brashe usuli, DNKn ni aniqlash uchun Fyolgen usuli va boshqalar.

Elektron mikroskopik preparatlar esa og‘ir metall tuzlari- uranilatsetat hamda qo‘rg‘oshining sitrat tuzlari bilan bo‘yaladi.

Kesmalarni suvsizlantirish. Kesmalar bo‘yalgandan so‘ng spirtda suvsizlantiriladi.

Yoritish. Kesmalar suvsizlantirilgandan so‘ng yorug‘lik nurlari yaxshi o‘ta olishi yoki tiniq bo‘lishi uchun ularni yoritish zarur.

Quyidagilar yorituvchi moddalar hisoblanadi:

1. Karbol- ksilol
2. Ksilol yoki toluol
3. Chinnigul moyi va boshqalar.

Yorituvchi moddada kesmalar 0,5 - lminut ushlab turiladi.

Yakunlash. Yakunlash uchun kanada yoki kadr balzami ishlatiladi. U kesmani biriktiribgina qolmay, balki preparatlarni yoritishga ham yordam beradi.

Predmet shishasiga yopishtirilgan kesmalar yorituvchi moddadan chiqarilib, unga 1 tomchi balzam tomiziladi va yopqich oyna bilan yopiladi. Shundan keyingina u ko‘rish uchun tayyor bo‘ladi.

Preparatlarni yorug‘lik mikroskoplari yordamida ko‘rib o‘rganiladi. 1-rasmida ko‘rsatilgan MBR-1 tipidagi mikroskoplar amaliy ishda eng ko‘p qo‘llaniladi. Maxsus tadqiqot uchun turli xildagi mikroskoplar, chunonchi, polyarizatsion, fazali kontrast, ultrabinafsha nurli va boshqa mikros-

16

koplardan foydalaniladi. Bundan tashqari, o‘rganilayotgan obyektni benihoya kattalashtirib ko‘rsatuvchi elektron mikroskoplar (2-rasm) ilmiy-tadqiqot ishlarida keng qo‘l- lanilmoqda.

Mikroskoplarning tuzilishi, ishlash jarayoni va undan foy- dalanish barcha darslik va qoilanmalarda batafsil yoritilgan.

I bo‘lim SITOLOGIYA

i HUJAYRA TARKIBIY QISMLARI VA XILLARI


Sitologiya (Citos- hujayra va logos- ta'limot)biologiya fanining bir tarmog'i bo'lib, hujayralarning tuzilish qonuniyatlari, vazifalari va taraqqiyotini o'rgatadi. Odam va barcha hayvonlar organizmi hujayralardan tuzilgan. Hujayralar bajaradigan vazifasi, joylashishiga ko'ra turlicha shakl va kattalikka ega: kichik limfositlar 4-7 mk, tuxum hujayralari 200 mk gacha va mushak hujayralari bir necha santimetrgacha boradi. Uzun va qisqa o'simtali nerv hujayralari o'zidan impuls o'tkazish xususiyatiga ega. Erkak jinsiy hujayrasi - spermatazoid bajaradigan funksiyasiga ko'ra xivchin tutadi.

Hujayralar turli kattalikka va shaklga ega bo'lishiga qaramay, ularning tuzilishi umuman o'xshashdir. Barcha hujayralar sitoplazma, yadro va hujayra qobig'i dan tashkil topgan. Hujayraning barcha asosiy qismlari — sitoplazma oqsillar, yog'lar va uglevodlardan iborat. Protoplazmaning ti- riklik xususiyatlari undagi oqsil bilan bog'liqdir.

Sitoplazma — hujayraning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u hujayra pardasi va yadrosidan tashqari hujayraning barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Sitoplazma bir tomonidan hujayra pardasi, ikkinchi tomonidan esa yadro qobig'i bilan chegaralangan. Sitoplazmaning asosiy elementlari membranalar va donador tuzilmalardan iborat. Bular tuzilishi turlicha bo'lgan trofik, sekretor, pigment va boshqa kiritmalar, shuningdek, hujayra organellalaridir. Bulardan tashqari, hujayralarda maxsus organellalar, ya'ni tonofibrillalar, miofibrillalar va neyrofibrillalar uchraydi. Hamma organella va kiritmalar sitoplazmaning shaklsiz xususiy mod^asi — gialoplazmada yotadi. Sitoplazma termini «protoplazma» termini bilan bir xil tushunchani anglatmaydi.

Gialoplazma sitoplazmaning organellalar va kiritmalari bolmagan shaklsiz qismidir.

18



Hujayra

Γ~

Hujayra qobig'i
(sitoplazma-

plazmolemma)

Sitoplazma

\

Yadro 1. Yadro qobig‘i (koriolemma)

2. Xromatin (xromosoma)

3. Yadrocha

4. Yadro shirasi

Orgar ellalar

Gialoplazma

Membranali organellalar

1. Mitoxondriya

2. Endoplazmatik tur

3. Plazmatik kompleks (Golji apparati)

4. Lizosoma

5. Peroksisoma

Membranasiz organellalar

1. Erkin ribosomalar va polisomalar

2. Mikronayacha

3. Hujayra markazi (sentrosoma)

4. Sitoplazmaning fibrilyar tizimlari

Kiritmalar


1. Trofik

2. Sekretor

3. Ekskretor

4. Pigment


3-rasm. Hujayraning elektron mikroskopik tuzilishi



4-rasm. Hujayraning elektron-mikroskopik tuzilishi. 1-sitolemma; 2-pinositoz pufakchalar; 3-hujayra markazi;

4-gialoplazma; 5-donador endoplazmatik to 'r:a-sitomembrana; b-ribosomalar; 6-yadro; 7-perenuklyar bo 'shliq; 8-yadro membrana porasi; 9-yadrocha; 10-Golji apparati; 1 l-vakuolalar; 12-mitoxondriya; 13-lizosomalar; 14-fagositoy bosqichlari;

15-hujayralararo bog'lanish; 16-mikrovorsinkalar



5-rasm. Fiksatsiya qilingan hujayralar shakllari.

1-ichak epiteliysining silindrsimon hujayrasi; 2-kubsimon hujayralar; 3-yassi epiteliy; 4-qadahsimon hujayralar; 5-qon hujayralari; 6-silliq muskul hujayrasi; 7-spermatozoid; 8-o'simtali nerv hujayrasi; 9-qanotli hujayra

21

PLAZMOLEMMA. FAGOSITOZ. PINOSITOZ

Tashqi membrananing tuzilishi. Barcha organ va to'qimalar hujayrasining sitoplazmasini tashqi muhitdan uch qavat - tashqi qavat - qobiq ajratib turadi. Bunga sitolemma yokiplazmolemma ham deyiladi. Uning o'rtacha qalinligi 7,5 nm ga teng boiib, yorugiik mikroskopida ko'rinxmaydi. Shunga ko'ra, uning tuzilishini o'rganish uchun faqat elektron mikroskopdan foydalilaniladi. Qobiqning ikkita chetki qavatlari oqsildan tashkil topgan boiib, o'rta qavati yog'simon moddadan iborat. Membranasida mayda teshikchalar boiib, ular orqali kerakli moddalar hujayra ichiga o'tib, moddalar almashinuvi natijasida hosil boigan chiqindi moddalar tashqariga chiqadi. Membranalar fagositoz va pinositoz qilish xususiyatiga ega zarrachalarni hamda tarkibida har xil moddalar erigan suyuq-lik tomchilarini o'rab olib, yemirib yuboradi. Binobarin, hujayra tashqi membranasining fiziologik vazifasi hujayraga kerakli oziq moddalarni o'tkazib, keraksizlarini tashqariga chiqarib, yemirib, hujayra butunligini va hayot faoliyatini ta'minlab turishdan iborat. Membrananing tashqari va ichkariga o'sib chiqqan o'simtalarini ham boiadi. Ular ana shu o'simtalarini, hosil qilgan qatlamlari bilan qo'shni hujayralarga bevosita birikib, ular bilan o'zaro bogiqligini, mustahkamligini hamda aloqasini ta'minlab turadi. Ichkari tomonidan ichki qavat bo'rtib chiqib, yadro qismigacha boradi va faqat sitoplazma bilan emas, balki

yadro bilan ham munosabatda boiadi.

Funksiyalari. Hujayralarning ichki muhiti tashqi yopishqoq- ligi, kimyoviy tarkibi, tarkibida ionlar boiishi va ko‘pgina boshqa fizik va kimyoviy xossalariiga ko‘ra, tevarak- atrof muhitidan farq qiladi. Tashqi membrana ichki muhitni tashqi muhitdan chegaralab turadi va bu farqni hujayraning butun hayoti davomida saqlaydi. Bu membrana teshiklari orqali hujayra ichiga ionlar, suv va boshqa moddalarning mayda molekulalari, masalan, glyukoza o‘tadi.

Tashqi membrana hujayraga ion va molekulalar kirishini va undan tashqi muhitga chiqishini tartibga solib turadi. Molekula va ionlar, turli moddalar ya’ni hujayra bilan tashqi muhit

22

orasidagi bunday almashinuv doimiy sodir bo‘lib turadi.

Hujayraga ionlar va mayda molekulalardan tashqari, bir necha mikron keladigan yirkroq oziq zarralari, shuningdek, organik moddalar, masalan, oqsillarning yirik molekulalari kiradi. Bunday moddalar tashqi membrana teshiklari orqali hujayraga o‘ta olmaydi, chunki teshiklar ular uchun kichiklik qiladi va ulaming hujayraga kirishi fagositoz yo‘li bilan amalga oshadi (fagositoz — yutish, qamrash, sitos- hujayra).

Fagositozda, ya’ni hujayra ichiga qattiq zarrachalar kirishida, tashqi membrananing aktiv ishtirok etishi chizmadan ko‘rinib turibdi. Dastlab zarrachalar membranaga tegadi va uning ana shu joyida kichikroq botiq hosil boiadi. Membrananing shu botgan joyi asta-sekin kattalashib chuqurlashadi va unga tushgan zarra hujayra ichida qoladi. Amyobalar va ko‘pgina boshqa sodda organizmlar fagositoz yo‘li bilan oziqlanadi. Ko‘p hujayrali hayvonlarda va odamda faqat ba’zi bir hujayralar, masalan, leykositlar (oq qon tanachalari) fagositoz funksiyasini o‘taydi. Bu hujayralar bakteriyalarni, shuningdek, organizmga tasodifan kirib qolgan turli- tuman qattiq zarralarni yutadi va shu yo‘l bilan organizmni kasallik paydo qiladigan mikro- organizmlar va yot zarralardan himoya qiladi (tozalaydi).

®

® ® ©

пт

ВДВД ййЦШ

nm fvym ў ўш

Oqsil FosfolipidlarQ Gidrofil qutb Sitoplazma M Gidrofob autb

6-rasm. Membrananing molekulyar tuzilishi chizmasi

HAYVON VA OSIMLIK HUJAYRALARINING O ‘XSH ASHLIGI
HAMDA FARQLARI

Tiriklikning tuzilish birligi hujayra ekan, albatta, uning tarkibi va tuzilishlari barcha tirik organizmlarda o‘xshash bo‘ladi. Shu jumladan, hayvon va o‘simlik hujayralari tuzilishida o‘xshashliklar ko‘p. Bu o‘xshashliklar yadro

23

tuzilishida, sitoplazma orgonoidlarida va ko‘payish usullarida yaqqol ko‘rinadi. Ammo hayvonlar hamda o‘simlik hujayralari o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Hayvon hujayralari o‘simlik hujayralariga nisbatan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) hujayralarning yuqori darajada ixtisoslashishi, ya’ni bir xil hujayralar funksiyasini ikkinchi xil hujayralar bajara olmasligi;

2) funksiyasidan kelib chiqib, hujayra shakllarining xilma- xil bo‘lishi;

3) maxsus orgonoidlarni hosil qilish;

4) blastometrlar shakllanishi.

0’simlik hujayrasini asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) har bir hujayrada tashqi tayanch qavat — hujayra qobi- g‘ining mavjudligi;


2) doimiy vakuolli tizimning bo‘lishi;

3) protoplastda maxsus organella — plastidalarning mavjudligi;


4) ergastik (oziq moddalar ,zararli mahsulotlar) moddalar to‘planishi.

5) tirik hujayralarning qaytmas ixtisoslashishi va embrional holatda ikkilamchi o‘zgarishga o‘tishi;

6) kariokinezda sentriolaning boimasligi va sitokinezda fragmoplastlarning hosil bo‘lishi.




7-rasm. Hayvon va o ‘simlik hujayralarining umumlashgan chizmasi. a-hayvon hujayrasi, b-o ‘simlik hujayrasi. 1-mitoxondriya; 2-plazmatik membrana; 3-endoplazmatik to ‘r; 4-sitoplazma; 5-Golji apparati; 6-sitoskelet; 7-yadro; 8-lizosoma; 9-sentriola; 10-vakuola; 11-xloroplast



8-rasm. Hujayra plazmolemmasining tuzilishi. a-mikrovorsinkalar; b-glikokaliks; d-hujayralararo bog 'lanish.

1-plazmolemma; 2-mikrovorsinkalar

25



9-rasm. 1-pinositoz; 2-fagositoz

Har xil moddalar erigan suyuqlik tomchilari ham tashqi membrana orqali

hujayraga kiradi. Suyuqlikning mayda tomchilari shaklida yutilish holati odamning suv ichishiga o‘xshaydi va shuning uchun pinositoz deb ataladi(grekcha «pino» — ichaman, «sitos» — hujayra). Pinositozning chizmasi

9-rasmda keltirilgan. Chizmadan ko‘rinadiki, hujayraga suyuqlik yutilish holati fagositoz hodisasiga yaqin, ya’ni suyuqlik tomchisi avval hujayraning tashqi membranasiga yaqinlashadi, membrananing shu joyi bir talay mayda burmalar hosil qiladi. So‘ngra membrananing unga suyuqlik tomchisi tushgan joyi ichiga botib kiradi, bu botib kirgan joy sekin-asta chuqurlashadi va nihoyat, suyuqlik tomchisi membrana yuzasidan butunlay ajraladi va suv bilan birga hujayraga tushgan organik moddalar, maxsus orgonoidlar tarkibida bo‘lgan fermentlar ta’sirida hazm bo‘la boshlaydi. Fagositoz yo‘li bilan hujayraga tushgan moddalar bilan ham xuddi shunday hodisa ro‘y beradi.

26

Pinositoz hujayra tashqi membranasining yana bir muhim tarkibi bo‘lib, hamma hayvon va o‘simlik hujayralariga xosdir.

Hujayraning tashqi membranasini orqali ionlar, turli-tuman almashinuv mahsulotlari, shuningdek, hujayrada sintezlangan moddalar chiqarib turadi. Turli bezlar hujayralarida ishlanib chiqadigan sekretlar (ovqat hazm qilish shirasi, so‘lak va boshqalar) shular jumlasiga kiradi va mayda tomchilar holida hujayradan chiqariladi. Hujayra hayot faoliyatidagi boshqa mahsulotlar ham uning tashqi membranasini orqali chiqariladi.

ENDOPLAZMATIK TO‘R

Endoplazmatik to‘r. Endoplazmatik to‘r hamma hayvon va o‘simliklar hamda barcha bir hujayrali organizmlar sitoplazma- sida aniqlangan, ya’ni u har bir hujayraning zaruriy organoididir. Hujayraning bu organidi juda kichik o‘lchamli bo‘lgani uchun endoplazmatik to‘r hujayralarni elektron mikroskopik tekshirila boshlangandan keyin, bundan 50 yilcha oldin kashf etilgan edi.

Tuzilishi. Endoplazmatik to‘r kattaligi 500 A gacha boradigan va undan ham oshadigan kanal va bo‘shliqlardan iborat murakkab tizimga ega. Kanal va bo‘shliqlar bir-biri bilan qo‘shi-lib, tarmoqlanuvchi murakkab to‘r hosil qiladi. Endoplazmatik to‘r kanal va bo‘shliqlari sitoplazmadan membranalar bilan chegaralangan. Membrana qalinligi 75 A ga yaqin.

Endoplazmatik to‘rning ikkita: g‘adir-budur yoki donador hamda silliq to‘ri bo‘ladi. Birinchi xil membranalarda bir talay mayda yumaloq tanachalar-ribosomalar joylashadi. Shuning uchun kanal va bo‘shliqlarning membranalarini g‘adir-budur ko‘rinadi. Endoplazmatik to‘rning ikkinchi xili, ya’ni silliq endoplazmatik to‘r membranalarini yuzasida ribosomalar boimaydi.

Funksiyalari. Endoplazmatik to‘r ko‘pgina turli-tuman funksiyalarni bajaradi. Donador endoplazmatik to‘rning asosiy vazifasi oqsil sintezida qatnashishdir. Shuning uchun u oqsil ko‘p sintezlanadigan hujayralar (turli bez hujayralari)da, ayniqsa, kuchli rivojlangan, kam miqdor oqsil sintezlanadigan

27

hujayralar (limfatik tugunlar, qora jigar va boshqalar hujayralari)da kam rivojlangan.

Silliq endoplazmatik to‘r membranalarida yog‘lar va polisaxaridlar

sintezlanadi. Bu sintez mahsulotlari kanal va bo'shliqlarda yig'iladi, so'ngra hujayraning turli orgonoidlariga yetib boradi va shu yerda iste'mol qilinadi yoki sitoplazmada hujayra kiritmali sifatida to'planadi.


Binobarin, endoplazmatik to'r — hujayra organoidi boiib, u oqsillar, uglevodlar va yogiar sintezida faol ishtirok etadi, shuningdek, bu moddalarni hujayraning turli burchaklariga tashiydi.

Sitoplazmatik to'rning murakkab tuzilishini faqat elektron mikroskopda o'rganish mumkin. Hujayraning fiziologik holatiga bogiiq ravishda sitoplazmatik to'r elementlari to'q va och rangda boiishi mumkin.

Endoplazmatik to'r hujayra organoidi sifatida faqat oqsil, lipid va uglevodlarni sintez qilishda ishtirok etmasdan, balki hujayrada sodir boiadigan harakatlarni ham ta'minlaydi.

O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, sitoplazmatik to'r juda ta'sirchan va o'zgaruvchan organella boiib, har xil ta'sir natijasida vakuolalari shishib, naychalari parchalanib ketishi mumkin. Ularning bunday tuzilmali o'zgarishlari ayrim kasallikkarda aniq-ravshan kuzatiladi va ularga tashxis qo'yishda juda qoi keladi.


10- rasm. Endoplazmatik to'rda oqsil yig'ilishi va transporti



Transport
Kondensatsiya
Konsentratsiya

28

Polisomalarda sintezlangan, membrana bilan bog'langan mahsulotlar to'g'ri endoplazmatik to'r bo'shlig'iga tushadi va shu yerda murakkab bo'lgan oqsillar kompleksini hosil qiladi. Oqsillar fizologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega fermentlar, antitelalar va hk.



11-rasm. Granulyar (donador) endoplazmatik to'r x 82000 Elektron-mikrofotogramma. 1-endoplazmatik to'r kanalchali; 2-ribosomalar

RIBOSOMALAR

Ribosomalar endoplazmatik to'r tarkibiga kiruvchi, shakli yumaloq, diametri 150-350 Aga teng tuzilma bo'lib, ularni faqat elektron mikroskopda ko'rish mumkin. Hujayralarda, odatda ikki xil ribosomalar bo'lib, ularning ko'pchilik qismi donador endoplazmatik to'r membranalarida, ikkinchi qismi erkin holda sitoplazmada yoki mitoxondriy yoxud xloroplast matriksida


29

ham uchraydi. Ayrim vaqtarda ular axboriy RNK bilan birikkan bo'lib, ulargapoliribosomalar deyiladi. Ribosomalarning 40% i RNK dan, 60% i oqsillardan tashkil topgan. Ribosoma ikki subbirlikdan iborat. Unda iRNK yoki mRNA Birikkan joy va polipeptid zanjiri hosil qiluvchi tRNK-si mavjud.

Funksiyalari. Ribosomalar funksiyasi — oqsil sintezidir. Hujayralarda, binobarin, organizm tarkibida bo'lgan hamma oqsillar ribosomalarda sintezlanadi. Ribosomalarda har bir hujayraning sitoplazmasida bo'lgan aminokislotalardan oqsil molekulalari yig'iladi. Oqsillar, asosan, donador endoplazmatik to'rning membranalarida to'plangan ribosomalarda sintezlanadi.

Oqsil sintezi murakkab jarayon bo'lib, bitta ribosoma bilangina emas, balki bir qancha o'nlab ribosomalar to'plami orqali amalga oshiriladi. Ribosomalarning bunday to'plami poliribosoma deb ataladi.


Dastlab sintezlangan oqsillar donador endoplazmatik to'rning kanal va bo'shliqlariga tashiladi, bunda ular iste'- mol etiladi. Endoplazmatik to'r va ribosomalar oqsillar biosintezi va tashuvchisi hisoblangan yagona apparatdir.



12-rasm. Ribosomaning chizmasi 1-kichik subbirlik; 2-mRNK; 3-tRNK; 4-aminokislota; 5-katta subbirlik; 6-endoplazmatik to ‘r membranası; 7-polipeptid zanjiri

sintezlanishi

30




13-rasm. Poliribosomalar hosil bo ‘layotgan jarayon.
Elektron-mikrofotogramma x68000. 1-poliribosomalar zanjiri;
2-mitoxondriya

MITOXONDRIYA


Mitoxondriya hayvonlar va ayrim o’simliklar hujayrasida uchraydigan organella boiib, diametri 0,2-1 mkm ga teng. Shakli har xil: yumaloq, ovalsimon, tayoqchasimon va ipsimon boiadi. Mitoxondriyalarning soni har xil hujayralarda turlicha: 1 donadan 100 ming donagacha boiishi mumkin. Masalan, sutemizuvchilar jigarning bitta hujayrasida 2500 ta mitoxondriya boiadi. Ularning vazifasi o’zgarishi bilan soni ham o’zgaradi, ya’ni hujayraning vazifasi oshganda mitoxondriyalarning soni ham ortadi. Bunda faqat soni o’zgarmay, balki shakli ham o’zgaradi.

Mitoxondriyaning nozik tuzilishini elektron mikroskopda yaxshi ko‘rish mumkin. Obyektiv kattalashtirib ko‘rilganda esa uning devori ikki qavatdan iborat ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Uning tashqi qavati tekis, ichki qavatidan bo‘shliq tomon o’simtalar o’sib chiqqan boiadi. Bu o’simtalarga kriptalar deyiladi. Ularning soni ham har xil boiadi. Bo‘shliq qismida yarim suyuq holdagi modda boiib, unga matriks deyiladi. Matriks takibida DNK, maxsus RNK va ribosomalar boiadi.


Ichki membranasi asosan oqsillardan (70%), fosfolipidlardan (20%) va boshqa moddalardan tashkil topgan. Tashqi membranasi 15% oqsil va 85% fosfolipidlardan iborat. Mitoxondriyalarning asosiy vazifasi energiya hosil qilishdan iborat. Masalan, hujayralardagi energiyaning 95% ini mitoxondriyalar hosil qiladi. Bu ularda uglevodlar, aminokislotalar, yog'larning oksidlanishi hisobiga ro'y beradi. Oksidlanish bilan kechadigan fosforlanish jarayonida makroenergiyaning asosiy manbai - ATP sintezlanadi. ATP sintezi mitoxondriyalarning asosiy vazifasiga kiradi. Mitoxondriyalarda ATPdan tashqari, oqsillar ham sintezlanadi.



14-rasm. Jigar hujayrasida mitoxondriyalar x630. 1-mitoxondriyali jigar hujayrasi; 2-pigment; 3-kapillyar



15-rasnt. Mitoxondriyani elektron-mikroskopda ko'rinishi x85000



16-rasm. Mitoxondriya tuzilishi (sxema). a-uzunasiga kesim; b-mitoxondriyaning ichki tuzilishi; d-mitoxondriya kristlari

Mitoxondriya hujayra nafas olishi kechadigan asosiy tuzilma bolib, oksidlanish-fosforlanish natijasida ATP hosil bo'ladi. Shuning uchun ham mitoxondriya hujayraning energetik markazi deyiladi.

33

PLASTIDALAR

Hamma o'simlik hujayralari sitoplazmasida plastidalar bo'ladi. Bu organoidlar o'simlik hujayralarida mavjud, hayvon hujayralarida uchramaydi. Plastidalarning uchta asosiy turi bor: 1) yashil-xloroplastlar; 2) qizil, zarg'aldoq va sariq-xromoplastlar;

3) rangsiz leykositlar.

Xloroplastlar — bu eng ko'p tarqalgan plastidalar bo'lib, tirik tabiatda ular ayniqsa, muhim o'rinn tutadi. Xloroplastlarga xos yashil rang ularda maxsus yashil pigment — xlorofill borligiga bog'liq. Xloroplastlar barg hujayralarida va o'simlik- ning boshqa yashil organlarida bo'ladi. Yashil o'simliklar xlorofilli bo'lgani uchun Quyoshning yorug'lik energiyasidan foydalana oladi va uning hisobiga anorganik moddalardan organik moddalar sintezlay oladi. Anorganik moddalardan organik moddalar, ya'ni uglevodlar hosil bo'lish jarayoni foto-sintez deb ataladi.

Xloroplastlar ko'pincha oval shaklli 4-6mkm o'lchamli bo'ladi. Yuksak o'simliklarning bitta hujayrasida odatda 40- 60 xloroplast uchraydi.

Xloroplastlarning yupqa tuzilganligi elektron mikroskop yordamida aniqlangan edi. Taxminan 40000 marta kattalashtiril-ganda xloroplast sitoplazmadan ikkita — tashqi va ichki membrana bilan chegaralangani yaxshi ko'rindi.

Mitoxondriyaning tashqi va ichki membranalari ham hujayraning tashqi membranasi kabi uch qavatdan tuzilgan. Xloroplast ichini yarim suyuq modda toidirib turadi, unda faqat xloroplastlarga xos alohida tuzilmalar — qirralar joylashadi.

Qirralar silindrsimon shaklda bo'lib membranalardan tuzilgan, bir-birining ustiga joylashgan yassi xaltachalardan iborat. Bu yassi xaltachalar ustma-ust taxlangan tangalar ustuniga o'xshab ketadi; bitta qirra tarkibida 50 tagacha bunday xaltachalar bo'lishi mumkin. Qirralarning ko'ndalangiga qirqimi yumaloq ko'rindi. Bitta xloroplastda bir necha o'n qirra bo'ladi. Xloroplastlarning hamma qirralari membranalar bilan o'zaro birlashgan.


34

Xloroplastlar o'simlik turli-tuman qismlari hujayrasining sitoplazmasida:


gullarda, mevalarda, poyalarda, barglarda bo‘ladi. Xloroplastlarning shakli har xil va ko‘pincha ular ko‘p qirrali kristallar yoki uzunligi 5-6 mkm keladigan ingichka ignalar ko‘rinishiga ega.

Gultojibarglar turli-tuman va mevalar kuzgi barglarning har xil sariq, zarg‘aldoq va qizil rangda bo‘lishi xloroplastlarga bog‘liq.

Leykoplastlar rangsizdir. Ular o‘simgliklarning rangsiz qismlari sitoplazmasida, masalan, poyalarda, ildiz va tugunaklarda ko‘zga tashlanadi. Leykoplastlarning shakli har xil. Ko‘pincha bular yumaloq yoki 5-6 mkm uzunlikdagi tayoqcha shakliga ega. Keng tarqalgan leykoplastlarga kraxmal donalari to‘planadigan kartoshka tugunagi misol bo‘la oladi. Xloroplastlar, xromoplastlar va leykositlar o‘zaro bir-biriga aylanishi mumkin.



17-rasm. Leykoplast. 1-kraxmal donachalari



17a-rasm. Xloroplastning tuzilishi. a-kesmasi; b-tuzilish chizmasi; d-tilakoid membranasi tuzilishi

35

Fotosintez anorganik moddalar quyosh energiyasidan foydalanadigan organik moddalar sintezi bo‘lib, bu jarayon plastidalarda kechadi.

Yorug‘lik fazasi. Buning natijasida yorug‘lik energiyasini suv fotolizi ximik energiyasiga aylantiradi. Buning natijasida ATP va NADF.N hosil boidi. Bu jarayon tilakoidlarda kechadi.

Qorong‘ulik fazasi: bu jarayon stromalarda kechadi. Qator reaksiyalar natijasida organik moddalar sintezlanadi va bu jarayon ATF va NADF.N borligi uchun yuzaga keladi. Hosil boigan glyukoza sitoplazmaga tushadi yoki polimer holatda saqlanadi.

GOLJIAPPARATI

Golji apparati. Golji apparati — hujayra orgonoidi, italyan olimi K.Golji nomi bilan atalgan, uni nerv hujayralarining sitoplazmasida birinchi marta K. Golji ko‘rgan (1898) va to‘r apparat deb atagan. Hozirgi vaqtida bu orgonoid barcha o‘simglik va hayvon organizmlarining hujayralarida topilgan. Golji apparatining shakli va kattaligi turli-tuman.

Tuzilishi. Aksari hujayralarda, masalan, nerv hujayralarida bu orgonoid


yadro atrofidagi murakkab to‘r shaklida bo‘ladi. O‘simliklarning va eng sodda organizmlarning hujayralaridagi Golji apparati o‘roq yoki tayoqcha shaklidagi ayrim tanachalardan iborat. O‘simlik va hayvon organizmlarining hujayralaridagi Golji apparatining shakli har xil bois ham elektron mikroskopik tuzilishi bir xil. Golji apparatiga uchta asosiy tuzilma komponenti: 1) guruh-guruh boiib (5-8 tadan) joylashgan yirik bo‘shliqlar; 2) bo‘shliqlardan boshlangan naychalarining murakkab tizimi; 3) naychalar uchlarida joylashgan yirik va mayda pufakchalar kiradi.

Bu elementlarnig hammasi yagona to‘plamani tashkil etadi va hujayraning tashqi membranalari bilan chegaralangan boiadi.

Funksiyalari. Golji apparati bir talay muhim biologik funksiyalami bajaradi. Hujayrada sintezlanadigan mahsulotlar- oqsillar, uglevodlar va yogiar, endoplazmatik to‘r kanallari orqali Golji apparatiga tashib beriladi.


36

Ana shu hamma moddalar dastlab Golji apparati elementlarida to‘planadi, so‘ngra naychalar uchida joylashgan yirik va mayda pufakchalarga aylanadi. Pufakchalar naychaldan ajralib, tarkibidagi moddalar hujayra hayot faoliyati jarayonida foydalaniladi yoki tashqariga chiqariladi.




18-rasm. Golji apparati x 600.

1-hujayra yadrosi; 2-hujayraning apikal qismi; 3-hazal qismi; 4-sekretor donachalar; 5-Golji apparati



19-rasm. Golji apparatining elektron mikroskopda ko‘rinishi asosida tuzilgan chizmasi: 1-bo‘shliqlar; 2-pufakcha

37



20-rasm. Golji apparatini elektron mikrofotogrammasi. 1-katta vakuolalar; 2-ikki qatlamlı sitomembranalar


Golji apparati funksiyasi


Golji apparati, sekretor jarayonlarda ishtirok etadi. Polisaxaridlar polimerizatsiyasi va ularni oqsilli to‘plami Golji apparatida sodir bo‘ladi. Bulardan tashqari biologik faol moddalar ham shu apparatda yig‘iladi. (Lipopratsidlar, fermentlar, gormonlar).

LIZOSOMALAR

Lizosomalar organellalar qatoriga kiradi. Ularning vazifasi hujayralarda ovqat hazm qilish hamda fagositoz jarayonlarida ishtirok etishdan iborat. Sitoplazmadagi lizosomalarning atrofl bir konturli membrana bilan o‘ralgan, diametri 0,2 - 0,8 mkm keladigan yumaloq shaklga ega. Matriks bilan membrana tarkibida 20 dan ortiq gidrolitik fermentlar (kislotali fosfataza, nukleazalar, katepsin, kollogenez, glyukozidaza va boshqalar)

38





Zahira

donalar

Autofag

vakuola

Lizosoma

Qoldiq

Hazm

vakuolasi

Endotsitoz Fagosoms;

- Fagosoma


borligi aniqlangan. Ularning qobig‘i buzilganda fermentlari sitoplazmaga chiqib ketadi. Lizosomalar amfibiyalar, qushlar, sutemizuvchilar va boshqa hayvonlar hamda odamda topilgan. Ayniqsa, ular fagositoz qilish xususiyatiga ega bo‘lgani hujayralarda yaxshi ko‘rinadi. Hujayralardagi ikki xil - birlamchi va ikkilamchi lizosomalar Golji apparati atrofida joylashgan bo‘lib, ular tarkibidagi fermentlar sust faoliyat kechiradi. Plazmatik membranadan hosil bo‘lgan endositoz pufakchalar (fagosomalar)ning birlamchi lizosomalar bilan birikishi natijasida ularning fermentlik faoliyati kuchayadi va ikkilamchi lizosomalar, ya’ni hazm vakuolalari hosil bo‘ladi. Oziqa moddalarini hazm bo‘lishi jadallashadi.

21-rasm. Limfatik tugun elektron mikrofotogrammasi. X20000. 1-mikrovorsinkalar; 2-lizosomalar; 3-hazm qiluvchi vakuola; 4-mitoxondriya; 5-endoplazmatik to‘r; 6-Golji apparati

Endoplazmatik tur

tanacha

22-rasm. Lizosoma. Hujayra ichining hajmini elektron mikroskopik chizmasi



23-rasm. Fagositoz qilayotgan hujayra x7000

Lizosomalar litik funksiya bajaruvchi, ichki membranalardan tuzilgan organoidlar. Ekzogen moddalarni hazm qilishda - avtofagiyada ishtirok etadi.

Lizosomalarda gidrolaza miqdori juda ko‘p bo‘lib, ular er- kin holga o‘tsa butun hujayrani buzadi va shuning uchun «o‘z- o‘zini o‘ldiruvchi» organoidlar deyiladi.

HUJAYRA MARKAZI


Hujayra markazi, ya’ni sentrosoma. Sentriol hamma hayvon va tuban o‘simliklар hujayrasida topilgan organelladir. Birin- chi marta F. Flemming (1875) tomonidan aniqlangan. U vaqtida sentrosoma birinchi marta boiinayotgan hujayralarda topilgan. Keyinchalik tekshirishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, sentrosoma boshqa hujayralarga nisbatan bo‘linayotgan hujayralarda yaxshi ko‘rinar ekan. Bu organella oddiy yorug‘lik mikroskopida ikkita sentriola shaklida ko‘zga tashlanadi. Elektron mikroskopda bunday emas, ya’ni sentriola silindrsimon tanacha bo‘lib, uzunligi 0,3- 0,5 mkm, diametri 0,1-0,15 mkm. Uning devorlari

40

nozik 9 juft naysimon to‘plamdan iborat. Har bir to‘plamda 3 tadan naycha joylashgan bo‘lib, ularga triplet deyiladi. Har bir tripletning uzunligi sentriolaning uzunligiga teng.

Sentriolalar juft-juft bo‘lib bir-biriga perpendikulyar joylashadi. Sentriola o‘qi bo‘linish o‘qini belgilaydi. Sentriolalar sferik massa markazida joylashib, bu massa sentroplazma yoki sentrofera deyiladi. Sentoferada membrana bo‘lmay, zichligiga ko‘ra, proteinlarga boy va sitoplazmadan ancha farq qiladi. Ayrim manbalarda sentriolaning tuzilishi kiprikchalar yoki xivchinlarning ichki tuzilishiga o‘xshatiladi. Haqiqatan ham elektron mikroskopda olib borilgan tekshirishlarda ular o‘rtasida o‘xshashlik borligi tasdiqlandi.



Bazal tanachalar silindrsimon shaklda bo‘lib, sentriola singari 9 juft mikronaychalardan tashkil topgan. Shu vaqtgacha hujayraning bo‘linishi sentriolaning vazifasiga bog‘lab kelingan. Hozirgi ma’lumotlar bo‘yicha sentriolalar kipriklar va xivchinlar hosil boiishida ishtirok etadi, deb topilmoqda.



24- rasm. Bo‘linayotgan tuxum hujayrasida sentrosoma x900. 1-tuxum po

‘stlog 4; 2-sentriolalar; 3-sentrosfera; 4-astrofesra; 5-ekvatorda joylashgan xromosoma

41



25-rasm. Hujayra markazining elektron mikrofotogrammasi. x87000. 1-sitoplazma; 2-sentriola; 3-silindr devorini tashkil etuvchi naychalar; 4-yadro

26-rasm. Mikronaychalaryning tuzilishi. 1-mikronaychalar; 2-yumaloq donalar (mikronaychalarga hirikish)

MIK RON І YCHA LAR

Mikronaychalar uzunligi 2,5 mkm, diametri 20-30 nm ga teng shoxlanmagan ichi bo‘sh naychalar bo‘lib, asosan, oqsillardan tarkib topgan xivchinlar hamda kiprikchalardan iborat. Sitoplazmada joylashgan sentriola hamda bazal tanachalar ham shu mikronaychalardan tashkil topgan. Ular, odatda, tayanch hamda shaklni belgilash vazifasini bajaradi. Aksariyat hayvonlar hujayrasidan olingan mikronaychalaryning kimyoviy tuzilishi deyarli bir xil boiib, asosan, o‘ziga xos tubulin oqsildan tarkib topgan.

HUJAYRALARNING HARAKAT ORGANOIDLARI

Kiprikchalar hujayra sitoplazmasining ingichka silindrsimon o‘sig‘i bo‘lib, diametri 200 nm ga teng. Bu o‘siq asosidan ustki qismigacha plazmatik membrana bilan qoplagan bo‘lib, kiprikcha markazida mikronaychalar tizimi joylashadi. Kiprikchadagi mikronaychalar tizimini aksonema deyiladi.

Kiprikchalar aksонемаси базал танача ва сентриола микронаячалар тизимичланар фарqli ravishda 9 tripletdan iborat bo‘lmay, balki aksонема devorini hosil qiluvchi 9 juft perife-rik va 1 juft markaziy mikronаячадан iborat. Umuman kiprikchalar mikronаячалар тизимини $(9 \times 2) + 2$ deb yozish mumkin. Сентриолада esa bu тизим $(9 \times 3) + 0$ ga teng. Базал танача ва kiprikchalar aksонемаси узви bog‘liq bo‘lib, ular bir-biriga davom etuvchi tuzilmani hosil qiladi. Базал таначанинг A va V mikronаячалари aksонеманинг A va V mikronаячаларидир.


Hujayra markazi mitotik apparatni, shu jumladan, dukchani va yulduzchani hosil qilishda rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtida shu- nisi aniqki, mitozda qutblanish hujayra markazi tomonidan bajariladi. Qutblar hujayra markazlarining bir-biridan qochish natijasida hosil bo‘lib, dukning va xromosomalarning joylashishini belgilaydi.

Sitoplazmaning fibrillyar tuzilmalari. Sitoplazmaning fibrillyar tuzilmalariga yo‘g‘onligi 10 nm keladigan mikrofibrilllar va yo‘g‘onligi 5-6 nm bo‘lgan mikrofilamentlar kiradi.

43

Mikrofibrillalar yoki tayanch fibrillalar hayvon hujayrasi uchun xos bo‘lib, u asosan epiteliy hujayralarida va ba’zan glial hujayralarda uchraydi. Mikrofibrillalar oqsil tabiatli bo‘lsa kerak. Улар bir necha yuz fibrillalardan tashkil topgan tutamlar hosil qilishi mumkin, mikronаячалар singari tayanch funksiyasini o‘taydi.

Mikrofilametlar sitoplazmaning chetki yuzlarida tutamlar hosil qilgan holda joylashadi. Ularni ambalar psedopodiyalarida yoki harakatdagi fibroblastlarning o‘silalarida ko‘rish mumkin. Oxirgi vaqtarda mikrofilament tutamlarida mushak to‘qimasi- ning qisqaruvchi elementlaridagi singari aktin, miozin, tropomiozin, aktinin topilgan. Mikrofilamentlar qisqarish vazifasini bajaradi.



27-rasm. 1-bakterialar; 2-epiteliy hujayrasi; 3-psevdopodiyalar; 4-xivchinli yevglina; 5-infuzoriya-tufelka kiprikchalari

Sodda hayvonlar ichida ko‘p sonli xivchinlilar (evglena) xivchinlari yordamida, ko‘p hujayrali hayvonlarning spermatozoidlari ham xuddi shu holatda harakatlanadi.

Bitta hujayrada xivchinlar soni odatda ko‘p emas, bittadan bir necha o‘ntagacha bo‘lishi mumkin.


Infuzoriya-tufelka yuzasida yuzlab, minglab kiprikchalar bo‘lib, shu kiprikchalar yordamida u suvda harakatlanadi. Umurtqali hayvonlar va odamning nafas olish tanasidagi havo o‘tkazuvchi yo‘llar hujayrasini minglab kiprikchalar qoplab

turadi. Bu kiprikchalar bitta yo‘nalishda harakatlanib suyuq- lik oqimini hosil qiladi va u bilan organizmdan qattiq zarrachalar, masalan, changlar chiqarib turiladi. Kiprikcha va xivchinlar o‘zlarining nozik tuzilishiga ko‘ra, bir xil ekanligi elektron mikroskop yordamida aniqlanadi. Ular devorning bu- tun uzunligi bo‘ylab, guruh holda joylashgan juda mayda naychalardan o‘tadi.

Barcha hayvon va o‘simlik organizmlar kiprikcha va xivchinlarning tuzilishi bir xil bo‘lib, u organik olam kelib chiqishi birligini isbotlovchi vositadir.

Odam ham, ko‘p sonli hayvonlar ham bir xilda, ya’ni muskul qisqarishlari yordamida harakatlanadi. Miofibrillalar, ya’ni diametri taxminan 1 mkm, uzunligi 1 sm gacha va undan ortiq bo‘lgan ingichka iplar muskul tolalarining asosiy qisqaruvchi organoidlaridir. Mikrofibrillalar muskul tolasi uzunligi bo‘ylab joylashadi.

Maxsus harakatlanish organoidlari bo‘lmagan va psevdo- podiy yordamida harakatlanadigan bir qancha hayvon hujayralari ham mavjud. Ularga sodda hayvonlardan amyobalar, umurtqali hayvonlarning leykositlari va ichki organlardagi yirik hujayralar kiradi.





28-rasm. Kiprikchalarni tuzilishi va elektron mikrofotogrammasi x 50000. 1-plazmatik membrana; 2-markaziy naychalar; 3-dupletlar;

4-tripletlar

MAXSUS ORGANOIDLAR

Bu organoidlarga, asosan miofibrillar, neyrofibrillar, tonofibrillar, xivchinlar, kiprikchalar, mikrovorsinkalar kiradi.

Ipsimon oqsil tabiatli tonofibrillar asosan epiteley hujayra- larida uchraydi. Diametri 6 mm keladigan nozik tonofilament- lardan iborat tonofibrillar epiteley hujayrasining mustahkam- ligini belgilaydi.



29-rasm. Teri epiteleysi tonofibrillasi. 1-hujayra yadrosi; 2-yadrocha; 3-tonofibrilllar

30-rasm. Muskul hujayrasi maxsus organoidi miofibrillalar. Odam va hayvon organizmini harakatga keltiruvchi vosita muskul to ‘qima bo ‘lib, faqat unga xos bo ‘Igan maxsus organoid miofibrillalar dir

46



31 -yasm. Nerv hujayrasi maxsus organoidi neyr o fibrillar. 1-hujayra tanasi; a-neyroplazma; b-neyrofibril; 2-yadro; 3-hujayra

o ‘simtalari

Nerv hujayrasi sitoplazmasida nozik iplar boiib, ular tashqi muhit ta’siridan ta’sirlanib, impulslarni markazga va javobni efferent organlarga olib keluvchi neyrofibrillalar hisoblanadi.

HUJAYRA KIRITMALARI

Kiritmalar sitoplazmaning doimiy bo‘lmagan qismidir. Bu mahsulotlar modda almashinuvi, sekretsiya va pigment hosil qilish jarayonlari davomida hamda fagositoz natijasida hujayraga moddalar kirishidan tarkib topadi. Kiritmalar

mikroskopda har xil zichlikdagi - granulalar yoki suyuq vakuolalar holida ko‘rinadi. Kiritmalarning kimyoviy tarkibi turlicha. Bir necha guruhli kiritmalar farqlanadi.


1. Trofik kiritmalar (yog‘ tomchilari, oqsil granulalari, glikogen to‘plamlari, vitaminlar va boshqalar).

2. Sekretor kiritmalar (zimogon granulalar va boshqalar)

3. Ekskretor kiritmalar (o‘t kislotasi, siydik va boshqalar)


4. Pigment kiritmalar (gemoglobin, melanin, lipofussin va boshqalar).

47



32-rasm. Jigar hujayrasida yog‘ tomchilari. 1-jigar hujayrasi; a-yog‘ tomchisi; b-yadro; 2-eritrotsitli kapillyar

21



33-rasm. Pigment kiritmasi. 1-pigmentli hujayra yadrosi; 2-pigment donachalari

48

YADRO

Yadro hamma tirik o‘simlik va hayvonlar hujayrasida bo‘lib, uning hayot faoliyatida ishtirok etadigan doimiy tuzilmadir. Yadroning faoliyati sitoplazma va uning tarkibidagi organellalar bilan uzlusiz bog‘liq bo‘lib, yadro butunligining buzilishi, ularning o‘zaro faoliyatining buzilishiga va hujayraning nobud bo‘lishiga


olib keladi. Masalan, yadroning qobig‘i mikromani-pulyator yordamida buzilsa, yadro moddalari sitoplazmaga qo‘shilib ketib, hujayra nobud bo‘ladi. Yadro aksariyat hujayralarda bitta, ayrim hujayralarda — ostioklast, ko‘ndalang yo‘lli muskullar hujayralarida ko‘proq uchraydi. Ularning shakli, yirik-maydaligi hujayralarning shakli va yirik-maydaligiga bog‘liq. Ammo ko‘pchilik hujayralarda ular yumaloq yoki ovalsimon bo‘ladi. Leykositlarda tayoqchasimon, loviyasimon, mezoteliyda yassi bo‘ladi. Yadro qobig‘ining ikki qavatdan iborat boiishi, har birining qalinligi 10 nm ga tengligi elektron mikroskopda aniqlangan. Yadroning ichki va tashqi qobig‘i oralig‘ida 10-30, ba’zan 100 nm ga teng perinuklear bo‘shliq mavjud. Devorida diametri 80-90 nm ga teng ko‘plab teshikchalar bor. Shu teshikchalar orqali sitoplazma bilan bog‘lanadi. Yadro tarkibida murakkab oqsillar, lipoidlar, fermentlar bo‘ladi. Nuklein kislotalar orasida DNK va RNK muhim vazifa bajaradi. RNK oqsilning murakkab sintezida ishtirok etadi.

Yadrochalar deyarli hamma o‘simlik va hayvon hujayralarida topilgan. Odatda, ular hujayralarda bitta yoki ikkita bo‘lishi mumkin. Yadrocha karioplaszmaning eng zichlashgan qismi bo‘lib ajralib turadi. Tarkibi ipsimon ko‘rinishdagi gomogen tuzilmalaridan tashkil topgan. Yadrocha ribosoma RNK sintezida ishtirok etadi.

Yadrochalar faqat bo‘linmaydigan hujayralarda shakllanadi va ko‘rinadi, ular bo‘linayotgan vaqtida esa yo‘qolib ketadi.


Xromatin bo‘linmayotgan yadrolarda mayda, donador tu- zilmali bir xil modda shaklida yoki ancha yirik bo‘lakcha shaklida ko‘rinadi. Xromatin kimyoviy tarkibiga ko‘ra, DNK bilan oqsilning murakkab birikmasidan iborat.

49



Xromatin shunday materialki, undan yadrolar bo‘linay- otganda xromosomalar shakllanadi.

34-rasm. Yadro elektron mikrofotogrammasi x16000. 1-yadro va kariolemma; 2-kariolemma teshikchalari; 3-xromatin; 4-yadrocha ; 5-endoplazmatik to ‘r



35- rasm. Hujayra yadrosoi ko'ndalang kesimining ifodasi. 1-yadro teshigi; 2-yadroning tashqi membranasi; 3-yadroning ichki membranasi; 4-membranalararo bo'shlig'i; 5-yadrocha;

6-ribosomalar; 7-donador endoplazmatik to 'r; 8-xromatin

50

Ribosoma Halqa

A

Perinuklear — g

Bo'shliq J

W


Tashqi

ichki

©

700 A

Membrana




Markaziy

granula

36-rasm. Yadro membranasi poralari (teshikchalari) chizmasi. a-halqali zich moddali ochiq pora; b-diafragmali pora

Transkripsiya va translyasiya yadroning asosiy funksiyalari- dan biridir.



37-rasm. Transkripsiya va translyasiyaning umumiy chizmasi


51

XROMOSOMA

Xromosoma: xroma-bo'yoq, soma-tanacha degan ma'noni bildiradi. Xromosomalar asosan bo'linayotgan hujayraning metofaz-asida ko'rinadi. Bu xromosomalar ikkita yelkadan iborat bo'lib, ularning o'rtasida birlamchi belbog' joylashgan. Ular uch xil ko'rinishga ega: 1-teng yelkali, 2- bir tomon yelkasi ikkinchisidan uzun, 3-tayoqchasimon (bir yelkasi juda kichik, ikkinchisi esa juda uzun).


Har bir o'simlik yoki hayvon turining hujayrasida xromosomalar soni o'zgarmas, ya'ni bir xildir. Masalan, askarida hujayralarida 2 ta, drozifila pashsha hujayralarida 8 ta, odam hujayrasida 46 ta xromosoma bor. Bu holat xromosomalar sonining doimiylik qoidasi deyiladi. Jinsiy hujayralarda esa kam. Ularda xromosomalar gaploid (toq) to'plamda, somatik hujayralarda esa xromosomalar diploid to'plamda bo'ladi. Bu xususiyat xromosomalar juftlik qoidasi deyiladi. Har bir juftga kiruvchi xromosomalar o'z o'lchami, shakli bilan bir-biriga o'xshaydi. Bunday xromosomalar gomolog xromosomalar deyiladi.

Birinchi juft xromosomalari esa ikkinchi juftga kiruvchi xromosomalardan farq qiladi, ular nogomologik xromosomalar deyiladi. Bu xususiyat xromosomalarning individualligi qoidasi deyiladi.



38-rasm. Xromosomaning tuzilishi va tiplari. A-tashqi ko'rinishi, 1-sentromera(birlamchi belbog'); 2-kichik yelka; 3-katta yelka; 4-ikkilamchi belbog'; 5-yo'ldosh; B-ichki tuzilishi. 1-iyentromera; 2-xromonemalar D-xromosoma tiplari: 1-akrosentrik; 2-submetatsentrik; 3-metatsentrik

52



39-rasm. Xromosoma xromonemasining ketma-ketlik tuzilishi.

1-euxromatin; 2-geteroxromatin; 3-birlamchi belbog';

4-sentrosoma; 5-xromotid; 6-xromonema; 7-ikkilamchi belbog
8-yadrocha

HUJAYRA BO LINISHI

Hujayra bo'linishi o'simlik va hayvonlar hujayrasiga xos xususiyatdir. Boshqacha aytganda, hujayralarning bo'linishi tirik organizmlarning tobora rivojlanishini, uzoq muddat yashashini ta'minlaydi. Hujayralarning bo'linish jarayoni, odatda, organizmning embrionlik davridan boshlanib, to umrining oxirigacha davom etadi. Embrional davrda hujayralarning bo'linishidan yangi muayyan hujayralar hosil bo'ladi, ayrim hujayralarning ko'payishi natijasida turli to'qimalar tiklanadi.

Ma'lumki, hujayralarning o'ziga xos yashash muddati bor. Ontogenet davrida hujayralar nobud bo'lib, ularning o'rnini yangi - ko'payish jarayonida hosil bo'lgan yosh hujayralar egallaydi. Hozirgi vaqtida hujayralar ko'payishining uch xili aniqlangan: 1) mitoz (mitos-ip) yoki noto'g'ri bo'linish yoxud kariokinez; 2) amitoz (a-inkor etish, mitos- ip yoki to'g'ri bo'li- nish) va 3) meyoz (meiosis - kamayish).

53

Mitoz yoki vositali bo'linishda hujayrada xromosoma ipchalari paydo bo'la boshlaydi. Bunday usulda bo'linish organizmda ko'pchilik hujayralarga xos bo'lib, bunda hujayra ikkiga bo'linib, irsiy axborotni belgilovchi tuzilmalar hamda boshqalari ham qiz hujayralar orasida ikkiga bo'linadi. Hujayralarning bo'linishi jarayonida sitoplazma va yadro tarkibida murakkab o'zgarishlarni kuzatamiz. Bu jarayon to'rt bosqichga (fazaga) bo'linadi: profaza, metafaza, anafaza, telofaza. Ikkita faza o'rtasidagi davrga intermitoz faza yoki interfaza deyiladi.

Profaza hujayralardagi yadro mahsulotlarining o'zgarishidan boshlanadi: tayoqchasimon yoki yumaloq shakldagi xromo- somalar paydo bo'lib, hujayrada qutblinish jarayoni boshlanadi. Xromosoma tarkibida bo'lgan xromatindagi DNK yaxshi ko'rinish turadi. Shunga o'xshash jarayon hujayra markazida ham sodir bo'lib, ulardagi sentriolalar bir- biridan uzoqlashadi va qarama- qarshi tomonga o'tadi va duk ipchalari yordamida birikib turadi. Profazaning oxiri xromosomalarning tiklanishi, yadro qobig'i va yadrochaning yo'qolishi bilan yakunlanadi.

Metafaza yoki ona yulduz bosqichida xromosomalar hujayra markaziga siljib, duk o'rtasida metafazali yoki ekvatoriyalı bir tekis plastinka hosil qiladi. Metafaza oxirida har bir xromosoma ikkita xromatidga, ya'ni qiz xromosomalarga bo'linadi.



Anafaza. Bu davrda gomologik xromatidlar qarama- qarshi qutblarga ajraladi. Ona hujayrada nechta xromosoma bo'lsa, har bir qutbda shuncha xromosoma jonlanadi. Hujayra tanasida belbog' hosil bo'lib, hujayrani asta-sekin ikkiga boiadı.

Telofaza. Bunda yangi hosil bo'lgan hujayrada bir butun hujayra shakllana boshlaydi. Axromatin duk yo'qolib, sentrioladan hujayralar markazi hosil bo'ladi. Xromosomalarda yig'ilgan yadro moddasi bir tekis ko'rinishni egallaydi, yadrocha bilan yadro qobig'i yuzaga keladi. Sitoplazmada ikkiga ajralib, ikkita yosh mustaqil hujayra hisoblanadi.


Eukariot hujayralar vositali yo‘l bilan bo‘linadi. Hosil bo‘lgan har bir qiz hujayra xromosomalar bilan birga teng miqdorda genetik material oladi. Shu materiallarning ikki hissa

54

ortishi hujayra siklining ma’lum bir davrida yana interfaza bo‘lib o‘tadi.





40-rasm Hujayra sikli. 1-interfaza va mitoz: sintezga tayyorgarlik davri; DNA sintezi davri; 1-sintezdan keyingi davr. 2-hujayra siklining turli bosqichlarida yadroda DNA miqdorining o‘zgarishi




41-rasm. Elektron mikroskopda xromosomalar ko'rinishi. x 14000 1-xromosoma; 2-sentromera; 3-mikronaychalar

55




42-rasm. Odam xromosomasi kariotipi x800

43-rasm. O damning jinsiy xromosomasi x2500 J-ayollarning ikki o 'xshash xromosomasi; 2-erkaklarning turli xromosomalari




44-rasm. Piyoz po 'stlog 'ida mitoz x400 1-interkinez; 2,3-profaza; 4-metafaza; 5-axromatin ip; 6-anafaza; 7-telofaza




45-rasm. Hayvon jigari hujayrasida mitoz.

1-bo 'linmayotgan hujayra; 2-3-zich va yumshoq tupcha profaza bosqichi; 4-metafaza; 5-anafaza



46-rasm. Elektron mikroskopda mitoz fazalari ko‘rinishi
59



47-rasm. Metafaza bosqichidagi mitoz x 18000
1 -xromosomalarni qutbli joylashishi; 2-mitoxondriya;
3-plazmolemma




48-rasm. Anafaza bosqichidagi mitoz x22000.
1-xromosoma; 2-veretena iplari; 3-ikki sentriolaning uzun o'qi
60



49-rasm. Maymun yuragi hujayrasida ko'p qutbli mitoz x!350
AM1TOZ

Jigar hujayralarining kichik obyektivi pushti rangli sitoplazmaga ega bo'lib, ko'p qirrali noto'g'ri shaklda ko'rindi. Yadrosi yumaloq och binafsha rangga, yadrochasi esa to'q bo'yaladi. Amitoz jarayonini kuzatish uchun preparatda jigarning cho'ziq yadroli hujayralari joylashgan yerni topish lozim.



Preparat katta obyektiv ostiga olinganda yadro cho'ziq bo'libgina qolmay, balki o'rtasining torayganligi ko'zga tashlanadi. Bu amitozning boshlang'ich bosqichidir. Keyinchalik yadroning o'rta qismi yanada ingichkalashib, nihoyat uziladi va yangi ikkita yadro hosil bo'ladi.

Hujayra sitoplazmasi ham o'rta qismidan ingichkalasha bo-rib, oxiri bo'linadi va ikkita qiz hujayra yuzaga keladi. Ba'zan faqat yadro ikkiga bo'linadi, ammo hujayra sitoplazmasi butun qoladi, natijada ikki yadroli va ko'p yadroli hujayralar hosil bo'ladi. Tabiiyki, preparatda bo'linish bosqichlarini bayon etilgan tarzda kuzatib boimaydi.

50-rasm. A-Ko'p yadroli jigar hujayrasi B-Ko 'z pardasi hujayrasida amitoz MEYOZ

Meyoz hujayralar bo'linishining muayyan usuli bo'lib, jin-siy hujayralarga xosdir. Ma'lumki, hayvon va o'simliklar har bir turining hujayra yadrolarida o'zgarmas ma'lum sonli xromosomalari mayjud. Odam hujayralarida bu son 46 ga teng. Jinsiy ko'payishda tuxum va urug' hujayralarining qo'shilishi


62

yuz beradi. Bunday rivojlanadigan pushtda shu tur uchun xos bo'lgan xromosomalar soni saqlanib qolishi uchun yetilgan jin-siy hujayralarda xromosomalarning soni ikki baravar kam bo'lishi lozim. Jinsiy hujayralarda xromosomalar sonining ikki baravar kamayishi (reduksiyasi) jinsiy hujayralar rivojlanishining yetilish fazasida yuz beradi. Reduksion bo'linishga tayyorgarlik jinsiy hujayralar rivojlanishining o'sish fazasidayoq boshlanadi. Bu fazada gomologik xromosomalarning juftlashuvi (kon'yu-gatsiyasi) yuz berib, ular bir-biriga zinch tutashib yotadi. So'ngra kon'yugatsiyalangan har bir xromosomada uzunasiga yo'nalgan yoriq paydo bo'ladi. Natijada xromosoma juftlari to'rtta tanachadan iborat bo'lib qoladi. Bu tetrada (tetra- to'rt demakdir) deb ataladi. Har bir tetrada ikkita juftlashgan xromosomalardan iborat bo'lgani sababli ularning miqdori dastlabki xromosomalar sonidan ikki baravar kamdir. Chunonchi, odamda ularning soni 23 taga yetadi. Tetradalar hosil bo'lishi bilan spermatositlarning o'sish davri tugaydi va ular yetilish fazasiga o'tadi. Bunda spermatositlar ketma-ket ikki marta bo'linadi. Birinchi bo'linishda II tartibdagi spermatositlar hosil bo'lib, har bir tetrada ikkita diadaga bo'linadi va yangi hosil bo'lgan II tartibdagi spermatositlar diadalarga ega bo'ladi. Natijada II tartibdagi spermatositlarda 23 tadan diada tashkil topadi. II tartibdagi spermatositlar darhol yana bo'linadi va

hosil bo'lgan spermatidlar diadalarining bo'linishi natijasida vujudga kelgan monadalarga (yakka-yakka xromosomalarga) ega bo'ladi. Demak, kelgusida shakllanib, spermatozoidlarga aylanuvchi ushbu spermatida- larda 23 tadan xromosoma bo'lishi mumkin.

Meyoz jarayonida ikki marta mitoz ketma- ket yuzaga keli- shi munosabati bilan mitoz-I va Meyoz II- tarkib topadi va har ikkalasida mitoz bosqichlari kuzatiladi. Yani profaza- I metafazal, anafaza-1, telofaza-1 va profaza- II, metafaza-II, Telofaza-II. Profaza-1 da genetik materiallardan rekombinatsiya jarayonlari, ya'ni gomologik uchastkalar o'rinni almashuvi, ribosoma va informatsion RNK sintezi, yadrocha faollashuvi ko'rindi. Bu faza leptonemma, zigonemma, pixinemma, diplonema dikinez kabi besh bosqichdan iborat.

63



51-rasm. Meyoz-chizmasi. 1-profaza-I; a-leptonemma, b-zigonemma, d-pixinemma, e-diplonemma, f-diakinez; 2-metafaza-I; 3-anafaza-I; 4-telofaza-I; 5-profaza-II; 6-metafaza-II; 7-anafaza-II; 8-telofaza-II

64

HUJAYRANING KIMYOVIY TARKIBI

Barcha jonli organizmlarning hujayralari bir tipdagi molekulalardan

tuzilgan. Ularning nisbiy miqdori ham deyarli bir xil. Hujayralarda kimyoviy elementlarning D.I.Meendeleev davriy jadvalidagi 109 ta tabiiy elementlarning 97 tasidan 27 tasi topilgan. Kimyoviy elementlardan 16 tasi hujayra tarkibida doimo, ba’zilari esa juda kam miqdorda uchraydi, lekin hujayra tarkibida to‘rt element: kislorod, uglerod, azot va vodorod, ayniqsa ko‘p. Bu to‘rt element tirik organizmlar massasining deyarli 98 foizini tashkil etadi. Quyidagi jadvalda jonli organizmlar tarkibida kimyoviy elementlar miqdori keltirilgan.

Jonli organizmlarning taxminiy kimyoviy tarkibi.

(Atomlarning umumiy soni foizlarda)

Simvoli	Nomil	Miqdori
N	Vodorod	60.3
O	Kislorod	25.5
S	Uglerod	10.5
N	Azot	2.42
Na	Natriy	0.73
Ca	Kalsiy	0.226
P	Fosfor	0.134
S	Oltengugu	0.132
	rt	
K	Kaliy	0.036
Cl	Xlor	0.032

Bu 10 elementdan tashqari hujayrada juda kam miqdorda yana magniy (Mg), mis (Cu), rux (Zn), kobalt (So), yod (I), molibden (Mo), vanadiy (V), nikel (Ni), xrom (Sr), ftor (F), selen (Se), silitsiy (Si), kaliy (K), bor (V), arsen (As), ham topilgan. Organizm to‘qimalarda bir foizni mingdan bir qis- mi, ya’ni mkg foizidan kam uchraydigan bu elementlar mikroelementlar deb ataladi.

65

Hujayrada kimyoviy birikmalarning taxminiy miqdori

Anorg anik birik malar	Miq dor foiz	Organik birikmalar	M iqdor (f oizda)
Suv	70- 80	Oqsillar	10 -20
Anorg anik modd alar	1.0- 1.5 da)	Uglevodlar (hayvonlar)	0. 2-2.0
		Yogiar	1- 5
		Nuklein kislotalar	0. 7

Massasi 70 kg bo‘lgan organizmdagi kimyoviy birikmalarning taxminiy miqdori

Birikmalar	Odamda		Hayv onlarda (tax miniy)	
	da	kg izda	fo a	foizd
Suv	42	60	70	
Tuzlar	3. 5	5	1.0	
Oqsillar	.6	14	20	18
Yog‘lar	.5	10	15	9
Uglevodlar	7	0.	1	1
Nuklein kislotalar	7	0.	1	1
ATF va quyi molekulali organik birikmalar	2	0.		

HUJAYRANING O‘SISHI VA DIFFERENSIROVKASI

Ml; ;>БрлД': III :;bfr?v.UNd ■■', ■>"f -i: f : 01
ij} }

Hujayraning o‘sishi. Har bir tirik mavjudot ma’lum oichamlarga ega. Bu oichamlarga organizm hujayralarining ko‘payishi va o‘sishi orqali erishiladi. Odam tanasining hamma hujayralari o‘sish qobiliyatiga ega. Ammo bizning a’zolarimiz-dagi ko‘pchilik hujayralar o‘zining o‘rtacha o‘lchamlarini saqlab qoladi. A’zo faolligining keskin oshishi patologik jarayonlar natijasida hujayra o‘lchamlari odatdagidan ko‘ra, biroz kattalashadi, ya’ni gipertrofiya kuzatiladi.

66

Hujayralarning hayot sikli, differensirovka. Yangi hosil bo‘lgan hujayralar hayot siklini o’taydi. Hayot sikli hujayralarning yangi hujayra hosil bo‘lishidan uning keyingi boiinishiga qadar yoki uning o‘lishigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Hujayra o‘z hayoti davrida boiinishi, o‘sishi, differensirovkaga uchrashi kuzatiladi. Shuning uchun hujayraning hayot sikli jarayonlarini ikki guruhgaga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhgaga hujayraning bo‘linishi bilan bogiiq jarayonlar kirib, uni avtosintetik interfaza deyiladi.

Hujayraning o‘sishi, differensirovkasi ma’lum vazifani bajarishga ixtisoslanishi ikkinchi guruhgaga mansubdir (geterasintetik interfaza). Differensirovkaga uchragan hujayra ixtisoslashgan hujayra bo‘lib, u ma’lum vazifani bajarishga moslashgan. Ular ko‘pincha bo‘linish qobiliyatini yo‘qotadi. Masalan, differensiallangan qon hujayralari - eritrotsitlar, nerv hujayralari va hokazo. Ba’zi hujayralar differensirovka holatida bo‘linish qobiliyatiga ega bo‘ladi

(jigar hujayralari).


Embrional takomillashish davrida epiteliy, biriktiruvchi to‘qima, mushak va nerv hujayralari embrional varaqlardan rivojlansa, yetilgan davrda differensirovkaga uchraydi. Turli xil hujayralar asosan kambial hujayralardan ishlab chiqariladi. Qon ishlab chiqaruvchi kambioal hujayralar o‘zak hujayralar deyiladi.

Hamma hujayralar ma’lum muddat yashaydi. M: Eritrotsitlar 120 kun, epidermis hujayralari 4-10 kun. Nerv va muskul to‘qimalari hayot davomida yangilanmaydi. Hujayra o‘limidan oldin uning yadrosi zichlashib piknozga, donachalarga bo‘linib ketishi — karioreksisga, yadroning erib ketishi kariolizisga uchrashi mumkin.

Yadrodagagi o‘zgarishlar natijasida sitoplazmada ham o‘zgarishlar boiib hujayra halok bo‘ladi.

Ichki doira — yangi hosil boigan hujayraning bo‘linishga kirishi; a — yangi qiz hujayralar hosil bo‘lishi; b-yadrosi par- chalanib, hujayra bo‘linmay qolishidan ko‘p yadroli " hujayralarning hosil bo‘lishi; v-poliploid hujayralarning hosil boiishi; g-politeniya.

67



Mitoz

Geterosintetik
interfaza

Bo‘iinish qobiliyatini yo‘qotgan ixtisoslashgan hujayra
O‘lim

52-rasm. Hujayraning hayot siklidagi geterosintetik va avtosintetik interfazalarning o‘zaro munosabati Tashqi doira: 1 -hujayra o‘limi; 2-mitotik bo‘iinish qobiliyati yo‘qolgan hujayra; 3-differensirovkasiz bo‘iinish;

4-differensirovkali bo‘linish;

68

oXininiHiilO^


II bo‘lim EMBRIOLOGIYA

Embriologiya (yunoncha embrion - pushti, logos — ta’limot) embrionning rivojlanishi haqidagi fandir. U jinsiy hujayralarning rivojlanish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘llanmaning ushbu boiimida hayvonlar jinsiy hujayralarning morfologik tuzilishi, urugianish, maydalanish, blastula hosil bo‘lishi, Gastrulyatsiya va o‘q organlari paydo bo‘lish jarayonlari haqida qisqacha to‘xtab o‘tamiz..

Chunonchi, urugianish jarayonini o‘rganish uchun askarida jinsiy hujayralarining qo‘silish holati, maydalanish va blastula davrlariga esa latsetnik va baqa embrionlari preparatlari olinadi. Gastrulyatsiya jarayonini kuzatish uchun esa lansetnik preparatidan foydalaniлади. Organogenez jarayonini o‘rganish uchun tovuq embrioni haqida ma’lumotlar beriladi.


KO PAYISH ORGANLARI

Erkaklik ko‘payish organlari tizimiga urug‘don, uning bosh va dum qismi, urug‘don ortig‘i, tizimchasi, urug‘ yo‘li, siyidik jinsiy kanali kiradi.



53-rasm. Urug‘donning va urug‘don ortig‘ining tuzilishi: chizmasi: 1-oq parda; 2-urug‘donning oralik qismi; 3-to‘siq; 4-urug‘don kanalchalari; 5-chiqaruvchi yo‘li; 6-urug‘don ortig‘i y o‘li; 7-urug‘yo‘li; 8-urug‘don kameralari; 9-to‘g‘ri kanallar to‘ri

69



54-rasm. Urug 'donda spermatozoidlar yetilishining turli bosqichlari chizmasi. 1-spermatogoniylar; 2,3-spermatositlar;

4-follikulyar hujayralar; 5-spermatidlar. I-kanalchalar devoridagi spermatogoniylar; II-follikulyar hujayralar bilan birlashib spermatozoidlarga aylanayotgan spermatidlar; III-yangi bo'linishga tayyorlanayotgan spermatogoniylar; IV-spermotidlarning keyingi rivojlanishi; V-spermatozoidlarga aylanayotgan spermotidlar; VI-tayyor spermatozoidlar

70

URG‘OCHI HAYVONLARNING KOPAYISH ORGANLARI

Bu tizimga tuxumdon, tuxum yo'li, bachadon, qin, siydiq jinsiy dahlizi kiradi.

TUXUMDON TUZILISHI

Tuxumdon - ovarium (ophoron), - juft organ bo'lib, qorin bo'shlig'ida, buyraklarning orqarog'ida joylashadi. Tuxumdon

— tuxum hujayralari va jinsiy gormonlar ishlab chiqaradigan organ. Tuxum hujayralar tuxumdonda yetilib, tuxum yoiiga tushadi. Har xil sutevizuvchi hayvonlar tuxumdoni turli shaklda bo'ladi. Tuxumdonlar bachadonning keng payiga va tuxum pardasiga birlashgan boiadi.


Tuxumdonning ikki cheti, naysimon bachadon tomonga qaragan yuzasi, erkin pardaga tutashgan cheti, yon va o'rta yuzasi boiadi. Tuxumdonning naysimon qismiga tuxum y o'lining voronkasi, bachadonga qaragan qismiga esa tuxumdon payi — Lig Ovarii proprium birlashadi. Tuxumdonda ishlagan tuxum hujayralar aniq yo'1 bilan emas, balki graff pufakchalari yorilishi natijasida tuxum yoiiga tushadi. Tuxumdon yaxlit organ boiib, uning ichki qismida juda ko'p biriktiruvchi to'qima bor, ular hujayra elementlariga juda boy boiadi. Tuxumdonning ikkita: tashqi - follikulyar va ichki — qon tomirlari zonasini boiib, tashqi zonaning ustki yuzasi boshlangich epiteliy bilan qoplangan. Ichki biriktiruvchi

to^qimalarda juda ko‘p qon va nerv tomirlari boiadi.

Tashqi follikulyar zonada tuxum boshlangichlari boiib, ular oldinma-keyin yetila boshlaydi. Follikulyar zonada sariq tana va oraliq hujayralar ham boiadi.

Yetilgan follikula pufakchalar yorilishi natijasida tuxum follikulyar suyuqlik tuxum yoiiga tushadi, bu jarayon ovulya- siya-ovulatio deyiladi. Yorilgan graff pufakchasi o‘rnida follikulyar epiteliy hisobidan sariq tana - corpus Luteum rivojlanadi. U ichki sekretsiya bezidir.

71



55-rasm. Tuxumdon tuzilishi. X200. 1-epiteliy; 2-oqsil pard; 3-po 'stloq modda; 4-birlamchi follikula; 5-o 'sayotgan follikula;

6-graff pufakchasi; 7-pufaksimon follikula bo 'shlig 7/ 8-tuxum hujayra; 9-bo' shliq; 10-sariq tana; 11-atretik tana; 12-mag 'iz modda; 13-biriktiruvchi to 'qima

72

GAMETOGENEZ

Gametogenez yuqori darajada differensiyalashgan va qo'shi-lib yangi organizm hosil qila oladigan ikki jinsiy hujayra — spermatozoid va tuxum hujayrasining hosil bo'lish jarayonidir. Gametogenez birlamchi jinsiy hujayraning paydo boiishi va uning jinsiy a'zoda o'rashishi va shu yerda ularning mitoz yo'li bilan ko'payishi, so'ng meyoz usulida xromosomalar sonining kamayishi, yetilib, shakllanib spermatozoid hamda tuxum hujayralarining hosil bo'lishi kabi o'ta murakkab jarayonlarni bosib o'tadi.

Boijak birlamchi jinsiy hujayralar embrion rivojining VI haftasi boshlarida sariqlik xaltachasi devori entodermal hujayralari orasida bo'ladi. Shu birlamchi

jinsiy hujayra shakllanganda, embrionning dastlabki rivojlanish davrida, hali jinsiy bezlar hosil boimagan boiadi. Jinsiy bezning hosil bo‘lish mobaynida birlamchi jinsiy hujayra sariqlik xaltachasi devoridan faol migratsiya qilib yoki qon tomirlari orqali jinsiy a’zoga kirib keladi.

Dastavval jinsiy bezga ko‘chib birlamchi jinsiy hujayralarning miqdori ko‘p boimaydi. Ularda proliferatsiya (ko‘payish) kuchayadi. Bunday mitoz yoii bilan ko‘paygan jinsiy hujayralar erkak organizmida spermatogoni, urg‘ochi organizmda ovogoniylar deyiladi.

Gametogenetik spermatozoid va tuxum hujayralarining birlamchi jinsiy hujayralardan hosil bo‘lishi — spermatogenetik va ogoyenezdan iborat.

Spermatogenetik.Spermatozoid ‘hujayrasining hosil boiishida 4 davr tafovut etiladi:

1. Ko‘payish.
2. O’sish.
3. Etilish.
4. Shakllanish (spermiogenetik).

Organizmning embrional rivojidan boshlab jinsiy bez urug‘ naylarining eng tashqi zonasida joylashgan hujayralar — spermatoniyalarda muntazam ravishda mitoz yo‘li bilan ko‘payish ro‘y beradi. Muntazam ko‘payib turuvchi hujayralarning ikki

73

toifasi A va B spermatogoniylar farqlanadi. A toifadagi spermatogoniylarda ro‘y berib turgan ko‘payish (mitoz) jarayoni shu hujayra miqdorining kamaymasligini ta’minlab beradi. A spermatogoniylar o‘zak hujayra hisoblanadi. Shu hujayralarning ko‘p marta boiinishi bilan V spermatogniylar hosil boiadi, Balog‘atga yetish bilan mana shu V spermatogniylarda mitoz jarayon bir necha bor sodir boiib, hosila hujayralar keyingi davrga o‘tadi. Shu toifa hujayralar o‘sish davridagi tayyor hujayralar hisoblanadi.

O‘sish davri bilan meyozning boshlanishi sodir boiadi. Prafaza so‘ngida yirik I-tartibli spermatosit yuzaga keladi. Bu hujayralar urug‘ nayi devorining keyingi qismiga siljiydi. Meyozning birinchi boiinishi bilan, har bir shunday hujayradan gaploid xromosoma to‘plamiga ega boigan ikkita II-tartibli spermatosit hosil boiadi va spermatogenezning yetilish davri boshlanadi. Shu boiishdan keyin, ketma- ket sodir boigan meyozning ikkinchi boiinishi natijasida, har bir II tartibli spermatosit hujayrasi, urug‘ nayi teshigiga yaqin qismida joylashgan, ikkitadan spermatid hujayralarni ko‘rish mumkin. Bu hujayralar mayda, cho‘zinchoq boiib, odamda meyoz boiishning birinchi davri bir necha hafta davomida kechadi, II boiish esa 8 soat davom yetadi.

Spermatidalarning spermatozoidlarga aylanishi - spermio- genez jarayoni murakkab boiib, dastavval spermatid yadrosi kichiklashadi, xromatin o‘ta zichlashib boradi, yadro bir tomonga sitoplazma esa, uni o‘rab boshqa tomonga siljiydi. Sitoplazma tuzilmalarining murakkab qayta joylashishi, sitoplazma «ortiqcha» qismining parchalanishi ro‘y beradi. Golji apparati yadro oldi qismiga joylashib, murakkab o‘zgarishlar natijasida akrosomaga aylanadi.

Spermatogenetik mobaynida jinsiy hujayralar urug‘ nayi devoridagi

oziqlanuvchi hujayra - Sertoli hujayrasi bilan yaqindan bogiiq boiadi. Ularning o‘zaro zich yotishi Sertoli hujayrasining oziqlantirish, degeneratsiyaga uchragan hujayralarni fagositoz qilish va boshqa faoliyatlarini bajarib, spermatozoid hosil boiishida muhim ahamiyati borligini ko‘rsatadi.

74


Spermotogoniy DNK replikastiya 2p4s

I

/ - tartibli spermatostid

II - tartibli spermatostid


sperma-
tidlar



J I I J

sperma-
tozoidlar

meyozning I - bolinishi 2p 4s



meyozning II - bo‘linishi 1p

yetilmagan 1p 1s gematalar 1p 1s

spermiogenez

gematalar 1p 1s

56-rasm. Spermatogenez jarayonining chizmasi n-xromosoma; c-DHK miqdori

Φ

Spermatogenez jarayonida har bir spermotogoniy goploid xromosoma to‘plami tutgan 4 ta spermatozoid hosil qiladi. Shu spermatozoidlardan ikkitasi X jinsiy xromosoma, ikkitasi esa U xromosomaga ega bo‘ladi. Demak, erkak organizmi jinsiy hujayralari ikki xil xromosomali hujayra — geterogamet hujayra hisoblanadi. Spermatogenez jarayoni ko‘pgina hayvonlarda yilning

75

ma’lum paytlaridagina sodir boiadi. Boshqa vaqtarda ularning jinsiy bezi urug‘ nayida, faqatgina, spermotogoniylarda uchraydi.

Ovogenet. Tuxum hujayrasining hosil boiishi har bir turga mansub

mavjudotlarda o‘ziga xos bo‘lib, bu jarayon har bir organizmning ko‘payish xususiyatiga bogiiqdir. Suvda yashovchi hayvonlarda (ichki urugianish yuz beruvchilarda) odatda 1-2 tadan 15 tagacha tuxum hujayra yetilishi mumkin.

Ovogenez jarayoni 3 davrda amalga oshadi:

1. Ko‘payish.
2. O‘sish.
3. Etilish.

Ko‘payish odamda embrional rivojlanish davridagina ro‘y beradi. Embrion rivojining 6-oyidan boshlab bu jarayon, ya’ni birlamchi jinsiy hujayraning mitotik bo‘linishi to‘xtaydi. Yangi tug‘ilgan qizaloqda 2 millionga yaqin ovogoni yodi. Bu hujayralar jinsiy hujayra va uni o‘rab olgan bir qavat follikulyar hujayralardan iboratdir. Organizm o‘sishi bilan ovogoniylar yemirilib (degeneratsiyaga uchrab), miqdori kamayib boradi. Barcha birlamchi jinsiy hujayra-laridan 40000 ga yaqini jinsiy voyaga yetayotgan organizmda saqlanib qoladi. Ularning ham barchasi tugal ravishda yetilmaydi (ko‘pi nobud boiib ketadi). Jinsiy balog‘at boshlanishi bilan 400taga yaqin saqlanib qolgan jinsiy hujayralardan bittasi har 28 kunda tuxumdondan chiqadi (ovulyasiya yodi) va yetilgan tuxum hujayrasiga aylanadi.

O‘sish davri embrion rivojining 3-oylaridanoq birinchi tartibdagi ovositlarga o‘tish bilan boshlanadi. Bu profazaning boshlanishi bilan ifodalanadi. Ovogoniylar organizm tug‘ilmasidanoq meyozning birinchi profazasidan o‘tib, diploten davrda yodi. Birinchi tartibdagi ovositlarga aylangan bu jinsiy gormonlar ta’siri boimaguncha, shu holatda turadi. Birinchi tartibli ovositlar yassi follikula hujayralariga o‘raladi va ular primordial follikula nomiga ega yodi. Bu primordial follikulalarda organizmning butun reproduktiv yoshi davomida o‘sishga moyillik sezadi.

Jinsiy balog‘at boshlanishi bilan birinchi tartibli ovositning yadro sitoplazmasi yiriklashadi, sariqlik to‘planadi, follikular

76

Homilada

tug‘ilshi primordial paytida follikula
tug‘ilgan- birlamchi dan so‘ng follikula
balovatga ikkilamchi etganda folikulla



ovogoni

mitoz

1-tartibli ovotsid

1-tartibli ovotsid

rivojlanishning to‘xtashi

1-tartibli ovotsid

2p 2s 2p 4s 2p 4s

2p 4s

Graaf
folikula



ovulyatsiya

2-tartibli

ovotsit

1p 4s

1p 4s

игидЧапдап tuxum h-ra



1p 1s+ sperma

57- rasm. Ovogenet jarayonining chizmasi. n-xromosoma c-DHK miqdori hujayraga o'ralgan ovosit tuxumdonning chekka sohasidan o'rtaga siljiydi, follikulyar hujayra bir necha qavat bo'lib, o'sayotgan tuxum hujayrasini o'rab oladi, gipofiz gormoni ta'sirida, follikula hujayralaridan hosil boigan suyuqlik hisobiga hujayralararo bo'shliq paydo bo'lib, tuxum huijayra bir

77

chechkaga suriladi va yetilgan follikula -graff pufakchasi hosil boiadi. Bu pufakchada diploten holatidagi birinchi tartibli ovosit ko'zga tashlanadi.

Yetilish davri organizmdagi murakkab (endokrin) jarayonlar ta'sirida tuxumdondan birinchi tartibli ovosit chiqishi, ya'ni ovulyasiya ro'y berishi bilan boshlanadi. Jinsiy hujayraning yetilish davri tuxum hujayrasining spermatozoid bilan uchrashidan keyingina sodir boiadi. Diploten holatidagi 1 tartibli ovositda meyozning profazasi yakunlanadi. Tuxum yo'liga tushgan 1-tartibli ovositda meyozning reduksion bo'li- nish bosqichi ro'y beradi va hujayraning notejis bo'linishi jarayonida yirik hujayra - 2-tartibli ovosit va mayda hujayra- obortiv (yo'naltiruvchi-reduksion) tanacha hosil boiadi. Shu boiinish bilan hosil boigan hujayralar 23 ta (gaploid) xromosomaga ega. Ikkinchi tartibli ovositda meyozning keyingi boiinishi sodir boiib, yetilgan tuxum hujayra va yana bitta yo'naltiruvchi tanacha vujudga keladi. Birinchi reduksion tanacha ham o'z navbatida boiinib, 2ta yo'naltiruvchi tanacha hosil qiladi. Shunday qilib, bitta birinchi tartibli ovositdan bitta tuxum hujayrasi hamda 3ta reduksion tanacha hosil boiadi. Barcha hosila hujayralar — tuxum hujayrasi va reduksion tanachalar 23 tadan xromosomaga ega boigan gomogamet (ya'ni barchasida ham X xromosoma mavjud) hujayralardir. Reduksion tanachalar yemirilib ketadi.

JINSIY HUJAYRALAR TUZILISHI

Urug' hujayrasi - spermatozoidning tuzilishini o'rganish uchun sperma

surtmasidan tayyorlangan preparatlardan foydalaniladi. Spermatozoidlar juda mayda hujayralar boiganligi uchun, ular katta obyektiv ostida o‘rganiladi. Spermatozoidlarning tuxumsimon binafsha rangli boshchalari boiadi. Bundan tashqari, spermatozoid boshchalarining shakli yumaloq yoki cho‘zinchoq boiishi ham mumkin. Yadrosi spermatozoid boshchasining deyarli hamma qismini egallab yotadi. Sitoplazma esa bu yerda halqacha shaklida yadroni o‘rab turadi. Spermatozoidning boshchasi bo‘yin tomonida torayib,

78

pushti rangli bo‘yinga, bo‘yin esa tanaga, tana ingichka va uzun dumchaga qo‘silib ketadi.

Elektron mikroskop ostida spermatozoid boshchasida yadroning oldingi qutbida joylashgan zich donasimon tanacha - akrosoma ko‘rinadi. Bo‘yin va tana qismida esa distal va proksimal sentriolalar, mitoxondriyalar joylashgan. Dum qisimi fibrillalardan: 9 ta periferik, 2 ta markaziy va ingichka sitoplazmadan iborat.

12 3 45 6 7 78899


5H

58-rasm.

Odam spermatozoidining tuzilishi. a-bosh qismi; b-bo ‘yin qismi; d-dum qismi; 1-akrosoma;

2-yadro; 3-mitoxondriya;

4-plazmatik membrana; 5-xivchin




59-rasm.

Turli hayvonlarning jinsiy hujayralari.

1-lansetnik; 2-salamandra; 3-zyablik; 4-xo ‘roz; 5-ko ‘rshopalak; 6-dengiz cho ‘chqasi; 8-buqa; 9-ayg ‘irning urug ‘ hujayralari

79



60-rasm. Spermatozoid. Elektron mikrofotogramma Ax21000, B-14000. I-spermatozoid boshchasini egallagan yadro; 2-bo 'yni; 3-sentriola; 4-distal sentriol halqasi; 5-dum o 'qi ipi; 6-mitoxondriya; 7-plazmolemma; 8-dum; 9-bog 'lovchi qism


TUXUM HUJAYRASI

Preparatga kichik obyektiv ostidan qaralganda turli darajada yetilgan ko‘p sonli tuxum hujayralari ko‘rinadi. Yetilgan tuxum (ovosit) hujayrasi tuzilishiga ko‘ra, yirik, yumaloq shaklda bo‘lib, markazida och binafsha rangli yadrosi yotadi. Sitoplazmasida esa ko‘p miqdorda mayda donachalar mavjud. Hujayra qizil yaltiroq parda (Zona pellusida) bilan o‘ralgan

80

bo‘lib, u tuxum hujayrasining qObig‘i hisoblanadi. Tuxum hujayrasining atrofida birmuncha mayda, binafsha rangli follikula hujayralar bo‘ychan silindrsimon shaklga ega bo‘lib, yaltiroq parda ustida yotadi va nursimon tojni (Sorona radiata) hosil qiladi.

Elektron mikroskop ma’lumotlariga ko‘ra, tuxumning hujayra sitoplazmasida alohida- alohida yotgan sariq donachalar, ko‘p pufakchali tanachalar va hujayra pardasida esa mikrovorsinkalar bo‘ladi. Bulardan tashqari, tuxum hujayrasining periferik qismida yaltiroq parda va o‘sintali follikula hujayralari ko‘zga tashlanadi.



61- rasm. Baqa tuxumining hujayrasi xlOO 1-tuxum hujayrasining po 'stlog 7; 2-sariqlik donachali sitoplazma;

3-yadro

81

62-rasm. Tovuq tuxumining tuzilishi. 1-embrional disk; 2-sariqlik qobig 'i; 3-sariqlik ; 4-oqsil; 5-po 'chog 4; 6-tuxum hujayrasini markazda tutib turuvchi tortma

URUG'LANISH


Xromosomalarning gaploid to‘plamiga ega boigan tuxum hujayrasiga xuddi shunday urug‘ hujayraning qo‘silishi urug’lanish deb ataladi.Urug‘lanish natijasida hosil boigan hujayra zigota deyiladi. Zigitaning hosil bo‘lishi bilan yana xromosomalarning diploid to‘plami tiklanadi. Chunki, gomo- log xromosomalarning bittasi tuxum hujayralarniki, ikkinchisi esa spermatozoidnidir.

Hayvonlarda urug‘lanish. Har xil organizmlarda jinsiy hujayralarning soni va oichami turlicha. Tuxum hujayra bilan spermatozoidning o‘zaro uchrashish ehtimoli qancha kam bo‘lsa, shuncha ko‘p jinsiy hujayralar hosil bo‘lishi aniq. Baliqlarda urugianish suvda kechishi tufayli ularning tuxum hujayrasi yirik va juda ko‘p sonlidir. Yuqori tuzilishga ega umurtqalilarda esa tuxum hujayra kam, lekin spermatozoidlar soni juda ko‘p.


Urugianish jarayonida avval spermatozoid tuxum hujayraga yaqinlashadi, uning bosh qismidagi fermentlari ta’sirida tuxum hujayra qobig‘i erib, kichik teshikcha bor. Bu teshikcha orqali spermatozoid yadrosi tuxum ichiga kiradi. Keyin har ikkala gametaning gaploid yadrolari qo‘silib, umumiy diploid to‘plamli yadro hosil qiladi, faollashadi, boiinish va rivojlanish boshlanadi. Ko‘pchilik holatlarda bitta tuxum hujayrani faqat

82


bitta spermatozoid urugiantiradi. Ba’zi hayvonlarda tuxum hujayraga ikki yoki bir nechta spermatozoid kirishi mumkin. Lekin ularni urugianishida faqat bittasi qatnashadi, boshqalari esa nobud boiadi.




A



B



E



D

63-rasm. Urug'lanish chizmasi. A-spermatozoidning tuxum ichiga kirishi. B-spermatozoid boshchasidan yadro va bo 'yinchasidan sentriola hosil bo 'lishi. D-ikki pronukleus qo'shilishi.E-gomologik xromosomalarning qo 's hi lishi va birinchi bo'linishi: 1-urg'ochi yadro; 2-erkak yadro; 3-qabul qiluvchi do 'nglik; 4-sentrosoma;

5-tuxum xromosomalari; 6-urug ' xromosomalari; 7-urg 'ochi va
8-erkak pronukleusi

Maydalanish. Zigota hosil bo‘lgach, ko‘p o‘tmay murakkab yo‘l bilan ko‘payadi. Ko‘payish natijasida hosil bo‘lgan qiz hujayralar o‘smaydi, ular ketma-ket maydalanadi. Hujayralarning miqdori ko‘paysa ham hajmi ortmaydi. Shuning uchun embrion ma’lum davrgacha o‘smaydi.

Zigota maydalanish natijasida yangi xususiyatlarga ega boigan ko‘p hujayrali organizmga aylanadi.

Zigotaning maydalanishi uning sitoplazmasidagi sariq moddaning ozko‘pligiga va joylashuviga bog‘liq. Maydalanish turli hayvonlarda turlicha boradi.

1. Xordalilarda to‘liq tekis holda.
2. Amfibiyalarda toiiq notejis holda.


3. Baliqlar, sudralib yuruvchilar va qushlarda maydalanish disksimondir.

Zigotada sariq modda juda kam va sitoplazmada teng tarqalgan bois, maydalanish to‘liq tekis kechadi. Maydalanish natijasida hosil boigan hujayralar - blastomerlar o‘zaro teng boiadi. Bu hodisa lansetniklarda uchraydi.

Amfibiyalarda tuxum hujayrasi sariq modda miqdori jihatidan teloletsital tipga kiradi. Ular tuxum hujayrasi-ning maydalanishi natijasida o‘zaro teng boimagan blastomerlar yuzaga keladi.

Baliqlar, sudralib yuruvchi va qushlarning tuxum hujayrasida sariq modda juda ko‘p. Sariq modda tuxum hujayrasining bir qutbida ko‘p, ikkinchi qutbida juda kam joylashgan. Maydalanish jarayonida zigotaning animal qismi ishtirok etadi. Blastomerlar animal qismga joylashgan. Tuxumning vegetativ qismi sariq moddaga to‘la va maydalanishda ishtirok etmaydi. Tuxum hujayrasining ketma-ket maydalanishi natijasida blastomerlar to‘plami vujudga keladi. Blastomerlar to‘plamining tashqi ko‘rinishi tut mevasiga o‘xshaydi. Blastomerlar to‘plami morula deb ataladi. Morulaning markazida ichi zardob bilan toigan bo‘shliq bor. Yuqoridagi jarayonlar o‘tgach, embrion yumaloq pufakcha shaklini oladi. Pufakcha (blastula)

84




devorchasi hujayralari ko‘payishida davom etib, pufakcha va uning ichi kattalashadi.

To‘liq tekis yo‘l bilan maydalanuvchi tuxum hujayralardan tipik blastula shakllanadi. Agar tuxum hujayra teloletsital bo‘lsa, tipik blastula hosil bo‘lmaydi.


64-rasm. Lansetnik rivojlanishning ilk bosqichlari:

1-tuxum hujayra; 2-2 blastomer; 3-8 blast omer; 4-32 blast omer;
5-blastula bosqichi; 6-gastrula; 7-o ‘q organ; 8-nerv plastinkasi;
9-xorda; JO-mezxoderma; 11-endoderma; 12-ektoderma



65-rasm. Baqa blastulasi x20.1 -blastula qopqog ‘i; 2-blastula tubi; 3-blastomerlar; 4-blastosel

85





66-rasm. Lansetnikning rivojlanishi. 1-zigota; 2-4-blastomerlarni hosil bo‘lishi; 5-blastula; 6-blastulaning kesimi

86

GASTRULYATSIYA


Gastrulyatsiya mobaynida homila varaqalari va o ‘q organlari- ning boshlang’ich kurtagi hosil bo‘ladi. Gastrulyatsiya umurtqali hayvonlarda tuxum hujayralaridagi oziqa moddasining miqdoriga qarab turlicha kechadi: Gastrulyatsiyaning 4 turi farqlanadi: 1) invaginatsiya; 2) immigratsiya; 3) Qiboliya; 4)delyaminsiya.





E


67-rasm. Gastrulyatsiya. A-lansetnikda invaginatsiya; B-baqada epiboliya; D-immigratsiya; E-delyaminatsiya yo 'li bilan yuz beradigan Gastrulyatsiya turlari



87

Gastrulyatsiya. Embrion taraqqiyotining blastula stadiyasiidan so'ng, Gastrulyatsiya stadiysi boshlanadi. Blastula qopqoqchasidagi va uning atrofidagi blastomerlarning tez bo'li- nishi orqasida blastulaning yuqori qismi tez o'sa boshlaydi. Natijada blastulaning tub qismi blastulaning ichiga tomon bukilib kiradi va blastula tubi blastosel orqali qopqoqcha ostiga kiradi. Shu bilan embrion ikki qavatli holatga keladi.

1




68- rasm. Lansetnik embrionida blastula, gastrula va o 'q organlarning hosil bo'lishi:a-blastulaning sagital kesimi; 1-teri ektodermasi; 2-ichak endodermasi; 3-xorda; 4-mezoderma; 5-nerv plastinkasi b-gastrulaning sagital kesimi: 1-gastropor; 2- gastrotsel; 3-4-5-lablar; d-gastrulaning ko 'ndalang kesimi: 1-nerv plastinkasi; 2-ektoderma; e-o 'q organlaryning hosil bo 'lishi; f-embrionning ko 'ndalang kesimi: 1-nerv plastinkasi; 2-xorda; 3-mezoderma

Bu davriylik davomida blastosel yo'qolib, uning ichidagi zardobsimon suyuqlik shimilib ketadi. Blastula tubining blastosel tomon bukilib o'sib kirishi natijasida hosil bo'lgan bo'shliq boshlang 'ich ichak kovakchasi yoki gastrosel deb ataladi. Gastroselning tashqariga ochiq tomoni blastopor (boshlang'ich og'iz), atrofi esa blastopor lablari deyiladi.

Blastula tubining blastula qopqoqchasiga borib qadalishi natijasida uning qopqoqcha qismi og'irlashadi, shuning uchun ham embrionning blastopor qismi

yuqori tomonda bo‘ladi. Blastula qopqoqchasiдан hosil bo‘lgan tashqi qavat-ektoderma, blastulaning tub qismidan hosil bo‘lgan qavat-entodermadir. Entoderma boshlang‘ich ichak devorchasini tashkil etadi. Embrionning orqa qismida ektoderma hujayralarining tabaqalani- shidan embrionning uzunasiga ketgan nerv plastinkasi, uning ostida — xorda, atrofida esa mezoderma cho‘ntaklari hosil bo‘ladi.



69-rasm. Lansetnik Gastrulyatsiyasida materiallar harakatini ko'rsatuvchi chizma. 1-oldingi qism; 2-orqa qism; 3-xorda plastinkasi; 4-ektoderma; 5-endoderma; 6-blastopora orqa labi;


7-mezoderma boshlanadigan murtak; 8-nerv plastinkasi

Baliqlarda Gastrulyatsiya invaginatsiya va delyaminatsiya yo‘li bilan kechadi. Ya’ni maydalangan pusht gardishi sariqlikda birmuncha cho‘ziladi, uning ustida ko‘tariladi va orqa qirg‘og‘ida burala boshlaydi. Buning natijasida qirg'oq kertigi

89

hosil bo‘ladi. Bu qirg‘oq uzunlashadi, chuqurlashadi, natijada homila gardishi ikki qavat bo‘lib qoladi. Tashqi qavat ektodermani, ichki qavati esa endodermani tashkil etadi. Birlamchi ichak bo‘shlig‘i gastrosel hosil bo‘ladi va u lansetniklarning, amfibiyarlarning birlamchi ichagidan, tubining bo‘lmasligi bilan farq qiladi. Ularda tub bo‘lib parchalanmagan sariqlik hisoblanadi. Bu yerda ham lablar bilan chegaralangan blastopor bo‘lib, lansetnik, amfibiyarnikidan orqa labning bo‘lmasligi bilan farqlanadi, orqa lab o‘rnida esa sariqlik bo‘Madi. Invaginatsiya va qirg‘oq kertigining hosil bo‘lishi bilan bir vaqtda delyaminatsiya ham ro‘y beradi, ya’ni sariqlik ustida yotuvchi qirg‘oq blastomerlarining ajralishi natijasida ham endoderma hosil bo‘ladi. Shunday qilib, baliqlarda 2 ta endoderma farqlanadi. Ulardan biri invaginatsiya natijasida hosil bo‘lgan gastral entodermasidir. Bir vaqtning o‘zida lablar orasida mayda hujayra materiallarining ajralishi hisobiga xordomezodermal kurtak hosil bo‘ladi va ular Gastrulyatsiyaning boshlanishidayoq ekto va endodermaning orasiga suqilib kirib, alohida o‘sса boshlaydi. Ektodermaning tarkibida oldingi labdan nerv plastinkasi o‘sadi.

bi-boshlang‘ich ichak; pb-sariq 2-sariq poyacha; 3-ektoderma




70-rasm. Gastrulyatsiyaning boshlanishi. xp-xorda plastinkasi;

71-rasm. Baliq embrionida tana burmasining hosil bo'lishi; 1-embrion tanasi; modda yaqinidagi hujayra

4-sariq epiteliy; 5-qon tomirli mezenxima


90

BAQA EMBRIONINING GASTRULYATSIYASI



72-rasm. Baqa embrionining Gas truly atsiy a chizmasi. A-blastula; B-Gastrulyatsiya boshlanishi; D, E, F-Gastrulyatsiyaning keyingi bosqichlari; G-kechikkan Gastrulyatsiya; GS-gastrosel, BS-blastosel; JP-sariqlik ; a-animal qutb

БЦ



73-rasm. Baqaning kechikkan Gastrulyatsiyasi chizmasi. BS-blastosel; ES-gastrosel; FG-dorsal lab; DG-ventral lab

91

5

G

?

Г

Ә


ID


II

74-rasm. Baqa embrionining rivojlanish stereogrammasi.


1-ektoderma; 2-mezoderma; 3-nerv nayi; 4-dermatom; 5-miotom; 6-xorda;
7-mezenxima; 8-skelerotom; 9-pariyetal varaq; 10-visseral varaq; 11-ichak; 12-
splanxnotom; 13-segment oyoqcha

Qushlarda Gastrulyatsiya delyaminatsiya bo'yicha kechadi. Maydalangan homila gardishi 2 varaqqa ajraladi. Endoderma ostida uncha katta boimagan gastrosel deb yuritiluvchi tirqish hosil bo'ladi, uning tubi sariqlik hisoblanadi. Qushlar tuxumini bosib yotmaguncha pusht gardishida o'zgarishlar bo'lmaydi. Pusht gardishining markazida bo'linayotgan mayda hujayralar pusht qolqonchasi deb ataluvchi to'plam hosil qiladi. Uning atrofida blastomerlar sariqlik ustidan birmuncha ko'tarilib oqish maydonini hosil qiladi. Uning orqasida esa qoramtil maydonni hosil qiluvchi sariqlik zikh yopishib yotgan blastomerlar yotadi. Unda qon tomirlar rivojlanadi. Pusht qalpoqchasining orqa chekkasida bo'linayotgan mayda hujayrali materialning konsentratsiyalanishi natijasida birlamchi tasmani, uning oldingi uchi qalinlashib, birlamchi (Genzen) tugunini hosil qiladi. Mana shu tugundan old tomoniga xordal o'simta o'sib chiqadi. Birlamchi tasma sohasida mayda hujayrali material zo'r berib bo'linishda davom etadi va ekto hamda entodermaning orasiga o'sib kiruvchi mezodermani beradi. Shunday qilib, qushlarda invaginatsiya bo'lmasligi sababli, blastopora hosil boimaydi. Uning analogi birlamchi tasma hisoblanadi, chunki u yerda birlamchi kurtak va o'q organlarining to'plamasi hosil bo'ladi.





75-rasm. Bostirilgan tovuq tuxumida jojaning turli taraqqiyot bosqichining chizma tuzilishi: 1-2-amnion bo'rmasi va mezoderma; 3-tuxum po 'chog 'i; 4-amnion bo 'rmalari; 5-havo kamerasi; 6-selom; 7-sariq modda xaltasi; 8-allantois; 9-amnion ichi; 10-amnion pardasi; 11-tuxum sarig'i



4

76-rasm. Tovuq embrionida o'q organlarining pay do bo'lishi.
1-nerv naychasi; 2-ganglioz plastinka; 3-xorda; 4-endoteliy;
5-somitlar; 6-muskul; 7-mezoderma; 8-nefrotom; 9-splanxnotom visseral varag'i; 10-parietal varag'i; 11-ichak endodermasi;
12-qon hujayralari; 13-ektoderma

93


Sutemizuvchilarda Gastrulyatsiya — delyaminatsiya va immigratsiya tipida boradi. Trofoblast tagida joylashgan embrional tuguncha birmuncha yoziladi va 2 varaqqa ajraladi. Ektoderma ustida joylashgan trofoblast hujayralari erib ketadi. Embrional tugunchaning markazida birlamchi tasmali pusht qalqonchasi (Genzen tuguni) va xordali o'simta hosil bo'ladi. Birlamchi tasma sohasida mayda hujayra materiali ichkariga o'sib kirib ekto va endoderma orasida taqsimlanadi va mezodermani hosil qiladi. Endodermaning e^kin qirg'oqlari trofoblastning ichki yuzasini o'rab o'sa boshlaydi. Shuning bilan bir vaqtida embrional tugundan hujayra elementlari migratsiyaga uchrab, ekto va entodermaning orasiga o'sib kiradi. U ham trofoblastning ichki yuzasini o'rab o'sa boshlaydi va pushtdan tashqari mezodermani beradi.

Homila varaqlari va o'q organlarining kurtaklari hosil bo'lishi bilan Gastrulyatsiya davri tugaydi va embrional taraqqiyotning to'rtinchi davri —

gistogenez va organogenez boshlanadi.

To‘qima va organlarning taraqqiyoti hamma umurtqali hayvonlarda bir xilda o‘tadi. Ektodermadan nerv plastinkasi ajraladi, u awal bukilib nerv tarnovchasini, keyinchalik tutashib, nerv nayini hosil qiladi, ustini esa ektoderma qoplab oladi.

Xordal plastinka nerv naychasing tagida xordani hosil qiladi. Mezoderma segmentlarga (dermatom, sklerotom, mio- tom), segment oyoqchalari (nefrotom) stlanxnotomlarga defferensiyalanadi.



77-rasm. Cho ‘chqa zigotasining maydalanishi: a-zigotaning ikki; b-uch ; d-to ‘rt; e-besh; f-olti; g-yetti; h-sakkiz blastomerli bosqichlari

94

MEZODERMANING HOSIL BO‘LISHI

Gastrulyatsiya jarayoni oxirida embrionning uchinchi varag‘i

— mezoderma ham hosil bo‘ladi. Yuqori darajada tuzilgan hayvonlarda bu jarayon ekto-endoderma rivojlanishi bilan bir vaqtida sodir bo‘ladi va bu embrionning ichki varag‘idan ajraladi.


Shuning uchun ham, u, oldinroq paydo bo‘luvchi birlamchi varaqlar — ekto va endodermaga qarama-qarshi, embrionning ikkilamchi varag‘i deyiladi.. Mezodermaning hosil bo‘lishi xilma- xil bo‘lishiga qaramay ularning hammasi ikkita asosiy to‘rdan iborat bo‘ladi: enterosel va teloblastik.

Enterosel usulda mezoderma cho‘ntakchasimon o‘sintalar shaklida birlamchi ichakning ikki yon tomonida hosil bo‘ladi. Mezoderma ekto va endoderma bilan bir vaqtida rivojlansa, bu varaqlar oralig‘idan chegarada, ularning biri ikkinchisiga o‘tadigan joyda hosil bo‘ladi. Agar mezoderma ekto-endoderma hosil bo‘lgandan so‘ng rivojlansa, u embrionning ichki varag‘idan ajraladi.

Har ikkala holda ham mezoderma boshlang‘ich ichakning ikki yonida simmetrik holda tashqi va ichki varaqlar oralig‘idan bo‘linish bo‘shlig‘iga o‘sib kiradigan kovak bo‘rtmalardan iborat boiadi. Mezodermal o‘sintalarining bo‘shlig‘i ikkilamchi tana bo‘shlig‘ining yoki selomining boshlang‘ichi hisoblanadi.

Teloblastik usul. Bu usulda mezoderma bo‘linish bosqichi- dayoq ajralib chiqadigan ikkita hujayra teloblastlardan rivojlanadi. Ular Gastrulyatsiya jarayonida simmetrik holda birlamchi ichak yonida ekto va endoderma orasidagi chegarada joylashadi. Teloblastlar faol boiina boshlaydi va shu vaqtida hosil boiuvchi yangi, mezodermal hujayralar tortmalar bo‘lib ekto va endodermalar orasiga o‘sib kiradi. Teloblastlarning o‘zi esa tananing keyingi uchida qoladi.

95



78-rasm. Mezodermaning hosil bo'lish tiplari. I teloblastik.

II entrosel; III o 'zgaruvchan; 1V ektodermadan ko 'chib o 'tish. 1-ektoderma; 2-endoderma; 3-mezoderma; 4-teloblast; 5-blastopor; 6-xorda materiali

79-rasm.

Sutemizuvchilar embrionining rivojlcinish chizmasi.

A -rivojlanishning dastlabki bosqichida embrion pufagi. B, D-embrional varaqlar hosil bo 'lishi.

E-yo 'Idosh va kindik.

F-ikki oylik homilador bachadon. 1-vorsinkali xarion; 2-embrion;

3-embrion pufagi bo 'shlig 7;

4-bo 'shlik hujayrasi;

5-amnion;

6-amnion bo 'shlig 7;


7-sariqlik xaltasi;

8-allantois; 9-kindik;

10-yo 'Idosh;

11-yo 'Idoshning onalik qismi; 12-bachadonning muskulli devori;

13-bachadon bo 'shlig 7



PRO VIZOR ORGANLARFI SJING HOSIL BO'LISHI


Xordali hayvonlar tuzilishining murakkablashishi bilan homila rivojlanishini ta'minlovchiprovizor (muvaqqat) organlar hosil bojadi. Ular defmitiv a'zolardan farqli ravishda homila mustaqil hayot kechirguncha yoki tug'ilguncha turadi, so'ngra yo'qolib ketadi.

Pro vizor organlarga quyidagilar kiradi; 1) sariqlik xaltasi; 2) amnion; 3) seroz parda; 4) allantois; 5) xorion; 6) yo'ldosh; 7) kindik kanalchasi.

Provizor organlar baliqlarda dastlab sariqlik xaltasi ko'rinishida hosil bo'la boshlaydi. Ma'lumki, Gastrulyatsiyaning ilk bosqichlari- dayoq gastral va sariqlik entodermasi hosil bo'ladi. Sariqlik endodermasining erkin qirg'oqlari o'sib sariqliknini o'rab oladi. Xordo- mezodermal kurtak hosil bo'lgach, ekto va entoderma oralig'iga mezodermaning pariyetal va visseral varag'i ham o'sib kiradi.

Amnion va seroz parda. U qushlarda, reptiliy va sutemizuvchilarda uchraydi. Tana burmasi va sariqlik xaltasi shakllanishi bilan homilaning ust tomoniga o'suvchi ektoderma va mezodermaning parital varag'idan hosil bo'lgan ikkinchi burma

— amnion burma yuzaga keladi. Amnion burma hamma tarafdan homilani o'rab oladi va bir-biri bilan birlashib ketib, bevosita homilani o'raydigan amnion va seroz pardani hosil qiladi. Seroz parda tuxum po'chog'i ostida o'sib, homila, amnion, sariqlik va oqsilni o'raydi. Amnion o'sish davomida suyuqlik bilan to'ladi.



80-rasm. Sutemizuvchilarning muvaqqat (provizor) organlarning rivojlanish chizmasi. A.B.D- uch ketma-ket bosqich. 1-embrion tanasi; 2-tana bu'rmalari; 3-amnion burmalari; 4-amnion qobiq; 5-sariqlik xaltachasi; 6-allantois; 7-xorion

97

Uning bo'shilg'ida homila rivojlanadi. Sutemizuvchilarda ham uning rivoji aynan shu yo'l bilan sodir bo'ladi. Amnionning devori homilaning teri yopqichiga o'tuvchi ektoderma va mezodermaning pariyetal varag'idan tashkil topadi. Amnionning vazifasi homila rivoji uchun suyuq suv muhitini hosil qilish, shuningdek, uni har xil tashqi ta'sirlardan himoya etish bilan belgilanadi. Seroz parda reptiliy va qushlarda muvaqqat nafas olish organi vazifasini bajaradi.

A llantois yoki siydik qopi. Qushlarda, reptiliy va sutemizuvchilarda uchraydi. Sariqlik xaltasi va amnionning taraqqiyoti bilan bir vaqtida ichak devoridan siydik qopi yoki allantoisdan iborat o'siq paydo bojadi va u homiladan tashqariga qarab o'sadi. Qushlarda u sezilarli darajada boiib, homiladan tashqariga qarab o'sadi. Qushlarda u sezilarli o'sib, seroz pardaga zinch tutashadi va 3 xil (oziqrantirish, nafas, ajratish) vazifalarini bajaradi.

Allantoisning devori seroz parda bilan birga oqsil atrofida vorsinkalar bilan

qoplanadi va ular oqsilning rezorbsiyasida (so‘rilishida) ishtirok etadi.

Havo kamerasi atrofida allantois devori va seroz pardaga qon tomirlari o‘sib kiradi va homilani nafas olishini ta’minlaydi. Allantois bo‘shlig‘ini todirib turuvchi suyuqlikda siydikning turli tuzlari boiishi uning ajratish vazifasi o‘rtacha bajarilayotganligidan dalolat beradi. Allantois sutevizuvchilarda xoriongacha o‘sib kiradi va tortma holicha qoladi. Uning devori bo‘ylab homiladan ona organizmiga qon tomirlar o‘tadi va u mexanik vazifani o‘taydi.

Xorion yoki vorsinkali parda — sutevizuvchilarga xos xususiyat. Uning devori trofoblastdan, homiladan tashqari mezodermadan iborat boiib, vorsinkalar bilan qoplangan va bu vorsinkalar butun xorionni qoplaydi. Ikkilamchi vorsinkalar xorionning hamma yuzasida emas, balki bachadon devorini shilliq qavati xorioniga tegib turadi, xolos. Xorionning shu qismi vorsinkali xorion deb yuritiladi. Xorionning boshqa yuzlarida vorsinkalar yo‘qoladi va bu joylar silliq xorion deyiladi. Vorsinkali xorion yoidosh hosil boiishida ishtirok etadi. Bachadonning shilliq qavati ham bu jarayonga yordamga keladi.

98

Ona organizmining vorsinkali xorion epiteliysi bilan tutashuvchi to‘qimaning holatiga qarab 4 xil yo‘ldosh mavjud.

1. Epitelioxorial yo‘ldosh yoki diffuz yoidosh. Bular, asosan ot va cho‘chqalarda uchraydi. Bunda homilaning xorion epiteliysi bevosita bachadon qavat epiteliysi butunligini saqlab qoladi. Xorionning vorsinkalari bachadon kiritmalarining ichiga kirib turadi va tug‘ilish paytida barmoqlar qoqopdan chiqqani kabi ajralib chiqadi.

2. Desmoxorial yo‘ldoshlarda xorion vorsinkalari birmun-cha masofada bachadon shilliq qavati epiteliysini yemiradi va xorial epiteliy bachadon biriktiruvchi to‘qimasini bilan birikadi. Biriktiruvchi to‘qima suyuqligidan xorionning vorsinkalari oziqani surib, homila qon tomir tizimiga o‘tkazadi. Bunday yo‘ldoshlar kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uchraydi.

3. Endotelioxorial yo‘ldoshlar yirtqich hayvonlarda uchraydi. Bu yo‘ldoshning vorsinkalari bachadon biriktiruvchi to‘qimasini yemirib, bachadon qon tomirlar devorini qoplab turgan endoteliyga yetib boradi. Ular ona qonidagi oziqa moddalarini qon tomirlar endoteliysi orqali oladi.

4. Gemoxorial yo‘ldosh murakkab tuzilishga ega boiib, primatlar va odam uchun xosdir. Bunda xorion bachadon shilliq qavati biriktiruvchi to‘qimasinigina emas, balki qon tomir devorini ham yemiradi va shu yemirilgan qismga qon quyiladi, keyinchalik u yerlarda bo‘shliqlar hosil bo‘ladi. Homila o‘zining rivojlanishi uchun zarur oziqani bevosita ona qonidan oladi.

99


B

81-rasm. Yo‘Idosh turlari. A-epitelioxorial yo ‘Idosh; B-desmoxorial yo ‘Idosh; V-endotelioxorial yo ‘Idosh; G-gemoxorial yo ‘Idosh.

1-trofoblast; 2-biriktiruvchi to ‘qima; 3-bachadon epiteliysi;

4-bachadon shilliq qavati; 5-qon chuqurchalari

100



82-rasm. Yo 'Idosh shakllanishida ona va bola to 'qimalarining munosabati. 1-xorion vorsinkasi; 2-sariqlik xaltasi; 3-amnion chekkasi; 4-kindik arqoni; 5-kindik venasi; 6-kindik arteriyasi; 7-qon harakati yo 'nalishi; 8-septa; 9-on a qoni; 10-spirallahgan arteriya; 11-xorion vorsinkasining asosiy shoxi; 12-bachadon arteriyasi va venasi; 13-seroza; 14-miometrii; 15-bachadon shilliq pardasining bezi

7-qon harakati yo 'nalishi; 8-septa; 9-on a qoni; 10-spirallahgan arteriya; 11-xorion vorsinkasining asosiy shoxi; 12-bachadon arteriyasi va venasi; 13-seroza; 14-miometrii; 15-bachadon shilliq pardasining bezi

III bo'lim

GISTOL OGIYA

To 'qima tarixiy (filogenetik) taraqqiyot jarayonida vujudga kelib, umumiyl tuzilishiga ega bo 'Igan, ta 'lum funksiyani bajarishga ixtisoslashgan hujayra va hujayra bo 'Imagen tuzilmalar majmuasidan iborat.

Tarixiy taraqqiyot natijasida 4 xil to 'qima vujudga keladi:

1. Epiteliy to'qimasi.
2. Ichki muhit to'qimasi.
3. Muskul to'qimasi.
4. Nerv to'qimasi.

Bulardan epiteliy va biriktiruvchi to'qima eng qadimiy hisoblanadi. Rivojlanishning so'nggi bosqichlarida hayvonlar tuzilishining murakkablashishi bilan birga mushak va nerv to'qimalari takomillashadi. Mushak to'qimasi harakat funksi- yasini bajarishda ishtirok etsa, nerv to'qimasi hamma to'qimalarni o'zaro bog'lab turadi. To'qimalarning hosil boiish jarayoni gistogenet deb yuritiladi.

Bu jarayon davomida har bir kurtakning hujayralari va hujayra shakliga ega bo 'Imagen tuzilmalari turli tomonga differensiallashadi (takomillashadi) hamda har bir to'qimaga xos bo 'lgan maxsus tuzilmalarni va xususiyatlarni o'zida

mujassamlashtiradi. To‘qimalar differensiallashishida 4 davr tafovuti mavjud: 1) ootipik differensirovka; 2) blastomer differensirovka; 3)kurtak differensirovka; 4)to‘qima differensirovka davrlari.

Ootipik differensirovka davrida bo‘lg‘usi kurtaklar prezump- tiv (lotincha presumptio - ehtimol) ehtimoliy qismlar holida tuxum hujayra sitoplazmasida yoki zigitada belgilanadi. Masalan, amfibiylarda bo‘lg‘usi xordomezoderma tuxum hujayra sitoplazmasining kulrang o‘roqchasi qismida joylashadi.

Blastomer differensirovkada bo‘lg‘usi to‘qima kurtaklari maydalanayotgan tuxum hujayralarining shu to‘qima rivojlanishini ko‘rsatadigan blastomerlari holida belgilanadi. Ko‘pchilik hayvonlarda maydalanishning ilk davridayoq bir-biridan farq qiladigan blastomerlar hosil bo‘ladi. Blastula

102

davrida blastula tubi, tomi va qirg‘oq qismlari blastomerlari bir-biridan farqlanadi.

Kurtak differensirovkasida bir xil bo‘lgan birlamchi homila varaqlari alohida tuzilishga ega chegaralangan qismlar tarkib topadi. Chunonchi, ektodermadan nerv tizimining kurtagi bo‘lgan shunday naychaning ajralib chiqishi bunga misol bo‘la oladi.

To‘qima differensirovkasi davrida to‘qima kurtaklari to‘qimaga aylanadi. Kurtakning to‘qimaga aylanishi — gisto- genez davrida har bir kurtakning hujayra va hujayra boimagan tuzilmalari turli yo‘nalishda ixtisoslashib, har bir to‘qima uchun xos boigan tuzilmalarni, fiziologik va kimyoviy xususiyatlarni hosil qiladi. To‘qima takomilining determinatsiyasi (lotincha determinare - belgilash), asosan, avloddan- avlodga o‘tuvchi irsiy belgilar bilan bogiiqdir.

To‘qimalarning o‘zgaruvchanligi. Har bir to‘qima o‘ziga xos tuzilishga va xususiyatlarga ega va shu bilan boshqa to‘qimalardan farq qiladi. To‘qimalarning o‘z xususiyatlarini saqlab turishi determinatsiya deb yuritiladi. Modda almashuvlar- ning o‘zgarishi to‘qimalarining maxsus funksiyalarining va morfo-funksional xususiyatlarning o‘zgarishiga yoki patologik o‘zgaruvchanlikka olib keladi. Bu jarayonda to‘qima o‘zining maxsus xususiyatlarini yo‘qotadi va shu to‘qimaga xos boimagan tuzilmalar hosil boiadi. To‘qimalardagi bunday o‘zgarishlar metoplaziya deyiladi. Metoplaziya turli patologik holatlarda va eksperimentlar ta’sirida paydo boiishi mumkin.

TO‘QIMALAR KLASSIFIKATSIYASI

Adabiyotlarda juda ko‘p klassifikatsiyalar keltirilgan boiib, ular asosan to‘qimalarning ayrim xususiyatlariga mos ravishda tuzilgan. Hozirgi vaqtida klassifikatsiya, asosan, to‘qimalarning morfolofunksional xususiyatiga qarab klassifikatsiyalarini va unga ko‘ra to‘qimalar 5 guruhgaga boiinadi.

1. Epiteliy. Epiteliy to‘qimasi o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega boiib, hujayralari zich, ya’ni qatlam-qatlam holda joylashgan.

103

Bu to‘qima orqali organizm bilan tashqi muhit o‘rtasida moddalar almashinushi kechadi. Bundan tashqari, himoya qilish, so‘rish, sekretsiya va ekskretsiya qilish xususiyatlariga ega boigan epiteliylar ham bor. Epiteliy to‘qimasi embrion rivojlanish davrida organizmning uchala varag‘idan (ektoderma,

entoderma va mezodermadan) hosil bo‘ladi va o‘zi qoplab turgan organ va tizimlarni, ko‘p hujayrali hayvonlarning tashqi va ichki epidermis qavatini, ovqat hazm qilish tizimi, havo yo‘llari, siyidik va tanosil yo‘llari shilliq pardasini, seroz pardalarini va shuningdek, organizmlardagi bir qator bezlarning o‘z vazifasini bajarishida ishtirok etadi. Bordi-yu, shu organ yoki tizimlar, hayvonlarning teri yoki shilliq pardalari shikastlansa (jarohatlanib nekrozga uchrasa), epitelizatsiya so- dir boiib, o‘rnida yangi epiteliy to‘qimasi hosil boiadi. Bu uning himoyalash xususiyatlaridan biridir.

2. Qon va limfa. Bular suyuq holda boiishiga qaramay, to‘qimalarga qo‘sib o‘rganiladi. Chunki, ular tarkibi jihatidan suyuq hujayralararo moddadan va unda erkin suzib yuruvchi to‘qima hujayralaridan tashkil topgan. Qon va limfa tomirlarni toidirib turadi. Moddalar almashinuvida o‘ziga xos muhim vazifalarni bajaradi. Organizm uchun zarur boigan moddalami yetkazib berish bilan birga moddalar almashinuvi jarayonida hosil boigan chiqindi mahsulotlami ajratish organlari orqali tashqariga chiqarishda ishtirok etib, kislorod almashinuvida faol qatnashadi. Shu bilan birga barcha organlar o‘rtasida gumoral vazifani o‘taydi, ya’ni organizmga gormonlar, mineral tuzlar va vitaminlar yetkazib beradi.

3. Biriktiruvchi to‘qima. Bunga siyrak biriktiruvchi to‘qima, tog‘ay va suyak to‘qimalari kiradi. Biriktiruvchi to‘qimalarning asosiy morfologik o‘xshashligi, ular to‘qima hujayralardan va tolali hujayralararo moddadan tashkil topganligidadir. Bu to‘qimalar organizmda trofik, plastik, himoya, mexanik va tayanch vazifalarini bajaradi.

Bu o‘rinda shuni qayd qilish, kerakki, qon limfa va biriktiruvchi to‘qimalar embrional rivojlanish davrida uning mezenxima hujayralaridan hosil boiadi. Shuning uchun ayrim qoilanmalarda bu to‘qimalar mezenxima to‘qima deb, bir guruhga qo‘sib ham o‘rganiladi.

104

4. Muskul to‘qimasi. Organizmda morfologik tuzilishi va joylashgan o‘rniga ko‘ra ikki xil, ya’ni silliq va ko‘ndalang yo‘lli muskul to‘qimalari uchraydi. Silliq muskul to‘qimasi duksimon muskul hujayralaridan, ko‘ndalang yo‘lli muskul to‘qimasi silindrsimon muskul tolachalaridan tarkib topgan. Muskullar- ning asosiy vazifasi organizmning tashqi va ichki organlari harakatini ta’minlashdan iborat.

Silliq muskul asosan ichki organlarning muskul qavatini tashkil qiladi va ritmik holda qisqarib turarkan, hech qachon charchamaydi, odam yoki hayvon ixtiyorisiz harkatlanib turadi.

Ko‘ndalangyo ‘lli muskul asosan skelet muskulaturasini tashkil etib, tez qisqarib, tez charchaydi. Qisqarish yoki yozilish ham ixtiyoriy yuzaga keladi. Ammo yurak muskuli ham ko‘ndalang yo‘lli muskul tolasidan tashkil topganiga qaramay, silliq muskullarga o‘xshab ixtiyorsiz qisqarish xususiyatlariga ega.

Silliq muskullar mezenximadan, ko‘ndalang yoili muskullar mezodermadan rivojlanadi.

5. Nerv to‘qimasi. Nerv hujayralari asosan neyronlar bilan neyroglイヤdan tashkil topgan. Neyronlarning vazifasi tashqi va ichki ta’sirni qabul qilib, uni bir neyronidan ikkinchi neyronga o‘tkazishdan iborat. Neyrogliya

hujayralarining vazifasi ham nerv hujayralarining vazifasi bilan uzviy bog‘langan boiib, trofik, mexanik, tayanch va fagositoz vazifalarni bajaradi. Nerv to‘qimasi organizmining embrional rivojlanishi davrida embrionning ektoderma hujayralaridan ajralib chiqadi va rivojlanadi. Neyrogliya hujayralari mezenximadan tarqaladi.

EPITELIY TO‘QIMASINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI VA KLASSIFIKATSIYASI

Epiteliy to‘qimasi chegaralovchi to‘qima bo‘lib, tana yuzasini, hazm qilish nayining ichki yuzasini qoplab turadi. Jigar, me‘da osti bezi va shuningdek, organizmdagi boshqa ko‘pgina bezlaming tarkibiga kiradi. Seroz pardalar ham epiteliy bilan qoplangan. Epiteliy to‘qima himoya, sekretor, so ‘rish va ekskretor funksiyalarini bajarishga moslashgan. Ichak bo‘shlig‘ida fermentlar ta’sirida parchalangan oqsil, uglevod, yog‘lar monomerlar holida hamda

105

*suv va mineral tuzlar ximus tarkibidan ichak epitelial hujayralari orqali qon yoki limfaga so‘riladi. Ular hujayra va hujayralararo moddani hosil qilishda yoki energiya manbai sifatida ishlatiladi. Modda almashish natijasida hosil bo‘lgan qoldiq mahsulotlar ham epiteliy hujayralar orqali organizmdan chiqariladi (ekskretsiya). Ekskretsiya asosan o‘pkada (karbonat angidrid va qisman suv ajraladi), buyrakda (mochevina, siydiq kislota ajraladi), terida (ter bilan suv va 5-10% mochevina ajraladi) kechadi.

Epiteliy to‘qimasi chegara to‘qima bo‘lganligi uchun u epiteliy ostida joylashgan to‘qimalarni turli ta’sirlardan (ximik, mexanik) himoya qiladi. Jarohatlanmagan teri turli zaharli moddalarni va mikroblarni o‘tkazmaydi. Epiteliy to‘qimasi sekret ishlab chiqarish qobiliyatiga ham ega. Me‘da shilliq qavatining ta’sirlardan saqlasa, me‘da-ichak nayi yo‘li bo‘ylab joylashgan epiteliy hujayralari esa oziq moddalarning parchalanishida va so‘rilihida muhim o‘rin tutadi.

Epiteliy to‘qimasi embrionning rivojlanish davrida uchala homila varaqalaridan (ekto, ento, va mezoderma) hosil boiadi. Ilk bor hosil boigan epiteliy hujayralari homilaning rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi. U orqali homila va ona organizmi o‘rtasida modda almashish ta’milnadi.

Epiteliy to‘qimasining kelib chiqishi va bajaradigan funksiyalarining har xil boiishiga qaramasdan boshqa to‘qimalardan farq qiladigan umumiy belgilari mavjud.

1. Epiteliy to‘qimasi zinch joylashgan (plast holida) hujayralar to‘plamidan iborat boiib, hujayralararo modda boimaydi. Uning bunday joylashishi himoya vazifasini bajarishga sharoit tug‘diradi.

2. Epiteliy to‘qimasi bazal membrana ustida joylashganligi chegarada joylashganligi sababli epiteliy hujayralarida qutbli differensiallanish mavjud. Epiteliy hujayralarining apikal va bazal qismlarida tafovut mavjud. Bu qismlar tuzilishi va funksiyasi bilan farq qiladi.

3. Epiteliy to‘qimasida qon tomirlar bo‘lmaydi, bazal membrana orqali biriktiruvchi to‘qimadan diffuz yo‘l bilan oziqlanadi.

Epiteliy kelib chiqishi va funksiyasi jihatidan ustki qavatda yotadi. Uning ostida esa biriktiruvchi to‘qima joylashgan.

4. Epiteliy to‘qimasi yuqori darajada qayta tiklanish qobiliyatiga ega. Bu to‘qimalar bir necha marta klassifikatsiya qilingan, shulardan keng tarqalganlari morfofunktional va filogenetik klassifikatsiyalardir.

Filogenetik klassifikatsiya bo‘yicha epiteliy to‘qimasi 5 ga boiinadi: 1) teri epiteliysi; 2) ichak epiteliysi; 3) buyrak epite- liysi; 4) selomik epiteliysi; 5) ependimoglia epiteliy.

Terining epiteliy to‘qimasi ko‘p qavatli boiib, himoya funksiyasini bajaradi. Ichakning epiteliy to‘qimasi bir qavatli bo‘lib, himoya va so‘rish funksiyasini o‘taydi. Buyrakning epiteliy to‘qimasi bir qavatli boiib, modda almashinuvida hosil bo‘lgan organizm uchun kerak bo‘lmagan oxirgi mah- sulotlarning chiqarilishida ishtirok etadi. Selomik epiteliy to‘qima bo‘sqliqlarni qoplashdan tashqari, jinsiy hujay- ralarning hosil bo‘lishida ham qatnashadi. Ependimoglia epiteliy to‘qima nerv naychasidan rivojlanib, sezgi organlari tarkibiga kiradi, miya qorinchalarini va orqa miya kanalining devorini qoplaydi.

Morfofunktional klassifikatsiya bo‘yicha epiteliyning quyidagi turlari farqlanadi.

/yassi

/bir qavatli bir qatorli /jcubsimon epiteliy to‘qimasiko‘p qatorlr^silindr^simon

\ ^—yassi muguzlanadigan

ko‘p qavatli yassi muguzlashmaydigan

~ o‘zgaruvchan

Epiteliy hujayralarining maxsus tuzilmalari ularning funksional xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Hujayralar mikrovorsinka, kiprikcha, xivchin, tonofibrillalar, hujayra bazal qismidagi membrananing botiqlariga ega boiadi.

Sanab o‘tilgan tuzilmalarning ko‘pchiligi elektron mikroskopdagina yaxshi ko‘rinadi.

- Mikrovorsinkalar hujayralarning basal membranasi bilan bogianmagan, hujayra erkin yuzasidagi sitoplazmaning mayda o‘simtalaridir. Bitta hujayra tarkibida ularni 3000 gacha sanash mumkin. Mikrovorsinkalarining bunday ko‘p miqdorda boiishi

hujayraning ish yuzasini birmuncha kattalashtiradi. Mikro- vorsinkalar so‘rilish jarayonini ta’minlaydigan ichakning hujayralarida mavjud.

Kiprikchalar-tebranuvchi epiteliy va jinsiy yo‘llar epiteliysi hujayjalarning erkin yuzasidagi ingichka harakatchan o‘simtalardir. Kiprikchalar hujayra sitoplazmasining o‘simtalari bo‘lib, ulardan turi o‘zgarib qolgan sentriolalar bilan bog‘langan ipchalar o‘tadi. Kiprikchalar doimo va tez qisqarib turadi, shunga ko‘ra jinsiy yo‘llardagi jinsiy hujayralarning va nafas yo‘llaridagi chang zarrachalarining siljishi bilan bogiiq bo‘lgan suyuqlik harakati yuzaga keladi.

Xivchinlar — erkak jinsiy hujayrasinning harakat apparati bo‘lib, o‘z tuzilishiga ko‘ra kiprikchalarni eslatadi.


Tonofibrillalar — hujayra sitoplazmasidagi ipsimon tuzilma. Ular ingichka ipchalar — oqsil molekulasing zanjiridan tuzilgan. Tonofibrillalar epiteliy hujayrasining pishiqligini ta’minlaydi.

Buyrak naychalarini, so‘lak bezlari va o‘z funksiyasiga ko‘ra, katta bazal yuzaga ehtiyoji bo‘lgan hujayralarga membranasi- dagi botiqliklar xosdir.

Bu epiteliyning barcha hujayralari bevosita basal membra- nada yotadi va ular tarkibidagi hujayralarning balandligi hamda tuzilishiga ko‘ra epiteliy bir qancha turga bo‘linadi.

Bir qavatli (bir qatorli) yassi epiteliy — mezoteliy. Uning hujayralari yassi shaklda boiib, bir, ikkita yoki uchta yadro tutadi. Mezoteliy mezodermaning hosilasi bo‘lib, yurak oldi xaltachasi, plevra varaqlari, qorin pardasi, charvi yuzalarini qoplaydi va chegaralaydigan hamda sekretor vazifalarini bajaradi. Mezoteliy silliq yuza hosil qilib, yurak, o‘pka, ichakning bo‘s hilig‘ida erkin siljishni ta’minlaydi va organlarning o‘zaro bitishmalar hosil qilishiga to‘siq hisoblanadi. Bitishmalar epiteliy shikastlanganda paydo bo‘ladi. Tananing ikkilamchi bo‘shliqlaridagi suyuqlik bilan epiteliy yotgan biriktiruvchi to‘qimadagi qon tomirlar o‘rtasidagi modda almashinushi mezoteliy orqali ro‘y beradi.

108



83-rasm. Bir qavatli yassi epiteliy x400 ko‘z pardasi epiteliysidan olingan.
1-yassi epitelial hujayralar; 2-hujayralar oralig‘i;

3-pigment kiritmali sitoplazma; 4-yadro joyi

Bir qavatli kubsimon epiteliy. Uning hujayralari deyarli bir xil oichamda, kubsimon bo‘lib, markazida yumaloq yadrosi mavjud. Bu epiteliy uchala homila varaqalaridan rivojlanadi va buyrak naychalarida, bezlarning mayda chiqaruv yoilarida, o‘pkaning mayda bronxlarida joylashadi. Buyrak naychalarida epiteliy so‘rish funksiyasini bajaradi. Bez chiqaruv yo‘llarida va bronxlarda kubsimon epiteliy asosan chegaralash funksiyasini bajaradi.

109

Bir qavatli silindrsimon yokiprizmasimon epiteliy. Bu bir sathda joylashgan oval yadroli prizma shaklidagi hujayralar qatlamicidir. Epiteliy asosan entoderma

hosilasi boiib, me'da- ichak yooi, o't pufagi hamda jigar, me'da osti bezi chiqaruv yoilarining ichki yuzasini qoplaydi.

U joylashgan o'rniga qarab turli funksiyalarni bajaradi, tuzilish xususiyatlari shunga yarasha boiadi.


Ichak va o't pufagidagi bunday epiteliy — hoshiyali epiteliy deyiladi, chunki hujayralarning apikal yuzasida sitoplazmaning ko'p sonli o'simtalari — mikrovorsinkalardan iborat hoshiya mavjud. Bu hoshiya hujayraning yuzasini oshirib, so'rish jarayonini ta'minlaydi. Bundan tashqari, unda moddalarning hujayra ichiga kirishini ta'minlovchi fermentlar mavjud. Ichak epiteliysida boshqacha epiteliy hujayrasi — shilimshiq ishlovchi qadahsimon hujayralar ham uchraydi. Me'da epiteliysida ham shilimshiq ishlovchi prizmatik hujayralar joylashadi. Ularning apikal uchi shu qismda yigilib qolgan shilimshiq sekret hisobiga bir oz bo'rtib chiqqan boiadi. Bu tuzilma ham bezli (sekretor) epiteliy deb ataladi. Me'da va ichak epiteliysini qoplagan shilimshiq uni mexanik va kimyoviy ta'sirlardan saqlaydi. Jigar va me'da osti bezi chiqaruv yoilarining silindrsimon epiteliysi asosan chegaralovchi funksiyani bajaradi.

Tuxum nayi va bachadonning ichki yuzasini qoplovchi, mezodermaning hosilasi boigan silindrsimon epiteliy alohida e'tiborga loyiq. U jinsi hujayralarning harakatini ta'minlovchi mikrovorsinkalar va tebranuvchi kiprikchalarga ega.

Bir qavatli ko'p qatorli tebranuvchi epiteliy. Bu epiteliyning hujayralari turli balandlik va shaklga ega, shunga ko'ra ularning yadrolari bir necha qator hosil qilib, turli balandlikda joylashadi. Bu epiteliy hujayrasida tebranuvchi kiprikchalar mavjud. Epiteliyda uch turdag'i: tebranuvchi, uzun va kalta kiritma hujayralar tafovuti mavjud. Kiritma hujayralar bazal membranaga o'zlarining kengaygan bazal qismi bilan, tebranuvchisi — ingichkalashgan qismi bilan yotadi. Kiritma hujayralar epiteliy yuzasiga qadar yetib bormaydi. Bu hujayra turlaridan tashqari epiteliyda qoplama parda hosil qilib shilimshiq ishlab chiqaruvchi qadahsimon hujayralar ham


110

uchraydi. Epiteliyning bu turi endodermaning hosilasi boiib, havo yo'llarini qoplaydi. Tebranuvchi epiteliy chegaralovchi va himoya funksiyasini bajaradi. Kipriklar harakati yordamida epiteliy yuzasidagi chang zarrachalarini asta-sekin burun bo'shlig'iga haydaydi.




84-rasm. Bir qavatli kubsimon epiteliy. x400.1-kanalchalar bo'shlig'i; 2-

kubsimon hujayralar; 3-bazal membrana; 4-biriktiruvchi to ‘qima va tomirlar




85-rasm. Bir qavatli silindrsimon epiteliy x 400. 1-silindrsimon hujayralar; 2-bazal membrana; 3-biriktiruvchi to ‘qima va tomirlar

111



86-rasm. Bir qavatli xilpilllovchi (mersal) epiteliy x600.

1-silindrsimon hujayra; 2-hujayra kipriklari; 3-bazal membrana; 4-biriktiruvchi to ‘qima



87-rasm. Ingichka ichak epiteliysining bir qavatli silindrsimon hujayrasi x600. 1-silindrsimon epithelial hujayra; 2-so ‘ruvchi kayemkalar; 3-yadro; 4-qadahsimon bezli hujayra; 5-bazal membrana; 6-biriktiruvchi to‘qima

112

KO‘P QAVATLI YASSI EPITELIY

Ko‘p qavatli epiteliy asosan himoya funksiyasini bajaradi, shuning uchun

ham u tananing ko‘proq tashqi ta’sirlarga uchraydigan joylarini: terining yuzasini, og‘iz bo‘shlig‘ini, qizilo‘ngach, ko‘zning muguz pardasi, buyrakning kosachasi, siydiq pufagi, siydiq chiqaruv yoii va qinni qoplaydi. Ko‘p qavatli yassi epiteliy qavatma-qavat joylashgan hujayralardan tuzilgan, uning faqat bazal qavatidagi hujayralari bazal membranada yotadi. Ko‘p qavatlari epiteliy 3 turga bo‘linadi: 1) ko‘p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy; 2) ko‘p qavatli yassi muguzlanadigan epiteliy; 3) o‘zgaruvchan epiteliy.

Ko‘p qavatli muguzlanmaydigan epiteliy. Bu epiteliy og iz bo‘shlig‘ining ichki yuzasini, qizilo‘ngachning shilliq qavatini va ko‘z muguz pardasini qoplaydi. U quyidagicha tuzilishga ega. Bazal membrana ustida silindrsimon shakldagi bazal qavat hujayralari yotadi. Uning ustida bir necha qavat joylashgan ko‘p qirrali hujayralarni ko‘ramiz. Bu qavat tikansimon hujayralar qavati deb yuritiladi. Tikansimon hujayralar orasida hujayralararo ko‘prikchalar sitoplazmatik o‘simgalardan tashkil topganligi aniqlangan. Bu o‘simgalar bir- biriga zinch tegib turadi va bu yerda desmosomalar uchraydi. Desmosomalar hujayralarni o‘simgalar orqali o‘zaro bog‘lab turadi. Bazal hujayralarni va o‘simgalni hujayralarning sitoplazmasida spetsifik tuzilmalar

- tonofibrillalar joylashgan. Tonofibrillalar ingichka (5-6nm)tonofilamentlardan (yunoncha tonos - tarang, qattiq; fi- lum-ip) tashkil topgan boiib, oqsil tabiatiga ega. U basal hujayralarda epiteliy yuzasiga perpendikulyar, yuqori qavat hujayralarida hujayra yuzasiga parallel yotadi va ularda tayanch funksiyasini bajaradi. Epiteliyning eng yuza qavatida yassilashgan hujayralar joylashgan. Bu hujayralar o‘zining hayot siklini tugatib muguzlanmay tushib ketadi, shuning uchun ham bu muguzlanmaydigan epiteliy deyiladi.

Ko‘p qavatli yassi muguzlanadigan epiteliy. Bu epiteliy terining epidermis qavatini tashkil qiladi. U bir necha qavat joylashgan hujayralardan tuzilgan. Morfofunktional xususiyat-

113

larga qarab 5 ta qavat farqlanadi: basal,tikansimon hujayralar qavati, donador, yaltiroq va muguz qavatlar.

Bazal va tikansimon hujayralar qavati muguzlanmaydigan ko‘p qavatli yassi epiteliydagи birinchi va ikkinchi qavatlarning tuzilishiga o‘xshaydi. Bu epiteliyda yana donador, yaltiroq, muguz qavatlar mavjud.

Donador qavat sitoplazmasida keratogialin donachalar tutuv- chi yassilashgan hujayralardan tashkil topgan. Keratogialin fibrilyar oqsil bo‘lib, u keyinchalik keratinga aylanishi mumkin.

Yaltiroq qavat asosan kaft va tovon terisida uchraydi. Preparatlarda yaltiroq, bir xil bo‘yalgan lenta shaklida ko‘rinadi. Hujayralar yassi, chegaralari aniq ko‘rinmaydi, sitoplazmasida doidin oqsil moddasi bo‘ladi. Yaltiroq qavat hujayralari muguz tanachalar hosil bo‘lishidagi bir holatdir. Hujayralarning muguz tanachalariga aylanishi hujayralarining nobud bo‘lishi bilan boradi. Yadro va sitoplazma organellalari parchalanadi va yaltiroq qavat bor joyda eloidindan, boshqa qismlarda esa tonofibrilla materialidan keratin hosil bo‘ladi.

Muguz qavat yassi muguzlangan hujayralardan tuzilgan. Ularning tarkibida havo pufakchalarini va muguz modda bo‘ladi. Yassi muguzlangan hujayralar doimo


tushib, uning o‘rniga pastki qavatdagi hujayralar siljib keladi. Buning hisobiga epiteliy ko‘payib differensiallashadi hamda muguzlanish holatiga uchraydi va tushib ketadi, uning o‘rnini boshqa hujayralar to‘ldiradi. Bu jarayon fiziologik regeneratsiya deyiladi.

O‘zgaruvchan epiteliy. O‘zgaruvchan epiteliy siydik yo‘llarining buyrak kosachasi va jomi, siydik pufagining ichki yuzasini qoplab turadi. Bu organlarning siydik bilan to‘lgan va toimaganligiga qarab epiteliy qavati o‘z shaklini o‘zgartirib turadi.

Organ siydikka to‘lib, devori taranglashganda epiteliy yupqalashadi, organ qisqarganda esa epiteliy hujayralarining bir- birining ustiga chiqishi natijasida qalinlashadi. Yuqoriga ko‘tarilgan hujayralar bazal membrana bilan aloqani saqlab qoladi. Organ qayta taranglashganda epiteliy hujayralari o‘z joyiga tushadi, yassilanadi, epiteliy hujayralarining qavati esa o‘zgarmaydi. O‘zgaruvchan epiteliyda 3 zonani farq qilish

114


mumkin: basal, oraliq va yopqich zonalar. Basal zona mayda mitoz yo‘li bilan ko‘payadigan hujayralardan iborat. Bu kambial, differensiallashmagan, sitoplazmasi bazofil bo‘yala- digan hujayralardir. Hujayra shakli turlicha bo‘lib, chegarasi aniq ko‘rinmaydi. Oraliq zona hujayralari bir yoki bir necha qavat noto‘g‘ri yoki noksimon hujayralardan iborat. Yopqich zona hujayralari yirik amitoz boiinishi natijasida ko‘p yadroni hujayralarni hosil qiladi. Piramasimon. Bu uch zona hujayralari organ siydik bilan toiganda taranglashadi. Yopqich qavat hujayralari ham yassilanib, yirik hujayralarni yuzaga chiqaradi.



88-rasm. Ko‘p qatorli epiteliy chizmasi. 1-hujayra kipriklari; 2-qadahsimon bezli hujayra; 3-kiprikli hujayra; 4-uzun oraliq hujayra; 5-kalta oraliq hujayra; 6-bazal membrana;

7-biriktiruvchi to ‘qima


115



89-rasm. Siydk pufagining o'zgaruvchan epiteliysi





90-rasm. Kiprikli epitelyi hujayra. Elektron-mikrofotogramma xlOOOO. 1-distal qism; 2-ikki hujayra chegarasi; 3-oxirgi ushlagich; 4-mitoxondriy; 5-bazal tanacha; 6-kiprikchalar



91-rasm. Hujayra kipriklari. A-kiprikchaning ko'ncialang kesimi x96000; b-kiprikchaning uzunasiga kesimi — x68000. 1-sitolemma; 2-kiprik sitoplazmasi; 3-mikrofibrillar; 4-markaziy mikrofibril; 5-bazal tanacha; 6-hujayraning distal bo'limi

117





92-rasm. Ko 'p qavatli yassi epiteliy x400. 1-yuza qavat hujayralari; 2-o'rtal qavat hujayralari; 3-hazal qavat hujayralari; 4-bazal membrana; 5-biriktiruvchi to'qima

93-rasm. Ko 'p qavatli yassi shoxlangan epiteliy x300. 1-shox qavat; 2-yaltiroq qavat; 3-donali qavat; 4-tikanakli qavat; 5-bazal qavat; 6-bazal membrana; 7-ter bezini chiqaruv yo 'li; 8-tolali birikturuvchi to'qima

118

BEZLAR

Organizmdagi bezlar epiteliy hujayralaridan tashkil topgan boiib, sekret ishlab chiqarish vazifasini bajaradi.

Ekzokrin bezlar joylashishi va tuzilishiga ko'ra: bir hujayrali va ko'p hujayrali boiadi.

Bir hujayrali (endoepitelial) bezlar. Bularga ichak, burun, kekirdak va bronxlarning shilliq pardasi hujayralari oraligidagi qadahsimon hujayralar kiradi. Qadahsimon hujayralarning apikal qismida shilliq sekret to'planadi. Yadro esa hujayraning basal qismida joylashadi.

Ko'p hujayrali ekzoepitelial bezlar oddiy va murakkab xillarga boiinadi. Oddiy bezlarda sekret olib chiquvchi nay tarmoqlanmagan bitta naydan iborat boiib, uning oxirida sekretor qismi joylashadi. Bunga me'da tubi bezi va bachardon bezi kiradi. Me'daning pilorik bezini oddiy naysimon tarmoqlangan bezga kiritamiz. Bezlar epiteliy hujayralaridan tuzilgan boiib, atrofini biriktiruvchi to'qima va qon tomirlar o'rabi turadi. Murakkab bezlarning sekret olib chiqaruvchi naylari tarmoqlangan boiib, naychalarining oxirgi bez pufakchalarini hosil qilib tugaydi. Naylar va bezning oxirgi qismi epiteliy hujayralardan tashkil topgandir. Barcha hujayralar basal membrana ustida yotadi. Basal membrana bilan epiteliy hujayralari orasida mioepitelial hujayralar joylashadi.

Sekretning tarkibiga qarab oqsilli, shilliq va aralash sekret ishlovchi turlarga boiinadi.

Bez hujayralarida ishlangan moddalar — gormonlar bevosa qonga va limfaga so'rilib o'tib, organ va to'qimalarning o'sishini, takomillashish jarayonlarini, modda almashinuvini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Sekret qay yo'1 bilan chiqishiga qarab bezlar merokrin, apokrin va golokrin

tipdag'i bezlarga boiinadi.

Merokrin tipdag'i bezlar. Bu tipdag'i bez hujayralarining sitoplazmasi sekret ishlab chiqarishda hech qanday o'zgarishga uchramaydi. Bularga: so 'lak bezlari, me 'da osti bezi va boshqalar kiradi.

119

Apokrin tipdag'i bezlar. Bu bez hujayralari sekret ishlab chiqarish jarayonida uning bir qismi (apikal qismi) erib sekretga aylanib ketishi bilan ifodalanadi. Bunga sut bezlari kiradi.


Golokrin tipdag'i bezlar. Bu bezlarning hujayralari yemirilib, sekretga aylanadi. Nobud bo'lgan hujayralar o'rni bez oxirgi bo'limining bazal membranasida joylashgan kambial (yosh) hujayralarning ko'payishi hisobiga to'ldirib boriladi. Yog' bezlari shu tipdag'i bezlarga misol bo'la oladi.

19

3

4

i



94-rasm. Ekvokrin bezlarining tuzilishi va sekret ishlash tiplari (chizma). A-epiteliy, B-biriktiruvchi to'qima:


1-oddiiy tarmoqlangan naysimon bez; 2-oddiiy tarmoqlanmagan alveolyar bez; 3-tarmoqlangan naysimon bez; 4-oddiiy alveolyar bez; 5-alveolyar-naysimon murakkab bez; 6-merokrin sekretli bez;

7-apokrin sekretli bez; 8-golokrin sekret ajralishi: a-o 'suvchi qavat hujayralari; b-hujayraning o'sish davri; v-parchalanayotgan hujayra


120

95-rasm. Oddiy shoxlangan naysimon bez. 1-chuqurcha; 2-shilimshiq parda epiteliysi; 3-bez bo'yinchasi; 4-bez tanasi; 5-bez tubi; 6-9-oraliq, qo'shimcha, bosh va yordamchi hujayralar; 10-12-biriktiruvchi to'qimalar

121



96-rasm. Apokrin tipli sut bezi alveolasi. 1-bezli alveola (ishlamagan). a-bo'shlig'i; b-postprizmatik bezli epiteliy; d-yadro; e-biriktiruvchi to'qima. 2-bezli alveolalaktatsiya davrida: a-alveola bo'shlig'i; b-sekretsiyalovchi epitelial hujayralar; d-yadro; e-suyuqlik tomchisi; f-apikal oxirida tushib qoluvchi hujayra; g-mioepitelial hujayra; 3-biriktiruvchi to'qima



97- rasm. Murakkab shoxlangan alveolyar bez x800. 1-ko ‘p qavatli yassi shoxlanmagan epiteliy; 2-murakkab shoxlangan alveolyar bez hujayrasi; 3-bezli hujayralar; 4-chiqaruv yo ‘li

123

TAYANCH-TROF1K TO‘QIMALAR

Shu nom bilan birlashtirilgan to‘qimalarning butun guruhi mezenximadan taraqqiy etadi. Pushtning mezenxima hujayralari o‘z taraqqiyotida yumaloqlashishi va suyuq yoki yarim suyuq oraliq moddaga joylashgan erkin harakatchan hujayralarga aylanishi mumkin. Shu bilan birga taraqqiyot jarayonida anchagina zinch hujayralararo modda (tolalar va asosiy modda) ishlab chiqaruvchi kam harakatchan yoki harakatsiz hujayralar paydo bo‘lishi mumkin. Natijada, har xil turdag'i tayanch biriktiruvchi to‘qima hosil bo‘ladi. Shakllangan biriktiruvchi to‘qima hujayralar va yaxshi rivojlangan hujayralararo moddadan iborat. Hujayralar va tolalarning soni, ko‘rinishi, shuningdek, biriktiruvchi to‘qimaning har xil turlarida asosiy moddaning miqdori va tarkibi ham ularning funksiyalariga ko‘ra, o‘zaro farq qiladi.

Hujayralararo modda butunlay hujayraga bog‘liq: u hujayralardan hosil bo‘ladi, ular yordamida modda almashinushi va rezorbsiya ro‘y beradi. Shuning bilan birga hujayralararo modda mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, biror to‘qima

turinnig xususiyatini aniqlab beradi. Masalan, skelet to‘qimasining pi- shiqligi ko‘p tomondan hujayralararo moddaning xususiyatiga bog‘liq. Bu to‘qimada bir qator kasalliklar, masalan, revmatizm patogenezining asosiy holatlari ro‘y beradi.

Tayanch trofik to‘qima hamma joyda mavjud, doimo epiteliy tagida yotadi, genetik va funksiya jihatidan bog‘liq bo‘lgan tomirlarni o‘raydi (to‘qimaning trofik ta’sirini tomirlar komponentisiz qarab bo‘lmaydi).

Tayanch - trofik to‘qima funksiyalari: 1) trofik — modda almashinuvidagi ishtiroki, 2) himoya — biriktiruvchi to‘qima hujayralarining fagositoz qilish va immunitet hosil qilish xususiyati, 3) mexanik (tayanch) — biriktiruvchi to‘qima bog‘lamlar, paylar, tog‘ay, suyak va tomirlar bilan ko‘p organlarning asosini hosil qiladi. Biriktiruvchi to‘qimaning rektikulyar to‘qima turi qon yaratuvchi organlar asosini hosil, qilib, qon yaratilishi jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Biriktiruvchi to‘qima jarohatlarining bitishida faol ishtirok

124

etadi. Yuksak regenerator qobiliyatiga ega boigan bu to‘qima boshqa to‘qimalarning jarohatlanishi oqibatida hosil boigan nuqsonlar o‘rnini toidira oladi (biriktiruvchi to‘qimali chandiq hosil boiadi).

Biriktiruvchi to‘qima juda ko‘p o‘zgaruvchi shakllarga ega, shuning uchun ular funksiyasining spetsifikasiga asoslanibgina biriktiruvchi to‘qima turlarining umumiy klassifikatsiyasini berish mumkin.

Bunday boiinishing shartli ekanligining qayd qilmoq lozim. Masalan, tayanch to‘qimalar organizm uchun zarur mineral tuzlar deposi hisoblanib, maxsus- trofik funksiyani bajaradi.

QON

Qon shaklli elementlardan va oraliq modda — plazmadan iborat. Qon odam organizmida tana massasining 7% ga yaqinini tashkil etadi. O‘rtacha ogirlikdagi odamda 4,5- 5,5 qon boiadi. Sogiom organizmda shaklli elementlarning ma’lum miqdori va plazmaning kimyoviy tarkibi muayyan doimiylikda saqlanib turadi.

Qonning funksiyalari: 1) kislородни о‘pkadan to‘qimalarga yetkazish, karbon kislota va boshqa almashinuv mahsulotlarini chiqarish; 2) ichakda so‘rilib qonga o‘tgan va to‘qimalarga yetkazilishi lozim boigan oziq moddalarni tashish; 3)himoya funksiyasi (organizmga tushgan mikroblarning oq qon tanachalari bilan fagositoz qilinishi, plazmaning toksinlarini, yog‘, oqsillarni va boshqalarni zararsizlantirishi); 4)organlar faoliyatining gumoral regulyasiyasi, chunki qon oqimi bilan turli bezlarning organlar va to‘qimalarning hayot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan gormonlari tashiladi.

125

QON

Г ”

QON SHAKLLI ELEMENTLARI

"1

QON PLAZMASI

Eritrotsitlar Leykositlar Qon plastmkalari

(1 mm³da ayollarda 4,5-5, (1mm³da 6-8 ming) (trombositlar 1mm³da erkaklarda 5=5,5mln)

i

Granulositlar

И-Ј-.

1

Neytrophillar Eozinofillar (2-5%)

(65-70%)

r_h

yosh

(0-0,5%)

tayoqcha

yadroli

(2-4%)

100%

Bazofillar

00,5-1%

^ , segment yadroli (60-65%)

200- 400 ming)

Agranulositlar (donasiz leykositlar)

Г

Limfosit

(20-28%)

Monositlar

(6-8%)

Qon, limfa va to‘qima suyuqligi ma’lum fizik-kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, oziq moddalar va modda almashinuv mahsulotlarini tutadi hamda umumiyligida hayot faoliyati uchun lozim bo‘lgan shart- sharoitlar yaratadi.

Qon plazmasi (qonning hujayralararo moddasi)- 90%ga yaqin suv va 10% ga yaqin quruq qoldiq tutgan rangsiz yopishqoq suyuqlik. Plazmada oqsil, yog‘, uglevodlar va boshqa organik hamda mineral birikmalar mavjuddir. Plazmada oqsillardan albumin, globulinlar va qon ivish jarayonida katta ahamiyati bo‘lgan fibrinogen boiadi. Qonda to‘qimalardan kelib, qon oqimi bilan buyrak va teriga yetkaziladigan almashinuvning oxirgi mahsulotlari doimo mavjud. Plazmada kaliy, magniy, kalsiy, xlor, fosfor, yod va boshqalar bor.

Qon shaklli elementlari eritrotsit, leykosit va trombositlarga boiinadi.

126

ERITROTSITLAR (QIZIL QON TANACH ALARI)

Normada 1 mkl qondagi eritrotsitlar soni $4,5-5,5 \cdot 10^6$ bo‘ladi. U turli fizilogik va patologik holatlarga qarab o‘zgarib turadi. Masalan, faol jismoniy ishda eritrotsitlar soni ko‘payadi, kasalliklarda ko‘pincha ular sonining kamayganligini kuzatish mumkin. Eritrotsitlar ikki tomoni botiq disksimon shaklga ega, lekin qon surtmalarida ular oynada tekislanib ketadi va shuning uchun ham to‘g‘ri yumaloq shaklga ega bo‘lib qoladi. Ular tor kapillyardan o‘tayotganda o‘z shaklini anchagina o‘zgartirishi mumkin. Eritrotsitlarning diametri 7-8,5 mk bo‘ladi. Ularning kattaligi patologik holatlarda o‘zgaradi. Past umurtqalilar va qushlarda eritrotsitlarning yadrosi bor. Evo- lyusiya jarayonida sutevizuvchilarda

eritrotsitlar yadro va hujayra organellalarini yo‘qotadi

Eritrotsitlar o‘z sitoplazmasidagi temir tutgan murakkab oqsildan iborat alohida nafas segmenti — gemoglobin mavjudligiga bogiiq holda qonga qizil rang beradi. Gemoglobin o‘pka tomirlarida kislород bilan birikib, beqaror birikma - oksigemoglobin hosil qiladi. U esa qon oqimi bilan to‘qima va organlarga tarqaladi, to‘qima nafasining amalga oshishida ishtirok etadi. Eritrotsitlar teshikchalari boigan yupqa parda bilan o‘ralgan. Gipotonik eritmalarda eritrotsitlarga suv kirib, bo‘kishi oqibatida parda yoriladi va gemoglobin plazmaga chiqadi (gemoliz). Gipertonik eritmalarda eritrotsitlar suvsizlanadi va bujmayib qoladi.

Erirositlarning hayoti 2-3 oy davom etadi.

LEYKOSITLAR

Leykositlar yoki oq qon hujayralari eritrotsitlardan farq qilib, yadro va organellalarga ega. Periferiyadagi qonda ular eritrotsitlar singari pigment (gomoglobin) tutmaydi, shunga ko‘ra oq qon tanachalari nomini olgan. Katta odamning 1 mkl qonida $6-8 \times 10^3$ miqdorda leykositlar mavjud. Turli fiziologik (ovqat yeyish, jismoniy va aqliy zo‘riqish) va patologik holatlarda ularning

127

soni o‘zgarib turadi. Leykositlar sonining oshishiga leykositoz, kamayishiga leykopeniya deyiladi.

Leykositlar o‘zining asosiy vazifasini qon oqimida emas, balki tomirdan to‘qimaga chiqqandan so‘ng bajaradi. Leykositlar endoteliy hujayralari orasidan suqilib chiqib, biriktiruvchi to‘qimada joylashadi. Shuningdek, ular epiteliy hujayralari orasidan ham o‘tishi mumkin. Leykositlar fagositlar hisoblanib, organizmni to‘qima va qonga tushgan mikrob va yot tanachalardan muhofaza qiladi. Ba’zi bir leykositlar (limfositlar) immun tanachalar hosil boiishda ishtirok etadi.

Eritrotsitlardan farqli o‘laroq, leykositlar psevdopodiylar hosil qilib, faol siljish qobiliyatiga ega. Leykositlar harakatining yo‘nalishi xemotaksisga binoan sodir boiadi, ya’ni harakat kimyoviy ta’sir tomoniga yo‘naladi.

Leykositlar ikki katta guruhga boiinadi: donador leykositlar yoki granulafsitlar va donasiz leykositlar yoki agranulositlar. Bunday boiinish ularning sitoplazmasida spetsifik donalarning boiish yoki boimasligiga asoslangan.

GRANULOSITLAR

Granulositlar o‘z donadorligining qanday bo‘yalishiga qarab uch guruhga boiinadi: eozinofil, bazofil, neytrofil. Qon kislotali (ezozin) va ishqoriy (azur) bo‘yoqlarning aralashmasi bilan bo‘yalganda ba’zi leykositlardagi (ezozinofil) donadorlik kislotali bo‘yoqlarga, boshqalaridagi (bazofil) u bo‘yoq bilan ham, bu bo‘yoq bilan ham bo‘yaladi. Uchala guruh leykositlarning yetilgani segmentlashgan yadroga ega boiib, ular segment yadroli neytrofil, eozinofil va bazofillar deyiladi.

Neytrofil leykositlar (netrofillar) leykositlar umumiy miqdorining 65-70% ini tashkil etadi, ular yumaloq shaklda boiib, diametri 7-9 mk boiadi. Sitoplazmasi och oksifil, o‘zida pushti- binafsha tusli mayda donachalar tutadi. Neytrophillar sitoplazmasida barcha organellalar: hujayra ichi plastinkasimon to‘plami, hujayra

mitoxondriyalari, hujayra markazi va turli kiritmalar mavjud. Hujayralar turli proteolitik fermentlar

128

saqlovchi lizosomalar hamda peroksisomalarga boy. Neytrophil-larning yadrosi xromatinga mo'l va intensiv bo'yaladi. Ular bir-biri bilan ingichka to'sinchalar hosil qilib tutashgan qator segmentlar (boiaklar) hosil qiladi. Leykositlar yadrosi yoshiga ko'ra o'zgaradi va loviyasimon, tayoqchasimon, segmentlash-gan shakllarga ega. Ba'zi neytrofillar yadrosining ichki yuzasida xromatinning qo'shimcha to'plami mavjud. Bu to'plamning shakli ayollar va erkaklarda turlichadir. To'plam jinsiy xromatin nomini olgan. Bunday jinsiy xromatinning bo'lishi surtmalarga qarab qonining jinsiy mansubligini aniqlash imkonini yaratadi, bu esa amaliy ahamiyatga ega.

Neytrofillar mikroblarning faol fagositlari hisoblanadi. Shuning uchun ham turli infeksiyalarda va yiringli jarayonlarda ularning soni ko'payadi va neytrofilli leykositoz ro'y beradi. Bu holat homiladorlik, uzoq muddatli jismoniy ish, faol hazm va boshqa fiziologik holatlarda ham kuzatilishi mumkin.

Eonizofil (oksimil) leykositlar yoki eozinofillar leykositlar umumiyligi miqdorining 2-5% ini tashkil etadi. Bular birmuncha yirik hujayralar: ularning diametri 9 mk ga yaqin. Eozinofillar sitoplazmasida kislotali bo'yoqlar bilan bo'yaluvchi yirik pufaksimon tanachalar mavjud. Ular oqsil, lipidlardan tashkil topgan va fosfor, temir hamda turli fermentlarga ega. Bu granullalar elektron mikroskopning kattalashtirishda bir xil bo'lmay, ularning ichida ko'pincha kristallsimon tuzilmalar ko'rindi. Sitoplazmada granullalardan tashqari mayda mitoxondriyalar, plastinkasimon to'plam elementlari yotadi. Eozinofillar yadrosi ikki bo'g'imli bo'lib, ingichka belbog' bilan birikkan.

Eoiznofillar ham neytrofillar kabi harakatchan. Ular toksinlarni zararsizlantirib, organizmni himoya qilish qobiliyatiga ega. Eozinofillar miqdorining oshishi gijja invaziyasida, ba'zi yuqumli kasallikkarda va organizmga yot oqsil kiritilganda kuzatiladi.

Bazofil leykositlar (bazofillar) leykositlar umumiyligi sonining 0,5-1 %ini tashkil etadi. Bazofillar diametri 6-10mk. Ular sitoplazmasida yumaloq, yirik bazofil donachalar yotadi. Donachalar glikogen, mukopolisaxarid, RNK va qon ivishini,

129

tomirlar va biriktiruvchi to'qima o'tkazuvchanligini boshqaruvchi, ayniqsa, muhim geparin hamda gistaminlardan iborat. Bazofillar yadrosi yaqqol bo'lakli bo'lmaydi va neytrophil, eozinofillar yadrosiga nisbatan och bo'yaladi. Bazofillar funksiyasi mukammal o'rganilgan. Ma'lumki, ular qon tomi-rini tark etib, siyrak biriktiruvchi to'qimada semiz hujayralar (labrositlar)ga transformatsiya qilinadi (aylanadi).

DONASIZ LEYKOSITLAR (AGR ANULOSIT LAR)

Donasiz leykositlar (agranulositlar) ikki guruhg'a: limfosit va monositlarga bo'linadi. Bunday boiinish shu hujayralarning turlicha kattaligi, yadrolari tuzilishidagi tafovutlarga asoslangan. Granulositlar agranulositlardan sitoplazmada donadorlikning segmentlanmaganligi bilan farqlanadi.

Limfositlar leykositlar umumiy miqdorining 20-30%ini tashkil etadi. Ular V- va T- limfositlarga bo‘linadi. Limfositlarning miqdori yoshga qarab o‘zgaradi: bolalarda keksa odamlarga nisbatan ko‘proq uchraydi. Limfositlarning kattaligi 4,5 mk dan 10 mk gacha bo‘lganligidan yirik, o‘rta va kichik limfositlar farqlanadi. Hujayraning asosiy qismini zinch, to‘q bo‘yaluvchi yadro tashkil etadi. Xromatinning dag‘al zarrachalari yaxlit joylashadi. Sitoplazma yupqa bazofil gardish hosil qilib yadroni o‘raydi, sitoplazma bazofilligi juda o‘zgaruvchan. Sitoplazmada fermentlarga boy bo‘lgan mitoxondriylar va boshqa organellalar yaqqol ko‘rinadi.

Limfositlar organizmda yallig‘langan joyni tugatishda ishtirok etadi. Ular antitelolar ishlab chiqarish va ularni tashish, immunitet hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Qondagi limfositlarning hayot muddati o‘ta qisqa bo‘lib, kun va hatto soatlar bilan o‘lchanadi.

Monositlar leykositlar umumiy miqdorining 6-8%ini tashkil qiladi. Ularning o‘lchami 10-11 mk ga yaqin. Monositlar yadrosi loviya yoki taqasimondir. Xromatin uncha katta boimagan donachalar holida yadro bo‘yicha tarqalgan; bir necha

130

yadrochalar boiishi mumkin. Limfosit sitoplazmasiga ko‘ra monosit sitoplazmasi kam, bazofillikka ega bo‘lib, sitoplazmasida mayda donachalar uchraydi. Elektron mikroskopda oval mitoxondriylarning segmentlarga bo‘linganligi ko‘rinadi. Hujayra ichki plastinkasimon to‘plamasining yadro botiqligida joylashganligi kuzatiladi.

Monositlar turli o‘zgarishlarga moyil. Yallig‘lanish holatlarida ular qon o‘zanidan chiqadi va faol fagositlar (makrofagalar)ga aylanadi.

QON PLASTINKALARI (TROMBOSITLAR)

Qon plastinkalari 1 mkl qonda $1,8 \times 10^4 - 3,5 \times 10^5$ miqdorda boiadi. Bu kattaligi 2-5 mk li mayda rangsiz tanachalar yumaloq

— oval yoki noto‘g‘ri shaklga ega. Har bir tanacha ko‘p miqdorda o‘simtalar hosil qilishi mumkin. Plastinkalar asosdan (gialomer) va donachalar (xromomer) to‘dasidan iborat. Trombositlar DNK uchun reaksiya bermaydi. Shuning uchun ham ularda yadro moddasi yo‘q. Trombositlar hujayra bo‘lmay, yirik poliploid yadroga ega bo‘lgan suyak ko‘migining gigant hujayrasi - megakariositdan ajralgan sitoplazma boiakcha- laridan iborat.

Trombositlarning yuqori darajada bir-biriga yopishish (agglyutinatsiya) xususiyati boiganligidan, ular boiak holida bir- biriga yopishadi va surtmalarda ko‘pincha guruqlar holida uchraydi. Trombositlar qon ivish jarayonida faol ishtirok etadi: ularda bu jarayon uchun lozim boigan moddalarning asosiy qismi — qon ivish faktorlari mavjuddir.

Qon analizi kasallik tashxisida katta o‘rin egallaydi. Leykositlar, trombositlar, eritrotsitlar, gemoglobinning konsentratsiyasi va foiz miqdorlari hamda eritrotsitlarning osmotik, mexanik, kilotaga rezistentligi, eritrotsitlarning cho‘kish tezligi (ECHT) (SOYE) hamda qon kimyoviy tarkibi va boshqalar tekshiriladi. Sogiom odam uchun tabiiy qon shaklli elementlari ma’lum miqdorining nisbati mavjud. Bu nisbatga qon formulasi yoki gemogramma

deyiladi.

131

Tashxisni aniqlash uchun normada va patologik holatlarda qondagi turli leykositlarning foiz miqdorini aniqlash — leykositar formula katta ahamiyatga ega. Normada leykositlar formulasi quyidagi ko‘rinishda bojadi: neytrofillar 65-75%, limfositlar 20-30%, monositlar 6-8%, eozinofillar 2-5%, bazofillar 0-1%.


Turli kasalliklarda har xil leykositlarning miqdori o‘zgarishi mumkin (masalan, yalligianish holatlarida neytrofillar soni ortadi. Gijja invaziyasida, bronxial astmada eozinofillar soni ortsa, sil kasalligida limfositlar oshadi va hokazo). Bu o‘zgarishlar muhim tashxis belgilari hisoblanadi.


Qon hujayralari qon hosil qiluvchi o‘zak hujayralari atalmish tuzilmalardan taraqqiy topadi. Bu qon elementlarning barcha turlarini hosil qiluvchi kam differensiallashgan hujayralardir. Eritrotsitlar, granulositlar, monositlar, trombositlar suyak ko‘miga, limfositlar esa limfa tugunlarida va taloqda yetiladi. Odam talogida limfositlardan tashqari oz miqdorda boshqa leykositlar, trombositlar va eritrotsitlar hosil bojadi.

LIMFA

Qon kapillyarlari va to‘qima hujayralari oraligidagi biriktiruvchi to‘qima qatlamlarida to‘qima suyuqligi bilan toigan hujayralararo tirkishlar mavjud. Suyuqlik qon o‘zanidan to‘qimalarga, to‘qima suyuqligi esa qon o‘zaniga o‘tishi mumkin. Bu suyuqlikning harakati qon va to‘qima suyuqligi osmotik bosimining farqiga hamda kapillyarlardagi gidrostatik bosimga bogiiq. To‘qima suyuqligi limfa kapilyariga o‘tadi, so‘ngra limfa yoilari orqali limfa tugunlariga yo‘naladi. Limfa tugunlarida suyuqlik limfositlar va monositlar bilan boyiydi, keyinchalik limfa tomirlari ko‘krak limfa yoiiga, undan esa limfa vena qoniga quyiladi. Limfa donasiz leykositlar, asosan, limfositlar tutgan to‘qima suyuqligidan iborat. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra, u qon plazmasiga yaqin, lekin unda oqsil tanachalarining miqdori kamroq.


132





98-rasm. Baqa qoni surtmasi x400 1-eritrotsit; 2-limfosit; 3-monosit; 4-granulosit. 5-trombosit

99-rasm. O dam qoni surtmasi x900 1-eritrotsit; 2-katta va kichik limfositlar; 3-monosit; 4-neytrofil granulositlar; 5-eozinofil granulositlar; 6-bazofil granulositlar (leykosit); 7-qon plastinkalari (trombositlar)




sitoplazmatik membranalı it xl5000

100-rasm. Porali yupqa sitoplazm eritrotsit xl5000


101-rasm. A. Segment yadroli neytrofil granulosit.

B. Segment yadroli eozifil granulosit xl2000.

1-yadro; 2-eozinofil donachalar; 3-golji apparati




102-rasm. a. V- limfosit b. T-limfosit x 9000



103-rasm. Monosit x 11000

1-noto‘g‘ri shaklli yadro; 2-polimorf mitoxondriy;
3-endoplazmatik to V; 4-golji apparati

135




104-rasm. Qon yaratilishining chizmasi. 1-qon yaratuvchi o ‘zak hujayra;
2-polipotent hujayra; 3-miyelinopoyezning polipotent hujayrasi;
4- Vlimfositning o ‘tmishdoshi; 5-T limfositning o ‘tmishdosh
hujayralari;

6-to ‘da hosil qiluvchi; 7-eritropoyetik sezuvchi; 8-trompoyetik sezuvchi
hujayralar; 9-plazmoblast; 10-proplazmosit; 11-plazmosit; 12-limfoblast; 13-


prolimfosit; 14-vlimfosit; 15-limfoblast; 16-prolimfosit; 17-T-limfosit;
18-monblast; 19-promonosit; 20-monosit; 21-miyeblast; 22-
bazofilpromiyelosit; 23-bazojil miyelosit; 24-bazofil metamiyelosit;

136




25-yosh metamiyelosit; 26-segment yadroli leykosit; 27-neytrofil
promiyelosit; 28-neytrofil miyelosit; 29-neytrofil metamiyelosit; 30-tayoqcha
yadroli leykosit; 31 -segmeng yadroli leykosit; 32-eozinofdpmiyelosit; 33-
eozinojil miyelosit; 34-metamiyelosit; 35-eozinofdli leykotsit; 36-segment yadroli
leykosit; 37-eritroblast; 38-pronormosit; 39-normosit; 40-polixromotofil normosit;
41-oksifil normosit; 42-retikulosit; 43-eritrotsit; 44-megakriblast; 45-
promegakariosit; 46-megakariosit; 47-trombositlar

137




105-rasm. Qizil ilik. X 900. 1-miyeloblast; 2-proeritroblast; 3-eritroblast; 4-miyelonosit; 5-normoblast; 6-metamielonosit; 7-eritrotsit; 8-megakariosit; 9-eritroblast; 10-atsidofil eritroblast; 11-proeritroblast mitozi

138



106-rasm. Limfa surtmasi x 900. 1-eritrotsit; 2-katta limfosit; 3-o'rtacha limfosit; 4-kichik limfosit; 5-monosit; 6-leykosit

139



107-rasm. Limfopoyez xl500. 1-retikulyar to‘qima hujayrasi; 2-folikula chegarasida limfosit va manosit; 3-reaktiv markaz; a-limfoblast; b-monositlar; d-katta limfosit; mitoz; 4-o ‘rtacha limfositlar
140

SHAKLLANMAGAN SIYRAK BIRIKTIRUVCHI TO QIMA

Shakllanmagan siyrak biriktiruvchi to‘qima qon tomirlari bo‘ylab joylashib, organlarning hamma qismlarida uchraydi. Ko‘p organlarning asosi shu to‘qimadan tuzilgan.

Shakllanmagan siyrak biriktiruvchi to‘qima hujayralar va hujayralararo moddadan iborat.

Bu to‘qimalarning hujayralararo moddasi asosiy modda, kollagen, elastik va retikulin tolalarini o‘z modda, kollagen, elastik va retukilin tolalarini o‘z ichiga oladi.


Asosiy (amorf) modda gomogendir. Bu murakkab uglevodlar

- oqsil bilan birikkan mukopolisaxaridlardan tuzilgan kolloid tizimdir. Asosiy modda fermentlar ta’siriga bogiiq ravishda har xil suyuq holatdan to dirildoq holat ko‘rinishgacha ega bo‘lishi mumkin. Asosiy moddaning holatiga ko‘ra, uning o‘tkazuvchanligi o‘zgarib turadi. Biriktiruvchi to‘qimaning asosiy muddasi tomirlarni o‘rab turganligidan uning o‘tkazuvchanligi qon va hujayra orasidagi almashinish jarayoniga ta’sir etadi.

Asosiy muddada kollagen va elastik tolalar siyrak joylashadi.

Kollagen (yopishtiruvchi) tolalar qalnligi 12 mk gacha boiib, yoi-yoi yoki tasma ko‘rinishiga ega. Bu tolani hosil qiluvchi fibrillyar:

108-rasm. Siyrak biriktiruvchi to‘qima. 1-kollagen tolalar; 2-elastik tolalar; 3-fibroblast; 4-gistosit; 5-limfosit; 6-amorf modda; 7-plazmatik va 8-semiz hujayralar




141

oqsil - kollagen asosan glikokol, prolin, oksiprin, arginin kabi aminokislotalardan iborat. Har bir kollagen tolesi se- mentlovchi mukopolisaxarid moddasi bilan bog‘langan parallel protofibrillalardan hosil bo‘lgan. Kollagen tolalarni elektron mikroskop bilan qaralganda ularda ko‘ndalang chiziqlik namoyon bo‘ladi. Bu tolalar o‘ta pishiqligi va ayniqsa, suyultirilgan oqsil va kislotalarda bukishi bilan farqlanadi. Yetilmagan kollagen tolalar yetilganlaridan kumush tuzida impregnatsiya qilinishi bilan ajralib turadi.

Elastik tolalar bir-biri bilan anastomoz hosil qiluvchi tarmoqlangan ipchalari ko‘rinishiga ega. Har bir elastik tola ingichka tolalachalar — protofibrillardan iborat bo‘lib, ko‘ndalang chiziqlikka ega boimaydi. Elastik tolalarni hosil qilgan oqsil (elastin) aminokislota tarkibiga ko‘ra, kollogenden farqlanadi. Elastin molekulalari betartib, rezinadagi kabi yotadi va uning elastiklik xossalarini belgilaydi.

Retikulin yoki argirofil tolalar kumush bilan impergnatsiya qilganda mayda to‘r hosil



109-rasm. Kollagen tolalar

142

qiluvchi qora ingichka tolalar holida ko‘rinadi. Ular kollagen tolalar kabi

ko'ndalang chiziqli protofibrillalar va ular orasidagi sementlovchi moddadan iborat bo'lsa-da, shu fibrillalarni hosil qiluvchi oqsillar tarkibiga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Siyrak biriktiruvchi to'qima hujayralari bir necha xil: fibroblastlar, gistositlar (makrofaglar), semiz hujayralar (labrositlar), plazmatik, yog', pigment, kam differensialangan (adventitsial) hujayralar yoki kamroq miqdordagi qon leykositlaridan iborat.

Fibroblastlar — biriktiruvchi to'qimaning eng ko'p tarqalgan hujayralari. Bu hujayralar o'simtali bo'lib, ularning chegarasi noaniqdir. Fibroblastlar sitoplazmasida hujayra organellalari, fermentlar joylashadi. Bu hujayralarning yadrosi och bo'yaldi, xromatin esa butun karioplazma bo'ylab yotadi. Fibroblastlar kam harakatchan, ular o'troq hujayralar deb ataladi. Bu hujayralar boiinish xususiyatiga ega. Fibroblastlar faoliyatini asosiy modda va tolalar hosil bo'lishi bilan bog'laydi. Patologik holatlarda fibroblastlar granulyasion va chandiq to'qimalar hosil boiishida ishtirok etadi. Bu hujayralarning hayot faoliyati jarayoni sust kechuvchi fibrosisitlar («qariyotgan» fibroblastlar) deb nomlanadi.

Gistositlar (makrofagalar) - yakka yoki kichik-kichik gu-ruhlar holida joylashadi. Bu hujayralar yumaloq, ba'zan noto'g'ri shaklda, cho'zinchoq bo'lishi mumkin; hujayra chegarasi yaqqol ifodalangan, chekkalari notejis. Yadrosi katta emas, to'q, yirik xromatinga ega. Shuning uchun ham yadrocha yaqqol ko'rinxaydi. Hujayra sitoplazmasi bazofil bo'lib, mayda donacha va vakuolalarga boydir. Bu hujayralar fagositoz — turli zarrachalarni qamrab hazm qilish, bo'yoq donachalarini to'plash xususiyatiga ega. Tirik makrofaglarda amyobasimon faol harakat qilish xususiyatini kuzatish mumkin. Turli sohalarda gistositlarning miqdori har xil: qon tomirlar bo'ylab va yog' to'qimalarida ularning miqdori ko'pdir. Yallig'lanish o'choqlarining paydo bo'lishi gistositlar miqdorini orttiradi. Ularga monositlar — qon oqimi bilan kelgan makrofagalar ham qo'shiladi. Gistositlarning u yoki bu shakllari oqsil va polisaxaridlar almashinuvida hamda mikroorganizmlarni yo'qo-tuvchi, toksinlarni neytrallovchi immunitet reaksiyalarida limfositlar bilan o'zaro aloqada ishtirok etadi.

143

Semiz hujayralar (labrositlar) - kichik- kichik o'simtalar hosil qiluvchi, ko'pincha yumaloq shakldagi hujayra. Ularning yadrolari xromatinga boy, sitoplazmasida maxsus bazofil donadorlik mavjud. Semiz hujayralar ko'p miqdorda fermentlar va qon ivish hamda tomirlar o'tkazuvchanligini boshqarishga ta'sir etuvchi geparin va gistamin kabi biologik aktiv moddalar tutadi. Semiz hujayralar gistamini faqat atrof-muhitga chiqqa-ribgina qolmay, ortiqchasini o'zida saqlaydi va shuning bilan hujayralararo moddasini goh suyuq, goh quyuq ko'rinishga keltirib, uning agregat holati regulyasiyasida ishtirok yetadi. Shu bilan bir qatorda biriktiruvchi to'qimaning o'tkazuvchanligi va modda almashinuvi jarayonining tezligi ham o'zgaradi. Semiz hujayralar qon tomirlar bo'ylab guruh-guruh bo'lib joylashadi va ularning miqdori organizmning fiziologik holatiga monand ravishda o'zgaradi; homiladorlikda bachardon va sut bezlarida, hazm organlarida esa kuchli hazm vaqtida semiz hujayralar miqdori ortadi. Patologik holatlarda ham semiz hujayralar miqdori ortishi mumkin.

Plazmatik hujayralar — yumaloq, oval shakldagi yirik bo'limgan, yadrosi

markazda emas, sitoplazmaning biror qutida joylashgan, ko‘pincha, yumaloq shakldagi hujayra- lardir. Yadolarining yirik xromatin donachalari radial joylashganligidan yadro xarakterli «maxsus g‘ildirak» ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Hujayra sitoplazmasi o‘ta bazofil, chunki hujayra ko‘p miqdorda RNK tutadi. Yadro yaqinida sentriolalar joylashgan och zona (hovlicha) mavjud. Plazmatik hujayralarni elektron mikroskopda kuzatish ularda ribosomalarga boy bo‘lgan, yaxshi rivojlangan sitoplazmatik to‘r mavjudligini ko‘rsatadi. Plazmatik hujayralar oqsil ishlab chiqarishda faol ishtirok etadi. Ular maxsus oqsillar — antitelo ishlab chiqarib, immunitetda katta ahamiyat kasb etadi. Bu hujayralar ko‘p organlarning biriktiruvchi to‘qimasi tarkibida bo‘ladi. Ularning ko‘p niiqdori qon yaratuvchi organlar: suyak ko‘migi, taloq, limfa tugunlarida mavjud. Xronik shamollashda ularning miqdori o‘ta ortadi.

144

Adventitsial hujayralar odatda cho‘zinchoq shaklga ega boiib, oval och yadro tutadi. Ular qon kapillyarlari devoriga tegib yotganligidan adventitsial yoki perivaskulyar hujayra nomini olgan. Ular boshqa shakldagi hujayralarga o‘tish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham kam differensiallashgan (kambial) hujayralar deb ataladi. Adventitsial hujayralar fibroblast, makrofag, qon hujayralari va hatto silliq mushak hujayralarini hosil qilishi mumkin. Bu jarayon organizmning fiziologik yoki patologik holatlarining xususiyatiga bogiiq boiib, organizmning yangi hayot sharoitiga moslashuvini ko‘rsatadi.

Biriktiruvchi to‘qima hayotida endoteliy muhim rol o‘ynaydi. Bu qon tomir va limfa kapillyarlarining ichki devori- ni hosil qiluvchi yassi cho‘zinchoq hujayralardir. Hujayralar orasida sementlovchi modda bor. Qon va to‘qima orasidagi moddalar almashinushi dastavval shu endoteliy yopqichi orqali bajariladi va endoteliy hujayrasi modda almashinuvida faol ishtirok etadi.

Pigment hujayralar — bu cho‘zinchoq o‘sintali hujayralardir. Ularning sitoplazmasida mayda pigment donachalar ko‘p. Ba’zi hujayralarning o‘zi pigment ishlab chiqaradi, boshqalari faqatgina pigmentni o‘ziga qamrab olib, o‘zida saqlaydi. Pigment hujayralarini tutuvchi biriktiruvchi to‘qima ko‘zning to- mirli va rangdor qavatlarida, sut bezi oichamlarida, orqa te- shik atrofida va boshqa joylarda uchraydi.

Yog‘ hujayralari sharsimon shaklga ega boiib, markazida yirik neytral yog‘ tomchisini tutadi. Hujayra yadrosi, organellalar va fermentlarni tutgan sitoplazma hujayra chetiga surilgan boiadi. Har bir hujayradagi yog‘ miqdori hamda yog‘ hujayralari miqdorining o‘zi ham o‘ta o‘zgaruvchan boiadi. Biriktiruvchi to‘qimaning turli hujayralarida mayda yog‘ tomchilari uchrashi mumkin. Bu yog‘ tomchilari bir- biri bilan qo‘shilib yirik tomchilarni hosil qilib, deyarli butun hujayrani band etishi mumkin. Kam ovqatlanishda, xato yetilgan yog‘ hujayralari o‘z yogini yo‘qotishi mumkin. Odatda yog‘ hujayralari qon tomirlarni o‘ragan hujayralardan hosil boiadi. Yog‘ to‘qimalarida bu

145

hujayralar bir-biriga zich yotadi va shuning uchun ham o‘zining sferik shaklini yo‘qotib, ko‘p qirrali ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Yog‘ to‘qimasi hujayralari orasida biriktiruvchi to‘qima hujayralari va

tolalari yotadi. Yog‘ to‘qimasi yog‘ moddasining deposi tarzida ma’lum bo‘lib, fizikaviy teploregulyasiya va modda almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi, shuning bilan birga organlarni jarohatlashdan saqlab, mexanik faoliyatni ham bajaradi.


MAXSUS XUSUSIYATGA EGA BO‘LG AN BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMALAR

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan siyrak, shakllanmagan biriktiruvchi to‘qimadan tashqari maxsus xususiyatga ega bo‘lgan biriktiruvchi to‘qimalar — retikulyar to‘qima, yog‘ to‘qimasi, shilliq to‘qima, pigment to‘qima farq qilinadi.

Retikulyar (to‘rsimon) to‘qima. Bu to‘qima retikulyar hujayra va retikulin tolalardan tashkil topgan: Retikulyar hujayralar o‘sqliari bilan birlashib, to‘rsimon (retikulum) tuzilmani hosil qiladi. Retikulyar to‘qima organizmning turli qismlarida uchraydi. Bu to‘qima suyak ko‘migi, limfa tuguni va taloqning stromasini hosil qiladi.

Retikulyar to‘qimani ichak shilliq qavatida, buyrakda va boshqa organlarda uchratish mumkin. Uning asosiy vazifa- laridan biri qon shaklli elementlari ishlab chiqishida ishtirok etishdir. Bu to‘qima hosil qilgan qovuzloqlarda rivojlanayotgan qon shaklli elementlarining turli hujayralarini uchratish mumkin. Retikulyar to‘qimaning ba’zi hujayralari to‘rdan ajrab, erkin retikulyar hujayralarni hosil qiladi. Retikulyar hujayralar fagositoz qilish qobiliyatiga ega. Taloq va limfa tugunining retikulyar to‘qimasidan qon yoki limfa doimo o‘tib turadi. Shuning uchun bu a’zolarning retikulyar hujayralari yog⁴, oqsil bilan to‘qnashadi, uni yutadi va shu oqsilga (antigenga) nisbatan o 4a sezgir boigan makrofagalarga aylanadi.

146



110-rasm. Retikulyar to‘qima. 1-retikulyar hujayralar; 2-limfositlar; 3-retikulyar hujayralar yadrolari; 4- neyrofilli granulosit

Yog‘ to‘qimasi. Yog‘ hujayralari biriktiruvchi to‘qimaning ma’lum qismlarida to‘planib, uning to‘qimasini hosil qiladi. Ikki xil yog‘ to‘qimasi tafovut qilinadi: oq va qo‘ng‘ir. Oq yog‘ to‘qimasi hujayralari yuqorida («Yog‘ hujayralari» sarlavhasiga q.) tasvirlangan tuzilishga ega boiib, u yog‘ to‘qimasining asosiy qismini tashkil etadi. Qo‘ng‘ir yog‘ to‘qimasi odatda ilk yoshlik davrida (kuraklar atrofida va tananing yon taraflarida) uchraydi. Kemiruvchilarda va qishda uyquga ketuvchi sutevizuvchilarda u ko‘proq. Qo‘ng‘ir yog‘ to‘qimasi hujayralari sitoplazmasida yirik emas, balki mayda yog‘ tomchilari boiadi. Mayda yog‘ tomchilari orasida donador sitoplazmatik to‘r,

plastinkasimon Golji to‘plami, ko‘p miqdorda mitoxondriya va glikogen kiritmalari joylashadi. Yog‘ hujayralaridagi sitoxromlar yog‘ to‘qimasiga qo‘ng‘ir tus beradi. Yog‘ hujayralaridagi yog‘ to‘plamlari energetik manba hisoblanadi. 10 gr yog‘ yonganda energiyadan tashqari 107,1 gr suv ajraladi. Shunday qilib, suv yetishmaganda yog‘ suv manbai boiib ham xizmat qiladi.

Metabolik jarayonda qo‘ng‘ir yog‘ to‘qimasi alohida o‘rin tutadi. Uning metabolik faolligi oq yog‘ to‘qimasiga nisbatan 20 marta yuqori. Organizm soviganda qo‘ng‘ir yog‘ to‘qimasi mitoxondriyalarida fosforlanishning oksidlanishdan ajralishi natijasida issiqlik energiyasi ajralib, u organizmni turli ta’sirlardan saqlaydi (masalan, teri osti yog‘ to‘qimasi).

147

Pigment to‘qimasi. Bu to‘qima ko‘p miqdorda pigment hujayralarini (melanositlarni) saqlaydi. Bu to‘qima so‘rg‘ich sohasida, anal teshigi atrofida, yorg‘oq xaltada hamda ko‘zning qon tomir va rangdor pardalarida uchraydi.


ZICH TOLALI BIRIKTIRUVCHI TO‘QIMA

Bu to‘qimada siyrak biriktiruvchi to‘qimaga nisbatan tolali tuzilmalar ko‘p bo‘lganligidan zich deb ataladi.

Tolalarning joylashishi va yo‘nalishiga ko‘ra, bu to‘qima zich shakllanmagan va zich shakllangan biriktiruvchi to‘qimalarga bo‘linadi.

Zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima. U bir- biriga chirmashib ketgan har xil yo‘g‘onlikdagi kollagen tolalar tutami hamda elastik tolalar to‘ridan iborat. Bu to‘qimada asosiy modda kam. Hujayra xillari siyrak birikiuvchi to‘qima (fibroblastlar, gistiositlar va boshqalar) kabi bO“Isa-da, ularning miqdori anchagina kam. Asosiy hujayra shakli fibroblast hisoblanadi. Odatda, zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima aniq chegara hosil qilmay, siyrak biriktiruvchi to‘qimaga o‘tadi. Zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima, jumladan, terining asosini hosil qilib, o‘ta yuksak chidamliligini ta’min etadi.

111-rasm. Zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima va zich shakllangan biriktiruvchi to‘qima. a: 1- kollagen tolalarning uzun tutamlari; 2- kollagen tolalarning ko‘ndalang kesilgan tutamlari; 3- fibrositlarning yadrosi; b: 1- kollagen tolalarning tutamlari; 2- ko‘ndalang- targ'il muskul



148

Zich shakllangan biriktiruvchi to‘qima. Bu xil biriktiruvchi to‘qimadan paylar, boylamlar, fassiyalar, aponevrozlar, pay markazlari, diafragma va boshqalar tuzilgan. Zich shakllangan biriktiruvchi to‘qima ma’lum tartibda joylashgan ko‘p miqdordagi tolalarning bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu yo‘g‘on, parallel kollagen tolalar tutami orasida elastik tolalar to‘ri joylashadi. Ularni asosiy

moddaning nihoyatda yupqa qatlami o‘rab turadi. Asosiy moddada, tolalarning parallel qatori orasida fibrositlar (pay hujayralari) yotadi. Ularning nozik o‘simtalari tolalar tutamini o‘rab turadi, shuning uchun ham paylarning ko‘ndalang kesimida fibroblastlar uchburchak yoki trapetsiya shaklida ko‘rinadi. Tola tutamlarini o‘ragan siyrak biriktiruvchi to‘qimaning nozik qatlami o‘zida nervlar va qon tomirlar tutadi. Ba’zi boylamlar (haqiqiy ovoz boylami, ensa boylami) parallel joylashgan elastik tolalar tutamidan iborat. Bu tolalar yirik qon tomirlarda, yurak, traxeya, bronxlarda ham membranalar hosil qiladi.


TOG‘AY TO‘QIMASI

Tog‘ay to‘qimasini biriktiruvchi to‘qimaning boshqa turlari kabi mezenximadan taraqqiy etadi va zich asosiy moddalar joylashgan hujayra hamda tolalardan iborat. Zich biriktiruvchi to‘qimadan farqli o‘laroq, tog‘ayda asosiy moddaning miqdori ko‘pdır. Tog‘ay fibroblastlarni eslatuvchi duksimon hujayralar

— xondroblastlarga moi biriktiruvchi to‘qimadan iborat bo‘lgan tog‘ay usti pardasi bilan qoplangan. Tog‘ay to‘qimasining o‘sishi shu xondroblast hujayralar hisobiga ro‘y beradi. O‘sish, shuningdek, tog‘ay yosh hujayralarning bo‘lini-shi va hujayralararo modda miqdorining ko‘payishi oqibatida ro‘y beradi. Tog‘ayda qon tomirlar bo‘lmay, uning oziqlanishi qon tomirlarga mo‘l bo‘lgan tog‘ay usti pardasidan oziq moddalarining tog‘ayga diffuziya yo‘li bilan kirishi orqali ro‘y beradi. Patologik holatlarda tog‘ayga ko‘p miqdorda kalsiy tuzlari, uratlar va boshqalar yig‘ilishi mumkin.

Tog‘ay to‘qimasining uchta asosiy xili farqlanadi: gialin, elastik va tolali (biriktiruvchi to‘qimali) tog‘aylar. Bunday bo‘linish hujayralararo moddaning tuzilishi xususiyatiga asoslangan.

149



112-rasm. Tog‘ay. a-gialinli; b-elastik; d-tolali; 1-tog‘ay usti pardasi; 2-xondrosis; 3-hujayralararo modda; 4-izogen guruh;

5-kollagen tolalar; 6-elastik tolalar

Gialin tog‘ay. Bunday tog‘ay qovurg‘alarda, suyaklarning bo‘g‘im yuzasida, nafas yoilarining devorida uchraydi. Biriktiruvchi to‘qimaning boshqa xillari kabi, tog‘ay ham hujayra va hujayralararo moddadan iborat.

Tog‘ay hujayralari yoki xondrositlar hujayralararo moddadagi maxsus bo‘shliqlarda yakka yoki guruh boiib yotadi. Bir bo‘shliqda joylashgan hujayralar guruhiiga izogen guruhlari deyiladi. Ular bitta tog‘ay hujayrasining boiinishi oqibatida hosil boiadi. Tog‘ayning chekka sohasidagi hujayralarning shakli duksimon, yassi boisa, uning ichida yumaloq yoki ovaldir. Tog‘ay hujayralari yirik, yumaloq yadrocha, organellalar aniqlanadigan, ko‘pincha vakuolali sitoplazmaga ega boiadi.

Gialin tog‘ayning hujayralararo moddasi kollagen (xondrin) tolalar va asosiy moddadan iborat. Xondrin tolalar kimyoviy

150

tarkibiga ko‘ra, kollagen tolalarga o‘xshaydi. Ular maxsus ish- lov (barit suvi, tripsin, kumush impregnatsiyasi) berilgandagina aniqlanadi. Yangi fiksatsiya qilingan preparatlarda ular ko‘rinmaydi. Hujayralararo moddasi oqsillar bilan bog‘langan xondroitin sulfat kislota tutadi. Bu birikma xondromukoid deb ataladi. Shu birikma asosiy moddaning bazofllligini ta’minlaydi.

Elastik tog‘ay. Bu tog‘ay qulqoq suprasida, hiqildoq usti tog‘ayida, hiqildoqning shoxchasimon va ponasimon tog‘aylarida uchraydi.

Elastik tog‘ayning tuzilishi gialin tog‘ay kabidir. Lekin hujayra oraliq moddasida har tomonga yo‘nalgan va zich to‘r hosil qiluvchi ko‘p miqdordagi elastik tolalar mavjud.

Tolali tog‘ay. Umurtqalararo disklar, qov suyaklarining simfizi tolali tog‘aydan iborat. Bu tog‘ay boylamlar, paylar va yirik mushaklarning suyakka birikkan joyida uchraydi. Tolali tog‘ay gialin tog‘ayidan farqlanib, kollagen (xondrin) tolalarning tutamlari parallel qatorlar hosil qilib yo‘naladi. Shu tutamlar orasida tog‘ay hujayralari yotadi. Tolali tog‘ayning tuzilish holati gialin tog‘ayi kabi boiadi. Tolali tog‘ayning bir tomonida gialin tog‘ayi, ikkinchi tomonida esa asta-sekin zich shakllangan biriktiruvchi to‘qimaga aylangan tuzilmani kuzatish mumkin.

Tog‘ay to‘qimasi tayanch vazifasini bajarishdan tashqari uglevodlar almashinuvida maium darajada ishtirok etadi.

SUYAK TO‘QIMASI

Suyak to‘qimasi mezenximadan taraqqiy etadi va hujayralararo moddasi ohaklangan biriktiruvchi to‘qimaning bir shakli hisoblanadi. Hujayralararo modda tola va anorganik tuzlar tutgan asosiy moddadan iborat. Biriktiruvchi to‘qimaning kollagen tolalari tipidagi suyak tolassi ossein tola deb nomlanadi. Tola va ular orasidagi asosiy modda murakkab birikma hosil qiluvchi kalsiy, fosfor, magniy va boshqa tuzlar bilan to‘ydirilgan.

Hujayralararo moddada nozik suyak kanalchalari bilan tutashgan suyak bo‘shliqlari mavjud. Shu bo‘shliqlarda mitoz qobiliyatini yo‘qotgan, organellalari kam, o‘sintali hujayra -

151

osteositlar joylashadi. Osteositlarning o‘sintali oraliq moddaga va hujayralarga oziq moddalarni o‘tkazishda katta ahamiyatga ega boigan suyak kanalchalariga tarmoqlanadi.

Kanalchalar suyak ichidan o‘tuvchi va qon tomirlar tutgan suyak kanallari

bilan tutashadi. Bu naylar osteositlar va qon o'rtasidagi modda almashinuvini ta'minlovchi yo'1 hisoblanadi.

Suyak to'qimasida osteositlardan tashqari osteoblastlar ham mavjud. Ularning sitoplazmasi bazofil, ko'p miqdorda RNK tutadi. Organellalari yaxshi rivojlangan. Osteblastlar suyak to'qimasini, hujayralararo moddani hosil qilib, o'zini o'rabi oladi va osteositlarga aylanadi. Shunday qilib, shakllangan suyaklarda osteblastlar faqatgina suyakning o'sayotgan va regeneratsiya boiayotgan sohalarida uchraydi.


Suyak hujayrasining boshqa shakli — osteoklast ko'p yadroli yirik hujayradir. Ularning sitoplazmasida ko'p miqdorda lizosomalar uchraydi. Bu hujayralar yemirilayotgan suyak yoki tog'ay mikrozonasi tomon yo'nalган mikrovorsinkalar hosil qiladi.


Osteoklast o'zidan fermentlar ajratishi, suyak moddasini yoritishi bilan izohlanadi. Bu hujayralar suyakning yemirilishida faol qatnashadi. Patologik jarayonlarda suyak to'qimasida ularning miqdori ortib ketadi. Ular suyakning taraqqiy etish jarayonida ham katta ahamiyatga ega: suyakning oxirgi shaklini hosil qilish jarayonida osteoklastlar ohaklangan tog'ay va hatto yangi hosil boigan suyaklami yemirib, uning dastlabki shaklini o'zgartiradi, «to'g'rilaydi». Suyak hosil boiish jarayonida osteogen sohaning shakllanishini ta'minlovchi qon tomirlar faol ishtirok etadi.

Suyak to'qimasi skeletini tiklab, tayanch vazifasini bajaradi. Skelet materiali suyakning organik va anorganik komponentlari birga qo'shilgandagina pishiq boiadi (organik moddalarning boimasligi suyakni mo'rt qilib qo'ysa, anorganik moddalari yo'qolganda suyak yumshoq boiib qoladi). Suyaklar modda almashinuvida ham ishtirok etadi, zeroki, ular kalsiy, fosfor va boshqa moddalarning makoni hisoblanadi.

Suyak to'qimasi o'z zichligi va pishiqligiga qaramay, muntazam ravishda o'z tarkibidagi moddalarni almashtirib turadi, ichki tuzilmasini, hatto tashqi ko'rinishini ham o'zgartiradi.

152





113-rasm. Suyak. A-dag‘al; 1-osteositlar; 2-hujayralararo modda. B-plastinkali; 1-osteon; 2-ichki plastinkalar; 3-tashqi plastinkalar; 4-osteon kanali

153


Ikki tipdagi: dag‘al tolali va plastinkasimon suyak to‘qimasi tafovut qilinadi.

Dag‘al tolali suyak. Bu suyakning asosiy moddasida turli tomonga yo‘nalgan ossein tolalarining yirik tutamlari mavjud. Osteositlar ham betartib joylashgan. Bunday to‘qimadan baliq, amfibiy skletlari tuzilgan. Voyaga yetgan yuqori umurtqalilarda dag‘al tolali suyak kalla suyaklarning choclarida va paylarning suyakka birikkan joylarida uchraydi.

Plastinkasimon suyak. Katta yoshdaggi odam suyak- larining ko‘p qismi plastinkasimon suyak to‘qimasidan tuzilgan. Naysimon suyakning diafizi uch qavatdan — tashqi general plastinkalar, gavers tizimlari (osteonlar), ichki general plastinkalar, hamda tashqi general plastinkalardan iborat. Tashqi general plastinkalar qavati suyak ubsti pardasining tagida joylashadi, ichkisi esa suyak iligi tomonida yotadi. Bu plastinkalar suyakni butunlay o‘rab olib, konsentrik qavatlar hosil qildi. General plastinkalar orqali suyak ichiga qon tomirlar tutgan naychalar yo‘naladi. Har bir plastinka ossein (kollagen) tolalar tutamining parallel qatorlar hosil qilib yo‘nalgan suyakning xarakterli asosiy moddasidan iborat. Osteositlar plastinkalar orasida joylashgan.

O‘rtalik qavatda suyak plastinkalari qon tomirlar tutgan kanal atrofida konsentrik joylashib, osteon (Gavers tizi- mi)ni vujudga keltiradi. Bunday konstruksiya suyakning o‘ta pishiqligini ta’minlaydi. Yonma- yon yotgan suyak plastinkasida ossein tolalari har tomonga, deyarli bir- biriga to‘g‘ri burchak hosil qilib joylashadi. Osteonlar orasida kiritma (oraliq) plastinkalar yotadi. Bu sobiq osteonlar qismlarining bo‘lishi, suyak to‘qimasidagi faol o‘zgarishlardan dalolat beradi. Suyak ubsti pardasi- osteoblastlar, qon tomirlar va nerv oxirlarini tutgan tolali biriktiruvchi to‘qimadir. Suyak singanda osteoblastlar faollashadi va suyak hosil bo‘lishida ishtirok etadi.

154




114-rasm. Tovuq embrioni mezenximmasi x400.

1-ektoderma; 2-mezenxima hujayralari; 3-nerv nayi; 4-xorda

155


115-rasm. Retikulyar to‘qima x 400. 1-retikulyar to‘qima hujayralari; 2-qon hujayralari




156



116-rasm. Retikulyar to‘qima elektron mikro fotogrammasi x 14000.1-
yadro; 2-yadrocha; 3-mitoxondriya; 4-endoplazmatik to ‘r; 5-lizosoma
157







117-rasm. Sut bezi biriktiruvchi to‘qimasi. 1-fibroblast; 2,3-bo‘yoq yig'ilgan makrofaglar; 4-limfositlar; 5-kollagen tola; 6-plazmatik hujayra; 7-kapillyar; 8-differensiallanmagan hujayra; 9-eritrotsitlar

118-rasm. Siyrak (yumaloq) tolali biriktiruvchi to‘qima x 600. 1-plazmatik hujayra; 2-ikki yadroli hujayra; 3-bulutsimon hujayra; 4-kollagen tolalar

158




119-rasm. Siyrak biriktiruvchi to‘qimalarda pigment hujayralari x 300. 1-pigment hujayralari; 2-biriktiruvchi to‘qima hujayralarining yadrolari; 3-kollagen va elastik tola to‘ri




120-rasm. Yod ‘to ‘qimasi x 200. Qon tomirlari atroj’ida yig ‘ilgan yod ‘hujayralari

159




121-rasm. Zich shakllanmagan biriktiruvchi to‘qima (teri) x 300.1-kollagen tola to ‘plamini uzunasiga kesimi; 2-kollagen tolani ko ‘ndalangiga kesimi; 3-fibroblast yadrosi; 4-siyrak biriktiruvchi to‘qima qon tomiri bilan



122-rasm. Zich tolali shakllangan biriktiruvchi to ‘qimani uzunasiga va ko ‘ndalangiga kesimi. 1-kollagen tola to ‘plami; 2-fibrositlar; 3-siyrak tolali biriktiruvchi to ‘qima taxlami; 4-tashqi membrana

160




124-rasm. Epifizar tog‘ay elektron mikrofotogrammasi x 7000. 1-tog‘ay hujayralar; 2-yadro; 3-endoplazmatik to‘r; 4-mitoxondriya; 5-hujayralararo modda
123-rasm. Gialin tog‘ay. Qovurg‘adan olingen x 280.


1-tog‘ay usti pardasi; 2-yosh tog‘ay hujayralari; 3-asosiy modda;
4-yetilgan tog ‘ay hujayrasi; 5-tog ‘ay hujayra kapsulasi; 6-tog ‘ay hujayrasini izogen guruhi; 7-hujayra atrojida bazoqil qatlam

2

161



125-rasm. Quloq suprasi elastik tog‘ayi x 400. 1-tog‘ay usti pardasi; 2-asosiy modda; 3-elastik tola to ‘ri; 4-tog ‘ay hujayralari;
5-hujayra kapsulasi; 6-yadro; 7-tog ‘ay hujayralari izogen guruhi




i

2

126-rasm. Kollagen — tolali tog‘ay to‘qimasi x 300. 1-xondrin tolalar to‘plami; 2-xondrin tolalar orasida tog‘ay hujayralari


162

I




127-rasm. Suyak to‘qimasi. a-dag‘al tolali: 1-suyak hujayralari; 2-hujayralararo modda; b-plastinkasimon suyak: 1-osteon; 2-ichki plastinkalar; 3-tashqi plastinkalar; 4-osteon kanali

163




128-rasm. Suyak to ‘qimasi tuzilishi. 1-periost; 2-umumi y tashqi plastinkalar; 3-osteon kanalchalari; 4-kanalchalar anastomozi; 5- qo ‘shilayotgan kanalchalar; 6-osteositlar; 7-asosiy modda; 8-suyak plastinkalar tizimi; 9-oraliq plastinkalar; 10-umumi y ichki plastinkalar; 11-endoost; 12-suyak ko‘migi-ilik ho ‘shlig 7

164



129-rasm. Naysimon suyakning tuzilishi. A-periost. 1-tolali qavat; 2-kambial qavat; a-qon tomir; b-suyakning kompakt moddasi; 3-tashqi umumiy plastinkalar; 4-osteon; b-osteon kanali; v-teshib o ‘tuvchi kanal; 5-oraliq plastinkalar tizimi; 6-ichki umumiy plastinkalar; 7-g‘ovak suyak trebakulasi; V-suyak ichki bo’shlig‘i; G-endoost



130-rasm. Plastinkali suyak to ‘qimasining osteon tizimi. 1-osteon kanali; 2-suyak plastinkasi; 3-suyak hujayrasi

165

MUSKUL TO‘QLMASI

Organizm va ayrim organlarning harakati muskul to‘qimasi faoliyati bilan bog‘langan. Qon tomirlardagi qonning harakati, nafas faoliyati, ovqatning me’da-ichak trakti bo‘yicha siljish jarayoni, ko‘z harakati turli guruh muskullar (silliq va ko‘ndalang-targ‘il muskullar)ning qisqarishi tufayligina ro‘y beradi. Qisqarish faoliyati muskul to‘qimasida mayjud bo‘lgan maxsus qisqaruvchi tuzilmamiofibrillalar orqali yuzaga keladi.

Muskul to‘qimasiga silliq muskul to‘qimasi va ko‘nda- lang- targ‘il muskul to‘qimasi, yurak muskuli va muskul- ning maxsus turlari: a) sut bezi, so‘lak, ter bezlarining sektor bo‘limlarini o‘rab turadigan va ulardan sekretni siqib chiqaradigan mioepitelial hujayralar; b) qorachiq kengayishi yoki torayishini, ko‘z gavhari yassiligining ortishi yoki kamayishini ta’minlovchi ko‘z qorachig‘i va siliar tana muskullari kiradi.

SILLIQ MUSKUL TO QIMASI

Qon tomirlarining, hazm traktining diafragma osti bo‘limi, siydik- tanosil hamda boshqa ichki organlarning muskul qavatlari silliq muskul to‘qimasidan tuzilgan. Deyarli barcha ichki organlarning muskul to‘qimasi, u alohida qavat yoki tutam holida bo‘lishidan qat’iy nazar, silliq muskul to‘qimasi hisoblanadi. Til, kekirdak, qizilo‘ngachning yuqori qismi bundan mustasno.

Silliq muskul to‘qimasi mezenximadan taraqqiy etadi. U hujayra tuzilishiga ega. Uning hujayralari-miositlar- duksimon yoki yulduzsimon bo‘lib, uzunligi 100 mk gachadir. Yadrosi hujayra markazida yotadi. Uning shakli ellipsoid bo‘lsa-da, muskul hujayralarining kuchli qisqarishida o‘z shaklini o‘zgartiradi.

166



131-rasm. Silliq muskul to‘qimasi. 1-uzunasiga kesimi; 2-ko ‘ndalang kesimi.

Odatdagi qismlardan tashqari, silliq muskul hujayralarida qalinligi 10 nm li ingichka ipchalar protofibrillalardan tashkil topgan miofibrillalar ko‘p miqdorda bo‘ladi. Miofibrillalar muskul hujayrasining qisqarishini ta’minlaydi. Bir- biriga yaqin yotgan butun hujayralar guruhi bir vaqtning o‘zida qisqaradi. Ehtimol, ular impuls uzatuvchi umumiy nerv apparatiga ega bo‘lsa kerak. Silliq muskul to‘qimasining qisqarishi beixtiyor tonik boiib, ko‘p energiya sarflamaydi. Silliq muskul to‘qimasi uchun qon tomirlar tutgan biriktiruvchi to‘qimali qatlamlar katta ahamiyatga ega. Muskul hujayralarini yaxlit qilib biriktiruvchi kollogen va elastik tolalar egiluvchan (qayishqoq) sinch hosil qiladi.

Ish kuchining ortishi silliq muskul to‘qimasining gipertofi- yasini yuzaga keltiradi.

KO‘NDALANG YO LLI MUSKUL

Ko‘ndalang yoili muskul to‘qimasi mezodermadan taraqqiy etadi. Bu to‘qimadan skelet muskullari, og‘iz, til, halqum, qizilo‘ngachning yuqori qismi, diafragma, mimik muskullar tashkil topgan. Skelet muskullari ixtiyoriy qisqarishga moyil- dir. Ammo, ayrim muskul guruhlari ong ishtirokisiz ham qisqaradi.

167


Ko‘ndalang - y o ‘ Hi muskul to‘qimasi simplastik tuzilishga va ko‘ndalang chiziqlikka ega bo‘lgan muskul tolalaridan tuzilgan. Bu tolalarga muskul tolassi bilan umumiy pardaga ega bo‘lgan hujayra-satellit yondashadi. Satellit hujayrasi muskul tolasining hosil boiishida ishtirok etishi mumkin.

Fizologik nuqtai nazardan, odatda, ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasida qizil (tez qisqaruvchi) va oq (sekin qisqaruvchi) muskullarni farqlash qabul qilingan. Muskul ranglarining farqi kislorodni biriktirib olish xususiyatiga ega boigan va lozim boiganda kislorodni asta-sekin o‘z muskul to‘qimasiga beruvchi mioglobin oqsilini tutishi bilan izohlanadi.

Muskul tolalari silindrsimon tuzilmalar boiib, uzunligi bir necha millimetrdan 10 sm gacha dir.


132-rasm. Ko‘ndalang-yo ‘lli muskul to‘qimasi.

A-optik mikroskopda ko‘rinishi. 1-uzunasiga kesim; 2-ko‘ndalang kesim; b- elektronogramma; 1-telofragma; 2-1 disk; 3-A disk



168

	T	A	
Ж	iil 1 lii ii	I	III-L 1..Ш
.. МГ	.. Г_, 'I :: НПЯ	I IfV	
	iil 1 !	I Я	..ж
ШШ	III '1	E ism	иж.
; ш	iilM Г	I ш	иыш
		T ямтш	
	P a g	я	
	?		
	N		
	M T A		



133-rasm. Ko‘ndalang targ‘il muskul to ‘qimasining elektron- mikroskopik tuzilish chizmasi. A-skelet muskulini tolali tuzilish chizmasi: 1-miofibrillar; 2- mioprototibrillar; 3-sarkomer;

4-anizotrop disk A; 5-izotrop disk I; M-chiziq; 7-T-telofigrama;
8-mitoxondriya; 9-endoplazmatik to ‘r; 10-sarkoplazma;
11-sarkolemma. B-Aktin va miozin mioprototibrillari: 1-uzunasiga kesim;
11-ko ‘ndalang kesim; I-izotrop disk; A-anizotrop disk; M-mezofragma; T-
telofigrama; N-chiziq; 1-miozinli mioprototibril;

2-aktin mioprototibril

169

Muskul tolalarini zinch o‘rab turuvchi kollagen tolalar to‘ri va muskul tola asli qobig‘ini o‘z ichiga olgan qobiq - sarkolemma bilan o‘ralgan. Muskul tolalari xromatinga boy bo‘lmagan ko‘pgina yadrolarga ega. Yadrolar tola periferiya- sida, deyarli sarkolemma ostida yotadi.

Muskul tolasining sitoplazmasi (sarkoplazma) da esa ko‘p miqdorda sarkosoma (mitoxondriy)lar joylashadi. Ular ener- getik moddalarning qaytarilishi va oksidlanib parchalanishi jarayonlarida ishtirok etadi. Harakat faolligi kuchli boigan muskullar sarkosommalarga mo‘l boiadi. Ularda oksidlanuvchi fermentlar o‘ta moidir.

Sitooplazmatik to‘r kanalchalari sarkosommalar bilan uz- viy bogiangan holda joylashadi.

Bu tuzilmalardan tashqari, sarkoplazmada muskul tolasining muhim funksional qismi boigan miofibrillalar nihoyatda batartib yotadi. Ular muskul tolasining bir uchidan uning boshqa parallel o‘qigacha boradigan tolalarning uzluksiz tutamini hosil qiladi. Tolaning ko‘ndalang kesimida miofibrillalar tutami alohida-alohida yotgan tuzilmalar tarzida ko‘rinadi. Ular turli fizik-kimyoiy va optik xususiyatlari boigan, navbatma-navbat joylashgan qismlardan tashkil topgan. Bu qismlarda yorugiik sindirish koeffisiyentining turlicha boiishi miofibrillalarning och va to‘q yoki A va I disklarga boiinishini taqozo etadi. A disk anizotrop moddadan iborat. Miofibrillalarning shunday chiziqligi tufayli muskul tolassi ko‘ndalang-targ‘il degan nom olgan. Tutam pardasining

I diskini o'rtasidan T membrana (telo fragma) o'tadi. Miofibrillalarning ikki telofragma orasidagi qismi sarkomer deb ataladi. Bu membranalar miofibrillalarning maium holatda joylashgan o'ziga xos fiksatori hisoblanadi. Shuning uchun ham turli miofibrillalarning bir xil qismlari bir sathda yotadi, bu esa butun tolanning ko'ndalang chiziqliligini ta'minlaydi. Miofibrillalar sarkoplazma bilan uzviy bogiangan.


Elektron mikroskop yordamida miofibrillalarning ultratuzilmasi aniqlangan. Ular tarkibiga nozik tolalar - protofibrillalar kiradi. Ular oqsillardan: ingichka protofibrillalar — aktindan, yo'g'onlari — miozindan tashkil topgan.

170

Muskul tolasining qisqarishida qisqaruvchi oqsillarning qo'zg'alishi ro'y beradi, ingichka protofibrillalar yo'g'onlari orasiga sirg'alib kiradi. Aktin miozin bilan birikadi va yagona aktomiozin tizimini hosil qiladi. So'ngra yana aktin va miozinga ajraladi, bu muskul tolesi bo'shashining boshlanishini ta'minlaydi. Muskul tolasini qisqarishi bilan yuzaga kelgan qo'zg'alish tayanch tuzilmalar orqali organizmning harakatchan qismlariga uzatiladi. Tayanch tuzilmalarga faksiya va paylarning kollagen tolalari bilan bog'langan sarkolemma kiradi.

YURAK MUSKULI

Yurak muskuli alohida o'rinni tutadi. Bu ham ko'ndalang - targ'il muskul boiib, skelet muskullaridan muskul «tolalari» orasida anastomozlar boiishi bilan farqlanadi. Bu muskulda muskul «tolalari» hujayralardan tashkil topgan. Yorugiik mikroskopida ko'rinaldigan kiritma plastinkalar (go'yo bu tolalarni kesib o'tuvchi) ikki hujayra orasidagi chegarani aniqlab beradi. Plastinkalarda hujayralar miofibrillalari tugallanadi, ya'ni bir hujayraning miofibrillasi qo'shni hujayraga o'tmaydi. Har bir muskul hujayrasi sarkolemma, markazda joylashgan yadro va miofibrillalar tutgan sarkoplazmaga ega. Miofibrillalar




134-rasm. Yurak muskuli. 1 -kardiomiositlar; 2-atipik muskullar

171

xuddi skelet muskulidagi ko'ndalang chiziqli faktorlar bilan ta'minlangan. Miofibrillalar siyrak joylashgan va muskul tolasining chekka qismida yotadi. Yurak muskulning shunday tuzilishi yurakning to'la va kuchli qisqarishga imkon beradi.


Muskul hujayrasining sarkoplazmasida sitoplazmatik to'r yaxshi rivojlangan boiib, unda ko'p miqdorda zikh ribosoma donachalari mavjud. Sarkoplazmaning anchagini qismini el-lipssimon shakldagi ko'p miqdordagi sakrosommalar

(mitoxondriylar) egallaydi. Ular yurak muskulidagi oksidlanish — qaytarilish jarayoni uchun lozim boigan fermentlarga boy. Yurakning uzlusiz ishlab turish qobiliyati shu sarkosomalar- ning ko‘p miqdorda boiishiga bogiiq. Har bir mushak «tolasi» o‘zida qon kapillyarlari tutgan nozik tolali biriktiruvchi to‘qima bilan o‘ralgan.



135-rasm. Silliq muskul to ‘qimasining ketma-ket tuzilishi. 1-muskul hujayrasi; 2-yadro; 3-miofibrillar; 4-sarkolemma; 5-endomiziy; 6-nerv; 7-qon kapillyari

172




136-rasm. Siydik pufagi devorini silliq muskul to ‘qimasi x 400. 1-uzunasiga kesilgan silliq muskul to'qimasi; 2-ko‘ndalangiga kesilgani; 3-biriktiruvchi to ‘qima bilan qon tomirlari


173

137-rasm. Tilning ko‘ndalang - targ'il muskuli x 400.

1-uzunasiga kesilgan muskul tola; 2-ko ‘ndalangiga kesimi; 3-biriktiruvchi to ‘qima ; 4-qon tomirlari; 5-yog ‘ hujayralari



174




138-rasm. Skelet muskuli uzunasiga kesimining elektron

mikrofotogrammasi x 15000. 1-teloфragma; 2-sarkomer;


3-mitoxondriya

175



139-rasm. Ko 'ndalang yo 'lli yurak muskul to 'qimasi x 280. 1-yurak
muskul hujayrasi; 2-yadro; 3-oraliq disk; 4-qon tomirli biriktiruvchi to 'qima; 5-
ikki muskul tolasi anastomozi

176



140-rasm. Yurak muskul to'qimasi elektronogrammasi. 1-miofibrillar; 2-Tyo'lka; 3-mitoxondriya; 4-sarkoplazmatik retikulum

NERV TO'QIMASI

Nerv to'qimasi ektodermadan taraqqiy etadi. U ikki komponent -nerv hujayralari va neyrogliyadan tashkil topgan. Hujayrasi ta'sirni qabul qilish xususiyatiga ega. Neyrogliyalar tayanch, trofik, sekretor va himoya vazifalarini bajaradi. To'qimasining barcha elementlari to'qimalar va organizm ichki organlarini bir-biri bilan hamda organizmni tashqi muhit bilan bog'lovchi yagona nerv tizimini hosil qiladi.

NERV HUJAYRALARI

Nerv hujayrasi yoki neyrositlar o'simtali shaklga ega. Bu hujayralarning kattaligi 4- 130 mk. Neyrositlar tana, o'simtalar va shu o'simtalar hosil qilgan nerv nuqtalaridan tashkil topgan. Neyrositlar, asosan, ko'p o'simtali bo'ladi. Bunday neyrositlar

177

multipolyar deb ataladi. Neyrositlarda ikkita — bipolyar neyrositlar yoki bitta o'simta — bipolyar neyrositlar boiishi mumkin. O'simtalar dendrit va neyritlarga boiinadi. Dendritlar impulsni xxervhujayxasimziigfrttzzszt, neyrit far impulsni hujayra tanasidan o'tkazadi. Dendritlar ko'p boiishi va o'ta tarmoqlanib ketishi mumkin. Neyrit doimo bitta boiadi. Dendrit va neyritlari bir-biriga yaqinlashgan holda hujayradan go'yo bitta o'simta sifatida chiqib, so'ngra T simon boiinib ketuvchi nerositlarning psevdounipolyar (soxta bir o'simtali) shakli ham tarqalgan. O'simtalarning uzunligi odamda har xildir (bir necha mk dan 1,5 m gacha).

Nerv hujayralari, odatda, bitta yadroga ega. Ayrim vegetativ nerv tugunlarida ko'pincha ikki va hatto ko'p yadroli hujayralar uchraydi.

Nerv hujayralarining yadrolari yumaloq, kondensatlanma-gan xromatin bilan och pufakcha ko'rinishiga ega. Odatda ular hujayraning markaziq qismini egallaydi. Yadro mahsuloti hujayra sitoplazmasidan juft membrana orqali chegaralangan.

Nerv hujayralarining sitoplazmasi plastinkasimon to'plam: hujayra markazi, mitoxondriya va boshqa barcha organoidlarni tutadi. Neyritlarning chiqish joyida

va o'simtalarining oxirgi tarmoqlarida mitoxondriyalar, ayniqsa, juda moidir. Sitoplazma turli fermentlarga, glikogen, temir, pigment kiritmalarga ega. Ba'zi nerv hujayralari, massalan, gipotalamik sohaning neyrositlari sekretsiyaga moyil. Bu hujayralarda turli kattalikdagi sekret tomchilari va donachalari joylashadi. Nerv hujayrasining o'ziga xos belgisi shuki, ularda maxsus tuzilma- lar — bazofil substansiya (Nissl moddasi) va neyrofibrillalar mavjuddir.

Bazofil substansiya nerv hujayralarini asosli bo'yoglar bilan bo'yalganda bazofil parchalar (Nissl parchalari) holida ko'rindi. Shuning uchun ham bo'yalgan nerv hujayralari targ'il ko'rinishga ega. Bu substansiya ko'pgina ribosomalar tutgan donador sitoplazmatik to'rnning o'zginasidir. Bu tuzilma neyritda va uning hujayra tanasidan chiqish joyida uchramaydi. Bazofil substansiyasining morfologiyasi hujayraning funksional holatiga ko'ra, o'zgarib turadi. Neyron zo'riq-

178

qanda, patologik holatlarda bu Nissl moddasi parchalanadi, yo'qoladi.

Elektron mikroskopda qaralganda bazofil substansiyaning uzluksiz sitoplazmatik to'rga birikib ketgan, turli kattalik va shakldagi pufakcha naychalardan iboratligi aniqlanadi. Shu pufakcha va naychalarni hosil qilgan membrana tashqi qavatida qator bo'lib mayda tanachalar - ribosomalar yotadi. Ular RNK va oqsilga juda mo'ldir. Sitoplazmaning bu komonentlari shu zonalarda oqsilning faol sintezidan dalolat beradi. Sitoplazmaning boshqa qismida ham sitoplazmatik to'r mavjud, lekin uning tuzilishi Nissl moddasidan farq qiladi.

Neyrofibrillalar - nerv to'qimasining kumush tuzi bilan ishlatilganda, sitoplazmada namoyon bo'luchchi ingichka ipchalaridir. Neyrofibrillalar nerv hujayrasining tanasida aniq yo'naliishga ega bo'lmagan zich to'r hosil qiladi. Hujayra o'simtalarida ular bir-biriga parallel yotadi va tola bo'yab yo'naladi. Elektron mikroskopda yanada kattalashtirib qaralganda, sitoplazmada birmuncha nozik ipchalar - protofibrillalar aniqlanadi. Kumush bilan impregnatsiya qilinganda xuddi shu tuzilmalar yorug'lik mikroskopida ko'rilgan neyrofibrillalarni hosil qiladi. Neyrofibrillalar sitoplazmaning to'g'ri oriyentatsiyaga ega bo'lgan oqsil molekulalaridan iborat. Bu juda harakatchan tizimdir. Nerv hujayralari qo'zg'alganda ular juda yaxshi ko'rindi.

Nerv hujayralari o'z faoliyatiga ko'ra sezuvchi, harakatlanti- ruvchi va kiritma xillariga bo'linadi.

Sezuvchi nerv hujayralari o'z dendritlari bilan to'qimaga birikkan. Shu to'qimadan ular qo'zg'alishni qabul qiladi, so'ngra neyritlar orqali kiritma neyronga yoki harakat hujayralariga uzatadi. Sezuvchi hujayralar, asosan soxta o'simtali- psevdounipolyar shaklda bo'lib, orqa miya nerv tugunlarida, bosh nerv sezuvchi tugunlarida, sezuv organlarida joylashadi.

Kiritma hujayralar - bu o'z dendritlari bilan sezuvchi hujayralardan yoki kiritma nerv hujayralardan impuls qabul qilib, neyritlari orqali harakat neyronlariga yoki deyarli barcha

179

markaziy nerv tizimini tashkil etgan kiritma hujayralariga uzatuvchi multipolyar hujayradir.

Harakatlantiruvchi hujayralar multipolyar shaklga ega bo‘lib, impulsbarni o‘z dendritlari bilan sezuvchi va kiritma hujayralardan qabul qiladi hamda neyritlari orqali ularni mushaklarga uzatadi. Shu joyda harakatlantiruvchi nerv hujayralarining neyritlari harakatlantiruvchi nerv nuqta- larini hosil qiladi. Ko‘ndalang-targ‘il mushaklarning harakatlantiruvchi nerv hujayralari orqa miya oldingi shoxlari yadrolarda, bosh stvol qismining harakat yadrolarida yotadi. Silliq mushaklarning harakat nerv hujayralari vegetativ gangliylarda va organlar devorlaridagi nerv tugunlarida joylashadi.

Nerv yadrolari yoki ularning o‘sintalari o‘rtasidagi kontakt sinaps deb ataladi. Sinaps — bu hujayra neyritining boshqa xujayra tanasidagi, neyritidagi yoki dentritidagi tarmog‘idir. Sinapsdagi kontaktlashuvchi yuzalar bir-biridan juda tor 20 nm bo‘shliq orqali ajralgan boiadi.

NEYROGLIYA

Neyrogliya turli vazifalarni: tayanch, chegaralovchi va sek- retor faoliyatlarni bajaruvchi ko‘p miqdordagi hujayralardan tashkil topgan. Neyrogliya elementlari ikki xilga: makrogliya va mikroigliyaga boiinadi. Makrogliya o‘z navbatida ependimagliya, astrogliya va oligodendrogliyalarga ajraladi.


Ependimagliya orqa miya kanali, miya qorinchalarini qoplaydi. Uning hujayralari uzun o‘sintaga ega boiib, kiprikchalar tutishi mumkin.

Ular tayanch vazifasidan boshqa yana sekretor faoliyatini ham o‘taydi. Ependima hujayralari orqa miya suyuqligining hosil boiishida ishtirok yetadi.

Astrogliya ko‘p miqdordagi o‘sintalarga boy boigan hujayralaran iborat boiib, markaziy nerv tizimining tayanch apparati hisoblanadi. Astrositlarning sitoplazmasi mitoxond-

jarayonidagi faol ishtirokini bildiradi.

180



Oligodendrogliya markaziy va periferik nerv tizimi neyrositlarning tanasini o‘raydi, nerv tolalari qobig‘ini hosil qiladi, harakat va sezuv nerv nuqtalari tarkibiga kiradi. Oligodendrogliya hujayralari har xil shakl va kattaliklarga ega. U

neyrosit va o‘zi o‘ragan nerv tolasining trofikasida katta rol o‘ynaydi. Glial hujayralari qon kapillyarlari bilan bevosita va yaqin kontaktlashib, ulardan olingan moddalarni qayta ishlaydi va unga nerv hujayralariga yuqori molekulali birikmalarni tayyor holida uzatadi, deb taxmin etiladi. Ba’zi patologik jarayonlar shu gliyaning shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi va shunga mos ravishda neyrositlarning o‘zgarishi mumkin. Nerv nuqtalarining tarkibiga kirgan oligodendrogliya hujayralari nerv impulsini qabul etish va o‘tkazishda birmuncha muhim rol o‘ynaydi.


141-rasm. Gliyalarning har xil turlari. a-plazmatik astrositlar; b-tolali astrositlar; d-oligodendrogliya; e-mikroigliya

181

Mikroigliya fagositar vazifasini bajaruvchi harakatchan, o‘simgalni hujayralardan iborat. Mikroigliya mezenximadan taraqqiy etsa, makroigliya nerv hujayralari bilan birga uning nayidan hosil bo‘ladi.

NERV TOLALARI

Nerv hujayralarining pardalar bilan o‘ralgan o‘simgalari uning tolalarini tashkil etadi. Pardalar gliya (oligodenrologliya) dan hosil bo‘lgan. Tola markazini neyroplazma va bo‘ylama yo‘nalgan neyrofibrillalardan iborat o‘q silindr (akson), nerv hujayrasi tanasining o‘simgasi tashkil etadi. Tolalar mag‘izli va mag‘izsiz turlarga bo‘linadi.



b

142-rasm. Nerv tolalarining tuzilishi va taraqqiyoti.

A-miyelinli va miyelinsiz nerv tolalari; b-shu tolalar hosil bo‘lish chizmasi

Miyelinlinerv tolalari murakkab tuzilgan birmuncha qalin parda bilan o‘ralgan. Uning miyelin tutgan bir qismi miyelinli parda deb ataladi va qatlamlili tuzilishga ega. Unda lipidlar va oqsillaming konsentrik qavatlari ketma-ket yotadi. Pardanining boshqa qismi

182

shvann pardasi yoki nevrilemma nomini olgan. Teng intervallarda tola siqilgan tugunli bo‘g‘inlar (Ranve bo‘g‘inlari) hosil qilib ingichkalashadi. Bu yondosh shvann hujayralarining chegaralaridir. Bu yerda miyelin boimaydi. Shvann hujayralarining yadroisi miyelin pardada bo‘g‘inlar orasida joylashadi.

Miyelinsiz nerv tolalari mag‘iz parda tutmaydi. Shvann hujayralari zich

joylashib, uning yadrolari bir- biridan ma'lum masofada yotgan protoplazmasining tortmalarini hosil qiladi. Bu tortmalardan bir necha o'q silindrlar o'tadi. Bir necha o'q silindrlar tutgan bunday tolalar kabel tipidagi tolalar deb ataladi. Miyelinsiz nerv tolalari, asosan vegetativ shu tizim tarkibida joylashadi. Biriktiruvchi to'qima bilan o'ralgan mag'izli va miyelinsiz nerv tolalari organlardan ancha mayda tutamlarni, ular o'z navbatida ayrim tolalarga tarqaluvchi periferik nerv stvollarini tashkil etadi. Tolalar sezgi yoki harakat oxirlariga o'tadi.

Nerv hujayralarining o'q silindrlari taraqqiyot jarayonida neyrogliya hujayralari sitoplazmasiga botib kiradi. Miyelinsiz nerv tolalari shunday hosil boiadi. Miyelinli tolalarning hosil boiishida botib kirish tufayli glial pardanining dublikaturasi - mezakson barpo boiadi. U o'q silindr atrofida ko'p marta o'ralib, natijada miyelin pardani shakkantiradi.

Glial hujayra pardasi, shunga binoan mezakson ham oqsil va lipidlardan iborat boiganligidan, miyelin parda ham o'z navbatida oqsil va lipidlarning ketma-ket joylashgan qavatlaridan iborat.


NERV NUQTALARI

Sezuvchi nerv nuqtalari - retseptorlar sezuv neyrositlari dendritlarning so'nggi tarmoqlaridan iborat. Bu tarmoqlar organizmning barcha to'qimalarida joylashadi va turli ta'sirlarni (og'riq, harorat, kimyoviy, mexanik va hokazo) qabul qiladi. Tuzilishining xususiyatlariga ko'ra, retseptorlar murakkab va oddiy turlarga boiinadi. Erkin oddiy nerv nuqtalari mag'iz pardasini yo'qotgan dendritlar tarmoqlaridan hosil boiadi. Murakkab, erkin boimagan nerv nuqtalarining tarkibiga o'q silindrni o'ragan gliya hujayralari kiradi. Ularning ba'zilari

183

biriktiruvchi to'qimali kapsula bilan ham o'ralgan. Bu kapsulalangan deb atalmish nerv nuqtalaridir. Retseptorlarning formasi turlichaydi. Ular o'z funksional xususiyatlariga ko'ra bir- biridan farq qiladi.

Erkin nerv nuqtalari barcha to'qimalarda uchraydi. Mag'izli tolalar miyelinni yo'qotadi va ingichka oxirgi tarmoqlarga bo'linadi. Ko'pincha, bir tolaning bunday tarmoqlari biriktiruvchi to'qimada, mayda qon tomirlarida va epiteliyda joylashadi.



143-rasm. Sezuvchi nerv nuqtalari. Kapsullanmaganlari: a-butasimon retseptor; b-tolaning erkin nuqtasi; d-polivalentli retseptor. Kapsulalanganlari: e-Fater-Pachanining tanachasi; f-Krauze kolbasi; g-sezuvchi tana

184

Kapsulali retseptorlar ham mag‘izli nerv tolalaridan hosil bo‘ladi. Tolalar mag‘zini yo‘qotadi. Ularning o‘q silindrlari shvann gliyalari bilan birgalikda tarmoqlanadi. Biriktiruvchi to‘qima bu tarmoqlar atrofida kapsula hosil qiladi. Shunday retseptorlarning bir formasi oxirgi kolbalar (Krauze kolbasi) hisoblanadi. Bu kolbaning markazida ichki kolbani hosil qiluvchi gliya bilan o‘ralgan tolaning o‘q silindri joylashadi. Bularga harorat ta’sirini qabul qiluvchi retseptorlar deb qaraladi. Paypaslab sezish tanachalari (Meysner tanachasi) va plastin- kasimon (Fater - Pachini) tanacha ham tabiiy jihatidan shunday tuzilgan. Ular sezgini ta’minlab beradi. Fater- Pachini tanachasi terining chuqur qismlarida, ba’zi ichki organlarda ko‘plab joylashadi. Ular bosimni qabul qiladi.

Skelet muskullarida retseptorlar biriktiruvchi to‘qimali qatlamlarda retseptorlar biriktiruvchi to‘qimali qatlamlarda ham, tolalarining yuzasida nerv tolalari mo‘l tarmoqlangan va ko‘p miqdordagi gliya yadrolari tutgan spiralsimon kalava hosil qiladi. Bu yerdagi muskul tolesi ham, nerv tarmoqlari ham biriktiruvchi to‘qimali kapsula bilan o‘ralgan. Bu retseptorlarga nerv- muskul duklari deb nom berilgan. Duk sohasidagi sarkoplazma o‘ziga xos ko‘ndalang - targ‘illikni yo‘qotadi, donadorlikka ega bo‘ladi va ko‘p miqdordagi yumaloq yadrolar tutadi.

Odatda barcha retseptorlarning tarkibiga kiruvchi glial hujayralar nerv impulsining hosil bo‘lish jarayonida ma’lum rol o‘ynaydi. Gliya ta’sirlovchi energiyaning nerv impulsi hosil bo‘lishiga o‘tishini ta’minlovchi transformator rolini bajaradi.

Harakat nerv nuqtalari orqa miya miya harakat yadrolarida va bosh miya hamda


vegetativ tizimning yadrolarida joylashgan motor hujayralari neyritlarning oxirgi tarmoqlaridan hosil bo‘lgan.

Motor nerv nuqtalari silliq muskul hujayralarda mag‘izsiz nerv tolalarining oxirgi tarmoqlaridan iborat bo‘lib, u tolalar silliq muskul hujayralariga yaqinlashadi va muskulda uncha katta boimagan yo‘g‘onlashmalar hosil qiladi.

Ko‘ndalang — targ‘il muskullardagi harakat oxirlari motor pilakcha (tanacha)lar nomlanadi. Bunday tanacha hosil qilishdan oldin periferik nerv tolasi — harakat hujayrasining

185

neyriti o‘z mag‘iz pardasini yo‘qotadi. Motor tanacha yumaloq yadrolar tutgan muskul tolasining sarkoplazmasiga botgan nerv tolasi o‘q silindrining oxirgi tarmoqlaridan iborat. Tanachaning shu sohasida sarkoplazma tipik ko‘ndalang-targ‘illikni yo‘qotadi, donadorlikka ega bo‘lib, ko‘p miqdorda mitoxondri-yalar tutadi. Elektron mikroskopdagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, neyritning oxirgi sitoplazmatik qobig‘i bilan kontakt hosil qiladi. Neyrit tarmoqlarining qobig‘i bilan sarkolemma



144-rasm. Ko‘ndalang — yo‘lli muskuldagagi harakatlanuvchi nerv nuqtasi. a-optik mikroskopda ko‘rinishi; b-elektronogramma: 1-lemmosit; 2-yadrozi; 3-nevrilemma; 4-aksoplazma; 5-aksolemma;

6-sarkolemma; 7-mitoxondriya; 8-sinaptik bo‘shliq; 9-muskul mitoxondriysi; 10-sinaptik pufakchalar; 11-membrana;


12-sarkoplazma; 13-muskul yadrozi; 14-miofibrilla
oralig‘ida sinaptik bo‘shliq — gomogen modda bilan to‘lgan yoriq bo‘ladi. Neyrit tarmoqlari membranasidan muskul tolasiga impulsning uzatilishi kimyoviy moddalar - mediatorlar- ning shu sinaptik bo‘shliqqa ajralib chiqishi bilan amalga oshiriladi.

Nerv tizimining vazifasi reflektor amaliga asoslangan. Ko‘p miqdordagi neyrositlar o‘zaro bog‘langan va impuls qabul

186

etilishini, uning harakati nerv hujayrasiga va nihoyat, ishchi organga uzatilishini ta’minlaydi. Nerv hujayralari bir-biri bilan sinapslar orqali bog‘langan. Sinaps sohasida ba’zi bir neyrositlarning oxirgi tarmoqlari keyingi neyrositlarning oxirgi tarmoqlari nozik ipchalar tarzida boshqa neyrositlar tanasi va o‘sintalarining yuzasi bo‘ylab yotadi yoki faqat o‘zining tugma yokiuzuksimon yo‘g‘onlashgan oxirlari bilan kontaktlashadi. Sinaps sohasi nerv o‘tkazish jarayonini boshqarib, impuls o‘tishi yoki susayishini ta’min etadi. Sinaps orqali impuls faqat bir


yo‘nalishda - bir neyrosit neyritining oxirgi tarmoqlaridan boshqa neyrositga o‘tadi. Neyrit membranasi va keyingi neyron tanasi hamda dendritlarining membranalari oralig‘ida sinaptik yoriq mavjud.



145-rasm. Neyronlardagi sinaptik kontakt. A -harakat yadrosining; B-simpatik gangliyaning; V-elektronogrammasi; a-akson; b-neyron; 1-mitoxondriya; 2-zich donalar; 3-presinaptik membrana; 4-vezikulalar; 5-possinaptik membrana

187

Impulsning uzatilishi - murakkab jarayon. Neyritning oxirgi qismlari ko‘pgina mitoxondriy, sinaptik pufakchalarga ega. Neyrit oxirgi tarmoqlarining membranasi biokimiyoviy jihatidan juda faol. Qo‘zg‘alish neyrit membranasiga yetgan vaqtida pufakchalaridan mediatorlar atsetilxolin, noradrenalinga ega boigan mahsulot sinaptik yoriqqa ajralib chiqishini kuzatish mumkin. Shu muddalarning o‘zi dendrit membranalari va keyingi neyrosit tanasining qo‘zg‘alishini keltirib chiqaradi. Nerv impulsining sezuvchi neyrosit - retseptorlaridan mushakning harakat oxiriga o‘tishini ta’minlovchi neyrositlar halqasi reflektor yoy nomini olgan.




146-rasm. Reflektor yoyning tuzilish chizmasi. 1-retseptor; 2-sezuvchi hujayra; 3-sinaptik apparat; 4-harakatlantiruvchi hujayra; 5-harakat muskuli

Eng oddiy reflektor yoyning sezuvchi va harakatlantiruvchi neyrositlardan iborat. Undagi nerv impulsining yo‘li quyidagicha bojadi. Sezuvchi hujayra dendritdan hosil boigan retseptorda muayyan qo‘zg‘alish ta’sirida nerv impulsi paydo bojadi. Impuls dendrit bo‘yicha tarqaladi, sezuvchi hujayrasining tanasiga yetadi va uning neyritlari bo‘yicha xarakatlantiruvchi hujayraga o‘tadi. Neyrit harakatlantiruvchi hujayra tanasi va dendritlarida sinaps hosil qiladi. Nerv impulsi harakatlantiruvchi hujayraga o‘tadi va uning neyriti bo‘yicha harakatlantiruvchi oxiriga o‘tib, qo‘zg‘alishdan keyin mushak tolasiga uzatiladi.


Odatda sezuvchi va harakatlantiruvchi neyrositlarning orasida kiritma neyrositlar mavjud bojadi. Hayvon tuzilishi qanchalik murakkab bois, kiritma neyrositlar o‘z funksiya- larining xususiyatiga ko‘ra turlicha, mukammalroq va organizmning ta’sirlovchi reaksiyasi shunchalik adekvat ravishda bojadi. Odamlarda deyarli barcha markaziy nerv tizimi kiritma neyrositlar tizimidan iborat.

Reflektor yoyning tarkibidagi ayrim neyritlarning yemirilishi yoki uzelishi boshqasining morfologiyasiga va funksiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sezuvchi hujayralarning nobud boishi harakatlantiruvchi hujayralarning buzilishiga sabab bojadi.


Sezuvchi hujayralarning dendritlarini tutuvchi periferik nervning kesilishi, harakatlantiruvchi hujayralar tanasida retrograd o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Kesilgan nerv stvoli- ning periferik qismi parchalanadi - Valler degeneratsiyasi deb shunga aytildi. Nerv tolalarining regeneratsiyasi kesilgan nerv markaziy oxirining o‘sishi hisobiga ro‘y beradi. Periferik nerv kuniga 1-4 mm tezlikda o‘sadi. Yemirilgan nerv hujayralari, odatda tiklanmaydi.



147-rasm. Ko'z to'r pardasining multipolyar nerv hujayrasi x400. 1-multipolyar hujayralar: a-hujayra tanasi; b-yadro; d-neyrit; e-dendrit; 2-nerv tolasi





148-rasm. Harakatlantiruvchi nerv hujayrasi sitoplazmasida tigroid modda x 400. 1-tigroidli nerv hujayra; 2-yadro va yadrocha;
3-dendritlar; 4-neyrit; 5-gliy hujayra yadrosi



149-rasm. Bosh miya nerv hujayrasining elektron mikrofotogrammasi x 17000. 1-neyron yadrosi; 2-mitochondriya; 3-donador endoplazmatik to 'r; 4-Golji apparati


191





150-rasm. Umurtqalararo nerv tugunini sezuvchi nerv hujayralari x 900

151-rasm. Miyelinsiz nerv tolasi x 400.1-nerv tolasi:a-nevrilemma; b-lemmositlar; d-o ‘q silindr




153-rasm. Nerv o ‘qining ko ‘ndalang kesimi x 400. 1-miyelinli nerv tolasining ko ‘ndalang kesimi; 2-endonevriya; 3-perinevriya; 4-qon tomirlari

193

152-rasm. Quymichning miyelinli nerv tolasi x 400.1-nevrolemma; 2-miyelinli po ‘stloq; 3-halqasimon ushlagich; 4-nevrolemma bog ‘i; 5-o ‘q silindr; 6-biriktiruvchi to ‘qima tolasi

154-rasm. Miyelinli nerv tolasini ketma-ket tuzilishi. 1-o ‘q silindr; 2-


mezakson; 3-nevrolemma; 4-halqasimon ushlagich;
5-lemmosit sitoplazmasi



155-rasm. Miyelinli aksonning elektron mikrofotogrammasi x 10000. 1-mezakson o‘rami; 2-akson




156-rasm. Ko ‘zning shoh pardasida sezuvchi nerv nuqtalari x 400. 1-shoh pardasining ko‘p qavatli epiteliysi; 2-oldingi chegaralovchi plastinka; 3-shoh pardanining moddasi; 4-epiteliy hujayralari oralig ‘idagi nerv nuqtalari; 5-shoh parda moddasida nerv tolasi



157-rasm. Ko‘ndalang yo‘lli muskullarda sezuvchi nerv nuqtalari x 400. 1-aferent nerv tolasi; 2-nerv tolasi shoxlanishi; 3-sezuvchi nerv nuqtalari.

195



158-rasm. Oddiy reflektor yoy chizmasi. A-ikki neyronli reflektor yoy. B-Uch neyronli reflektor yoy: 1-orqa miya; 2-sezuvchi psevdounipolyar nerv hujayrasi; 3-teri retseptori; 4-sezuvchi hujayra dendriti; 5-neyrit; 6-harakatlantiruvchi nerv hujayra;

7-uning neyriti; 8-muskulda harakatlantiruvchi nerv nuqtasi;

9-orqa ildiz; 10-oldingi ildiz; 11-qo‘sishimcha neyron; 12-orqa shox; 13-oldingi shox; 14-oraliq zona; 15-yonbosh shox; 16-markaziy kanal

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov D.A. Gistologiya va embriologiya T. «0‘qituvchi» 1966.
2. Aleksandrovskaia O.V., Radostina T.N., Kozlov. N.A. Sitologiya, histologiya, embriologiya. M.VO «Agropromizdat» 1987.
3. Afanasev Yu. I. i dr. Laboratornie zanyatie po kursu histologii, sitologii i embriologii. M. «Vissaya shkola» 1990.
4. Almazov I.V., Sutulov L.S. Atlas po histologii i embriologii. M. «Meditina» 1978.
5. Vrakin V.F., Sidorova.V. Morfologiya s/x jivotnih.M.VO. «Agropromizdat» 1991.
6. Volkova O.V., Yeletsskiy Yu.K. Gistologiya asoslari bilan histologik texnika. T. «Meditina» 1985.
7. Gofman-Kadoshnikov P.B., Petrov A.F. Biologiya bilan umumiyl genetika asoslari. T. «Meditina» 1976.

8. Yeliseev V.G. va b. Atlas. M. «Meditina» 1970.
 9. Zufarov K.A. Gistologiya. T. «Ibn-Sino» 1991.
 10. Zufarov K.A. va b. Gistologiyadan amaliy qo'llanma. T. «Meditina» 1972.
 11. Zufarov K.A. va b. Atlas elektronnaya mikroskopiya organov i tkaney. T. «Meditina» 1971.
 12. Ivanov I.F., Kovalskiy P.A. Sitologiya, gistologiya, embriologiya. M. «Kolos» 1976.
 13. Ibrohimov Sh.I. va b. Sitologiya, gistologiya va embriologiya. T.«Mehnat» 1998.
 14. Qodirov Ye.Q. Gistologiya T. «0'qituvchi» 1994.
 15. Katsnelson Z.S., Rixter I.D. Praktikum po sitologii, gistologii i embriologii. L. «Kolos» 1979.
 16. Kuxtina J.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po sitologii. M. «Prosvesheniye» 1971.
 17. Manuilova Ye. Gistologiya bilan embriologiya asoslari. T. «0'qituvchi» 1976.
 18. Rayskaya T.M. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po kursu gistologii s osnovami embriologii. M. «Prosvesheniye» 1971.
 19. Rolan J.K. i dr. Atlas po biologii kletki. M. «Mir» 1978.
 20. Slyusarev A. A. Biologiya s obshey genetikoy. M. «Meditina» 1978.
 21. Xoliqov X va b. Biologiya. T. «Ibn-Sino» 1996.
- 197

MUNDARIJA

So'z boshi	3
Mikroskop va unda ishlash qoidasi	4
Mikroskop turlari	7
Preparatlar tayyorlash texnikasi	11
I bo lim. SITOLOGIYA	
Hujayra tarkibiy qismlari va xillari	18 ^
Plazmolemma. Fagositoz. Pinositoz	22
Hayvon va o'simlik hujayralarining o'xshashligi hamda farqlari	23
Endoplazmatik to'r	27
Ribosomalar	29
Mitoxondriya	31
Plastidalar	34 J
Golji apparati	36
Golji apparati funksiyasi ..> ..	38
Lizosomalar	38
Hujayra markazi	40
Mikronaychalar	43
Hujayralarning harakat organoidlari	43
Maxsus organoidlar	46
Hujayra kiritmalari	47
Yadro ..	49

Xromosoma.....	52
Hujayra bo‘linishi.....	153
Amitoz	61
Meyoz	62
Hujayraning kimyoviy tarkibi	65
Hujayraning o‘sishi va differensirovkasi ..	66
II boiim. EMBRIOLOGIYA	
Ko‘payish organlari.....	69
Urg‘ochi hayvonlarning ko‘payish organlari	71
Tuxumdon tuzilishi	71
Gametogenez.....	73
Jinsiy hujayralar tuzilishi.....	78
Tuxum hujayrasi	80
Urug‘lanish	82
Maydalanish	84
Gastrulyatsiya	87
Baqa embrionining Gastrulyatsiyasi	91
Mezodermaning hosil bo‘lishi	95
Provizor organlarining hosil boiishi.....	97
198	
III boMim. GISTOLOGIYA	
To‘qimalar klassifikatsiyasi	103
Epiteliy to‘qimasining umumiy xarakteristikasi va klassifikatsiyasi ..	105
Ko‘p qavatli yassi epiteliy	113
Bezlar.....	119
Tayanch-trofik to‘qimalar	124
QON.....	125
Eritrotsitlar (qizil qon tanachalari).....	127
Leykositlar	127
Granulositlar	128
Donasiz leykositlar (agranulositlar).....	130
Qon plastinkalari (trombositlar)	131
Limfa	132
Shakllanmagan siyrak biriktiruvchi to‘qima	141
Maxsus xususiyatga ega bo‘lgan biriktiruvchi to‘qimalar	146
Zich tolali biriktiruvchi to‘qima	148
Tog‘ay to‘qimasi	149
Suyak to‘qimasi.....	151
Muskul to‘qimasi	166
Silliq muskul to‘qimasi	166
Ko‘ndalang yoili muskul	167
Yurak muskuli.....	171
Nerv to‘qimasi.....	177
Nerv hujayralari	177
Neyrogliya	180

Nerv tolalari 182
Nerv nuqtalari 183
Foydalilanilgan adabiyotlar 197
O ‘quv-uslubiy nashr SAYFULLO TO‘YCHIYEV, NIZOM TOSHMANOV
SITOLOGIYA
EMBRIOLOGIYA
GISTOLOGIYA
Darslik
Muharrir Tex.muharrir Musahhih Kompyuterda sahifalovchi
Abduvali QUTBIDDIN Elena DEMCHENKO Myazzam HAYITOVA
Nodir RAHIMOV
IB № 4093
Bosishga 28.10.2005 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32. Bosma tobog‘i
6,25. Shartli bosma tobog‘i 10,45.
Adadi 2000 nusxa. Bahosi kelishgan narxda. Buyurtma № 177.
«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi. «Yoshlar
matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
700113 Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko‘chasi, 60.

